

O`ZBEKISTON RESPUBLİKASI XALQ TA`LIMI VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
TARIX FAKUL`TETI
TARIX KAFEDRASI

4^V KURS TARIX BAKALAVR TA`LIM YO`NALISHI TALABASI

Madrimov Sherzod Bekimmat o`g`li

« O`zbekistonda arxeologiya fanining paydo bo`lishi va taraqqiyoti»

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:
t.f.d. prof. M.Mambetullaev

Nukus 2014-yil

Bitiruvchi talaba Madrimov Sherzodning «O'zbekistonda arxeologiya fanining paydo bo'lishi va taraqqiyoti» mavzusidagi bakalavr malakaviy bitiruv ishi Tarix kafedrasining 2014 yil ___-may kungi ___-sonli bayonnomasi asosida davlat attestatsiya komissiyasiga himoyaga yuborish tavsiya etildi.

Tarix kafedراسи mudiri:

A.Saribaev

Bitiruvchi talaba Madrimov Sherzodning «O'zbekistonda arxeologiya fanining paydo bo'lishi va taraqqiyoti» mavzusidagi bakalavr malakaviy bitiruv ishi 2014 yil ___-may kungi institut rektorining _____-sonli buyrug`i asosida davlat attestatsiya komissiyasiga himoyaga yuborildi.

Davlat attestatsiya komissiyasining qarori bilan Madrimov Sherzodning bakalavr malakaviy bitiruv ishiga _____ ball qo'yildi.

MUNDARIJA.

Kirish.....	3-22
Bop I.	
1.1. Arxeologiya fanining Evropada paydo bwlishi tarixidan.....	23-29
1.2. Gerkulanum va Pompeyning arxeologik qazish uslublarini tushunishida manba ekanligi.....	30-32
Bop II.	
2.1. Arxeologiyani XVIII asr oxiri XIX asrdagi rivoji.....	32-36
2.2. Rossiyada arxeologiya fanining paydo bwlishi.....	36-42
2.3. İbtidoiy arxeologiyaning paydo bwlishi.....	42-47
Bop.III.	
3.1. O'zbekistonda arxeologiya fanini paydo bwlishi va rivojlanishining bosqichlari.....	47-51.
3.2. O'zbekistonda arxeologiya fanini vujudga kelishida Ya.G'.G'ulomovning roli.....	51-59
3.3. Yah'yo G'ulomovning izdoshlari.....	59-80
Xulosa.....	81-87
Ilova	
Foydalanilgan adabiyotlar rwyxati	

Kirish

O'zbekiston mustaqillika erishgandan keyin, jamiyat h'ayotining barcha soh'alarida, jumladan ijtimoiy fanlarda xam tub o'zgarishlarga asos solindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning mamlakat tarixchi olimlari bilan uchrashuvidan so'ng O'zbekiston davlatchiligi tarixini o'rganishga yondashuv o'zgardi¹.davlatimiz tomonidan tarix faniga bo'lgan e'tabor juda ham yuqori darajada bo'lmoqda.

Prezidentimiz Islom Karimov o'zining juda ham ko'plab chiqishlarida, ayniqsa tarixchi olimlar bilan uchrashuvlarida xalqimiz tarixini chuqur va haqqoniy o'rganishni va shu bilan birga o'sha unutilayozgan tarixni xalqimizga qaytarib berishni talab qildilar.

Ma'lumki, arxeologiya fani ham tarix fani tarkibiga kiradi. Eng dastlabki tarixchilardan biri «tarixni otasi» degan nomga sazovor bo'lgan Gerodot «tarix fanining maqsadi – insoniyat jamiyatini rivojlanishini, o'tmishini o'rganish va uni saqlashdan iboratdir» deb aytgan edi. Xuddi shunday vazifa arxeologiya fani oldida ham turadi. Agarda tarix fani o'zining tadqiqotlarida asosiy e'tiborni yozma manbalarni o'rganishga qaratsa, arxeologiya fani esa, o'zining tadqiqotlarida xalqimizdan qolgan moddiy ashyolarni o'rganishga qaratadi. Demak, tarix fanining ham, arxeologiya fanining ham maqsadi insoniyat tarixini o'rganishdir. Ammo har ikki fan ham o'zining o'rganish manbasi qilib mutlaqo boshqa-boshqa narsalarga suyanadi.

Insoniyat tarixi eng dastlabki odamning eng oddiy tosh qurolini yasagan davridan boshlanadi. Ya'ni eng qadimgi maymunsimon odamning tarixi eng dastlabki toshga juda ham oddiy usulda ishlov bergan paytidan boshlanadi. Bu dastlabki maymunsimon odamlarining oz bo'lsa-da ishlov bergan qurollari shu darajada qo'pol edi-ki, o'sha tosh qurolini soy bo'ylaridagi bir tomoni uchgan oddiy toshdan farqi yo'q edi. Afrikaning Olduvay darasidan topilgan tosh qurollari xudi shunday shaklda edi. Shuning uchun bunday tosh qurollarni ko'rgan arxeologlar ularni *oolitlar* deb aytishdi. Xuddi shunday uchlarga ishlov bergan maymunsimon odamning juda ham uzoq davom etgan tarixining boshlanish nuqtasi ham aynan shu dastlabki yasalgan tosh kurolidan boshlangan edi. Olduvay

¹ O'z.R.FA Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish twg'risidagi Vazirlar Mah'kamasining qarori, Xalq swzi. 1998, 29 iyul

darasidan topilgan odam qoldiqlari va yuqoridagi tosh qurollarni yoshi o`rtacha 1 mln. 500 ming yil va hatto ayrimlari 2 mln. yillar bilan davrlanmoqda. Demak, ilk odam paydo bo`lgan davrdan dastlabki yozuvni paydo bo`lgan davriga qadar bo`lgan tarixni to`liq arxeologiya fani o`rganadi.

Yozma manbalar ham, ayniqsa yozuvni dastlabki bosqichlarida tarixni hamma jabhalarini to`liq qamrab ololmaydi. Qadimgi davr, antik davr va hatto o`rta asrlar tarixi va madaniyati ham arxeologik bilimlar asosida o`rganiladi. Shuning uchun arxeologiya fani xizmat qilishi mumkin bo`lgan juda katta davr, hatto so`nggi o`rta asrlargacha bo`lgan davrning hammasi arxeologiya fanining yordamiga muhtojdir.

Tarix fanini asosiy manbasi manbashunoslik bo`lganligi uchun asosiy o`rganiladigan ob`yekt ma`lum bir xonada amalga oshadi. Arxeologik tadqiqotlarni olib borish jaryonida esa bu ish ikki bosqichga bo`linadi. Birinchi bosqichda dala tadqiqotlari darajasida amalga oshsa, ikkinchi bosqich esa laboratoriya va kabinetda bajariladi. Birinchi bosqichda dala sharoitida ma`lumot to`planadi, topilgan ma`lumotlar tanqidiy nuqtai nazardan tekshirib ko`riladi, boshqa shunday ma`lumotlar bilan taqqoslanadi. Dala tadqiqotlari tugagandan keyin bu materiallar laboratoriya sharoitida yuviladi, ta`mirlanadi, suratga olish, chizish, kimyoviy yoki fizik xususiyatlarini o`rganish uchun analizlar qilinishi mumkin.

Dala ishlari va asosiy laboratoriya ishlari tugagandan keyin kabinet ishlari boshlanadi. Bu davrda barcha topilgan topilmalar tarix yoki madaniyatni o`rganadigan manba sifatida qaraladi. Bu jarayonda shu manbani haqqoniyligi tekshirib ko`riladi, uni qo`shni hududlardagi, yoki uzoqroq joylardagi shunga o`xshagan manbalar bilan qiyosiy taqqoslanadi. Xullas, arxeologik manbadan uzoq, yoki yaqin o`tmishimizni o`rganish uchun muhim material sifatida foydalanish mumkin.

Demak, arxeologik tadqiqotlar faqat o`zining dala bosqichi bilan tugab qolmaydi. Dala arxeologiyasi – bu ochiq osmon ostida joylashgan arxeologik obidalarini ilimiy o`rganishning yig`indisidan iboratdir. Bu arxeologik obidalar yerning turli qismlarida bo`lishi, ya`ni tog`li xududlarda, sahro, yoki dashtda, o`rmonda yoki suvning bo`yida, hatto dengizning ostida ham bo`lishi mumkin.

Har qanday arxeologik obidani qazish arxeologdan yuksak istedodni talab qiladi. Arxeolog biron-bir uyni qaziyotgan bo`lsa, o`sha uyni o`z davrida usta qanday qilib qurgan bo`lishi mumkinligini tasavvur qila olgan taqdirdagina o`sha obidani to`g`ri qazishi mumkin. Aks holda, o`sha obidani qazish jarayonida unga juda kata ziyon yetkazib qo`yishi mumkin. Arxeolog faqatgina o`sha qazilayotgan uynigina emas, balki o`sha barcha arxeologik ob`yektning strukturasi, vazifasini tushunmay turib, uni tarixshunoslik nuqtai-nazaridan talqin qila olmasligini yaxshi bilishi kerak.

Bunday talqin qilish imkoniyatining juda ko`p qismi dala sharoitida hal qilinishi, o`sha dala sharoitida arxeolog manbani juda yaxshi tushunib olishi kerak bo`ladi. Chunki o`sha obidani, o`sha tarixni o`rganish dala sharoitida boshlangan bo`ladi. Shuning uchun arxeolog juda ko`p hollarda bir necha martadan dalaga qaytib, manbani qayta-qayta ko`rishiga, uni tekshirishiga to`g`ri keladi.

Shunday qilib, arxeologik tadqiqatning asosiy maqsadi tarixni o`rganishdir. Arxeologik obidani, arxeologiya fanini, ayniqsa uni qazish usullarini bilmay turib to`g`ri tarixiy xulosa chiqarib bo`lmaydi. Shuningdek tarixiy voqea va hodisalarni bilmay turib ham arxeologik obidani to`g`ri qazish, ayniqsa uni to`g`ri talqin qilish mumkin emas. Bu har ikki jarayon bir-biri bilan uzviy bog`likdir.

Arxeologiya fani dunyo miqyosida katta tarixiy taqdirga ega, o`z shakllanish va taraqqiyotining uzoq yo`lini bosib o`tgan ijtimoiy gumanitar fan sohasidan biridir. Manbalardan ma`lumki, insoniyat antik davrdayoq qadim o`tmish tarixga, moddiy madaniyat va san`at namunalarini o`rganishga qiziqqa boshlagan (Fukidid, Pavsoniy, Pliniy...). Yunon faylasufi Platon (Aflotun) o`z asarida «arxeologiya» atamasini mil. avv. IV asrdayoq «qadimgi davrlarda o`tgan voqealar» ma`nosida ishlatgan. Miloddan avvalgi VI asrda Vavilon hukmdori Nabonidning qadimgi joylarda qazishlar o`tkazgani, Qadimgi Rimda ham muntazam qidiruv qazishmalari olib borilgani haqida ma`lumotlar mavjud. Demak, arxeologiya fan sifatida shakllanish jihatidan boshqa sohalarga nisbatan ancha yosh bo`lsada, uning muqaddima ildizlari uzoq tarixiy davrlarga borib taqaladi.

Qadimgi tarix va san`at namunalariga bo`lgan qiziqish o`rta asrlarda bir qadar pasaygan. Lekin XIV-XVI asrlardagi evropa «Uyg`onish davri»da ko`hna osori-atiqalar va antik davr madaniyati, ayniqsa, tasviriy san`atiga bo`lgan qiziqish qaytadan

kuchaygan. «Uyg`onish davri» haykaltaroshlari, rassomlari uzoq antik davrda o`ngan hamkasblari ijodi ta`sirida va hatto ularga takdid qilgan holda o`z asarlarini yarata boshlaganlar. Natijada, o`sha davr jamiyatining muayyan tabaqasi, aslzodalar orasida qadimgi dunyo, ayniqsa antik davrga oid asl nusxa osori -atikalarni to`plash, keng miqyosda «kolleksiyachilik» ishlarini yo`lga qo`yish odat tusiga kirgan. Bu holat o`z navbatida, XVII asrda rejasiz asosda, xazina qidirish ilinjida ko`p sonli qazuv ishlarini o`tkazila boshlashga va katta miqdordagi arxeologiya yodgorliklarini yo`q bo`lib ketishiga sabab bo`lgan.

G`arbiy evropada kechgan jarayonlar singari Rossiyada ham ko`hna ashyolarga bo`lgan qiziqish ancha erta XVII asrdan boshlangan. XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib Rossiya dvoryanlari o`rtasida antik davrning san`at asarlari va umuman moddiy madaniyati namunalariga bo`lgan ehtiyoj juda kuchayib ketgan. Shu sababli, skif mozorqo`rg`onlari, Qrim yarim orolidaga qadimgi yunon polis - shaharlari, Bosfor podshohligiga karashli ko`hna yodgorliklar ayovsiz ravishda qazib ochila boshlagan.

Bu davr «arxeologiyasi», asosan qimmatbaho metallardan ishlangan ashyolar, mumtoz san`at namunalarini qo`lga kiritishni maqsad qilib olgan. Sababi, bunday osori - atikalarni bozori chaqqon bo`lib, ularni evropa mamlakatlaridagi auktsionlarda, muzeylar va shaxsiy koleksionerlarga yaxshi narxlarda sotish mumkin edi. Eng achinarlisi, asosiy maqsadi moddiy manfaat ko`rish bo`lgan ushbu «tadqiqot»larning na ilmiy, na uslubiy jihatlariga e`tibor berilgan. Ma`lumotlarga ko`ra, XIX asr o`rtalarida birgina graf A.S.Uvarov tomonidan qisqa muddat ichida yuzlab mozorqo`rg`onlar qazib ochilgan va undagi moddiy madaniyat namunalari talon-taroj qidingan. Bu paytda, yuqorida ta`kidlanganidek, qazuv-qidiruv ishlari bilan asosan, boy-badavlat, aslzoda odamlar shug`ullangan va haqli tarzda mazkur davr izlanishlari «dvoryanlar arxeologiyasi» nomi bilan tarixga kirgan.

Ma`lumki, bu davrlarda, ya`ni XVIII asrning oxiri XIX asrning birinchi yarmida Turkistonda qadimgi joylarda, ko`hna makonlarda, qazuv ishlari olib borish odat tusiga kirmagan. Bu holatni mahalliy aholining ma`naviy, ruhoni dunyoqarashi bilan izohlash mumkin. Zero, o`lkaning ruhoni hayotida ustuvor bo`lgan islom ahkomlari, shariat qoidalari bo`yicha ko`hna joylar, muqaddas qadamjoylar, qadimiy qabristonlar va makonlar o`rnini qazish, marhumlar ruhini bezovta qilish «gunohi kabir» hisoblangan. Lekin ushbu fikrlar o`sha zamonlarda Turkiston o`lkasi aholisida o`z o`tmish

tarixiga, qadimiy ajdodlardan qolgan moddiy madaniyat namunalari qiziqish, ular haqida muayyan bilim, ilmiy tushunchalar batamom bo'lmagan degan g'ayri ilmiy ma'noni bermaydi. Binobarin, Turkiston o'lkasi podsho Rossiyasi qo'shinlari tomonidan istilo qilinib undagi mavjud uchta xonlik vassal davlatlarga aylantirilgandan so'ng, XIX asrning 70-yillaridan boshlab o'lka xalqlarining o'tmish tarixi va madaniyatini faol tarzda o'rganishga kirishgan rus mutaxassislari, ushbu tadqiqotlarning muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun mahalliy aholining peshqadam ziyolilari, ilg'or fikrlovchi ulamolari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatganlari haqida aniq ma'lumotlar mavjud.

O'sha davrlarda Rossiya ijtimoiy gumanitar fanining darg'alari hisoblangan N.I.Veselovskiy, V.V.Bartol'd, e.F.Kal', A.N.Samoylovich va ko'plab boshqa taniqli olimlar o'zlarining Turkiston bo'yicha o'tkazgan tadqiqotlarida mahalliy o'lkashunoslar, kolleksionerlar va qadimiyat havaskorlaridan katta amaliy ko'rsatmalar, qimmatli yo'l-yo'riq, maslahatlar olganliklarini, o'z xotira va hatto ilmiy asarlarida bot-bot ta'kidlaganlar.

Samarqandlik hattot, musavvir Mirzo Qosimov «yuz yuzining sayqali» bo'lgan shahardagi mavjud mahobatli me'moriy yodgorliklarning «naqshi - nigori»dan mahorat bilan nusxa olish va ularni to'plash bilan mashg'ul bo'lgan. Shuningdek, u Jizzax yaqinidagi Ilon o'tti darasi qoyasiga Mirzo Ulug'bek va Abdullaxon II tomonidan bitilgan tarixiy tosh lavhadan ham nusxa ko'chirgan. Mirzo Qosimov o'zining yuqorida ta'kidlangan suratlar to'plami bilan 1886 yilda Toshkentda o'tkazilgan Turkistonning hunarmandchilik va sanoati ko'rgazmasida qatnashgan va maxsus mukofotga sazovor bo'lgan [Sadikova, 1975. 45 s.]²

Toshkentlik savdogar Akram Asqarov o'zining ko'p sonli, turli davrlarga oid qadimiy ashyolar kolleksiyasi bilan shuhrat qozongan. U N.I.Veselovskiy rahbarligida Turkistonda o'tkazilgan qazuv-qidiruv tadqiqotlarida bir necha marta qatnashgan. N.I.Veselovskiyning ta'rifiga ko'ra, Akram Asqarov, ayniqsa qadimgi tangalarni yig'ishda katta tajribaga ega bo'lgan, u aksariyat hollarda tangalardagi yozuvni bexato o'qigan, zarb qilingan shahri va sanasini to'g'ri aniqlagan. Akram Asqarov kolleksiyasi o'z davri uchun nafaqat katta ilmiy qimmatga ega, balki uning kolleksiyachilik sa'y - harakatining o'zi o'sha davr uchun Turkiston ziyolilari faoliyatidagi nodir hodisa hisoblangan.

² Sadikova N Muzeynoe delo v Uzbekistane. Tashkent, Fan, 1975.

Turkistonga ilmiy maqsadda kelgan taniqli olimlar birinchi navbatda o'z ishlarini Akram Asqarov kolleksiyasi bilan tanishishdan boshlashar edi. U o'sha paytda Turkistonda endi kurtak otayotgan arxeologiya fanining faol ishtirokchisi, tashkilotchisi va ijrochilaridan biri bo'lib shakllangan.

Ma'lumotlarga qaraganda, taniqli rus sharqshunosi, arxeolog olim, prof. N.I.Veselovskiy (1848-1918) Turkistonga qilgan dastlabki ilmiy safari paytida, taqdir uni Akram Asqarov bilan uchrastiradi. Afrosiyob va uning atrofidagi yodgorliklar, Buxoro, Sirdaryo, Farg'ona viloyatlaridagi tarixiy obidalarni o'rganishda Akram Asqarov unga katta yordam beradi. Akram Asqarovning mahalliy aholi bilan tezda til topishishi, ko'hna yodgorliklar haqidagi bilimi, ayniqsa arxeologiyaga oid asosiy, tayanch yodgorliklarning joylashgan o'rni aniq topib berishi N.I.Veselovskiy tadqiqotlari muvaffaqiyatining garovi bo'lib xizmat qiladi va u qazuv tadqiqotlari jarayonida haqli tarzda mashhur olimning o'ng qo'lga aylanadi.

Akram Asqarovni nafaqat ko'hna osori-atiqalar yig'uvchi kolleksioner, balki birinchi o'zbek havaskor arxeolog sifatida ham e'tirof etish mumkin. Bu borada N.I.Veselovskiyning Akram Asqarovni Turkiston arxeologiyasi rivojiga qo'shgan hissasini taqdirlash xaqidagi «Rus Arxeologiya jamiyati» komissiyasiga yozgan taqdimnoma xati diqqatga sazovordir. Taqdimnomada muallif Akram Asqarovning kolleksiyachilik va arxeologik qazuv ishlarda ko'rsatgan faoliyatini yuqori baholab quyidagilarni yozadi: «Turkiston o'lkasida qadimgi ashyolar bilan savdo qiluvchilar ko'plab uchraydi, rus kolleksiyachilari ham aksariyat hollarda bunday savdodan faqat foyda ko'rish maqsadida ish olib boradilar. Lekin Akram Asqarov arxeologiya bilan faol tarzda qiziqsada, undan moddiy foyda ko'rishni o'ylamaydi, aksincha arxeologiyaning rivoji uchun o'z hisobidan haq to'laydi... Sirdaryo, Farg'ona viloyatlari va Buxoro amirligiga uyushtirgan arxeologik safarlarimda shaxsan men uchun u juda katta xizmat qildi, uning yordamisiz ko'p narsani bilmas va muvaffaqiyatga erishmas edim» [Lunin, 1964, 231-232 s]³. 1887 yilda «Rus Arxeologiya jamiyati» Akram Asqarovni «Arxeologiya rivojiga qo'shgan xissasi uchun» kichik kumush medal bilan mukofotlaydi. O'sha davr matbuotining bergan xabariga ko'ra, u «o'z davrida turkistonliklardan chiqqan mashhur, nodir arxeologik buyumlar yig'uvchi va Parijdagi ilmiy arxeologiya jamiyatining

³ Lunin B.V. O numizmaticheskoy kolleksii uzbekskogo sobiratelya drevnostey Akrama Askarova (po arxivnim dannim) // İMKU. Vip. 5. Tashkent, Fan, 1964.

a`zosi edi»[«Turkestanskije vedomosti», 1912, №46].⁴

Akram Asqarov vafoti arafasida (vafoti 1891 y.) o`z kolleksiyasini davlatga topshirishni va davlat odamlari sa`y - harakati tufayli ilm-fanga xizmat qilishini ta`minlashni vasiyat qilgan. Ushbu vasiyatga ko`ra, uning kolleksiyasidan 504 ta tanga, jumladan, 5 ta oltin, 321 ta kumush, 178 ta mis tanga Turkiston general-gubernatori A.B.Vrevskiyning shaxsan ko`rsatmasi bilan Imperator Ermitaj muzeyiga topshirilgan⁵ [Lunin, 1964,233-246 s].

Turkiston o`lkasi qadim tarixi va madaniyati o`rganilishining yana bir jonkuyari, samarqandlik o`zbek, taniqli kolleksiyasi va o`lkashunos Mirza Abdulla Buxoriy, aslida ikkinchi gil`diyali savdogar bo`lib, o`z davrining ilg`or fikrlovchi ziyolilaridan edi. U uzoq yillar davomida qadimgi ashyolarni yig`ish va ularni o`rganish bilan shug`ullangan. 1880 yillarda o`lka arxeologiyasi bilan shug`ullanishni boshlagan N.I.Veselovskiy Mirza Abdulla bilan aloqa bog`lagan, hamkorlik ishlarini boshlagan, kolleksiyasini ko`zdan kechirib, undan 1202 ta qadimiy ashyo, xususan, 11 ta oltin, 77 ta kumush, 951 ta mis tanga, 18 ta muhr, 6 ta odam va hayvonlarning tosh haykalchasi va boshqa namunalarni olgan.

Mirza Abdulla Buxoriy keyingi davrdagi o`z faoliyati tufayli oddiy qadimgi ashyolar yig`uvchisidan mahalliy o`lkashunos, numizmat va havaskor arxeolog darajasiga o`sib chiqqan. Ushbu fikrlarning to`g`riligini uning «Rus Arxeologiya jamiyati» komissiyasiga yozgan xatidagi «barcha faoliyati fan va jamiyat foydasi, mahalliy aholida qadimgi osori-atiqalar haqida muayyan bilim va tushunchalar hosil qilish uchun bag`ishlangani» haqidagi ma`lumotdan ham bilsa bo`ladi⁶ [Muminov, 1957, 116s].

Rossiyadagi oktyabr` davlat to`ntarishigacha bo`lgan davr O`rta Osiyo arxeologiyasini o`rganishda mahalliy ziyolilar vakillarining ham xizmatlari e`tiborga sazovor bo`lgan. Turkiston xalqlari qadimiyatini o`rganish havaskorlaridan yana biri samarqandlik hattot Mulla Qozi ibn Mulla Abdurashid o`g`li Abu Said Mahsum edi. Samarqanddagi Shayboniyxon madrasasida mudarris bo`lib faoliyat ko`rsatgan bu ulamo haqida N.I.Veselovskiy - «Mirza Abu Said Mahsum timsolida Samarqandning eng o`qimishli, musulmon adabiyoti bilimdonlaridan biri bilan tanishishga musharraf

⁴ «Turkestanskije vedomosti», 1912, №46.

⁵ Lunin B.V. O numizmaticheskoy kolleksii uzbekskogo sobiratelya drevnostey Akrama Askarova (po arxivnim dannim) // İMKU. Vip. 5. Tashkent, Fan, 1964.

⁶ Muminov İ.M. İz istorii razvitiya obshestvenno-filosofskoy misli v Uzbekistane kontsa XIX - nachala XX vv. Tashkent, Gosizdat, 1957.

bo`ldik»- deb e`tirof etgan edi⁷ [Lunin, 1966, 177 s].

Mashhur sharqshunos olim V.V.Bartol`d ham Abu Said Mahsum bilan shaxsan tanish bo`lgan va undan Sulton Shohruh Mirzo zamonidan Shayboniylarning so`nggi vakillari hukmronligiga qadar davrga tegishli turli yorliqlar, hujjatlar, vaqfnomalarni olgan⁸ [Bartol`d, 1904, 219 s].

Hattotlik san`atini mukammal egallagan Abu Said Mahsum Samarqanddagi me`moriy obidalar, xususan Go`ri-Amir va Shohi-Zinda maqbaralari qabrtoshlari yozuvlaridan ustalik bilan nusxa ko`chirgan. Uning ko`chirgan nusxalaridan N.I.Veselovskiy, V.A.Krachkovskaya, A.A.Semyonov kabi taniqli sharqshunoslar o`z ilmiy tadqiqotlarida keng foydalanishgan⁹ (Lunin, 1969, 178-180 s).

XX asrning birinchi o`n yilligi oxirlarida V.L.Vyatkin rahbarligida Ulug`bek rasadxonasi qoldiqlarini topish maqsadida o`tkazilgan qidiruv-qazuv ishlari katta muvaffaqiyatga erishadi. V.A.Shishkin ta`rifi bilan aytganda,... «qazuv ishlari O`rta Osiyo xalqlari madaniyatining durdona yodgorliklaridan biri, dunyo miqyosidagi kashfiyot, rus va chet el ilmiy nashrlarida katta munozara va muhokamalarga sabab bo`lgan Ulug`bek rasadxonasining ochilishi bilan nihoyalanaadi»¹⁰ [Shishkin, 1953. 5 s].

Ma`lumotlarga qaraganda, dunyo miqyosida shov-shuvga sabab bo`lgan ushbu kashfiyotni ochilishida Abu Said Mahsumni ham xizmatlari katta bo`lgan. O`tgan asrlarda bitilgan vaqf hujjatlarini sinchiklab o`rgangan, undagi ma`lumotlarni og`zaki holda, avloddan - avlodga o`tib kelayotgan etnografik ma`lumotlar, afsonalar bilan solishtirgan, tasodifiy topilmalar qayd etilgan joylarni hisobga olgan Abu Said Mahsum V.L.Vyatkinga rasadxona joylashgan tepalikni aniq ko`rsatib bergan.

Abu Said Mahsumning Turkiston o`lkasi arxeologiyasi va sharqshunosligi rivojiga qo`shgan hissasi rus olimlari tomonidan ro`yi - rost tan olingan va taqdirlangan. 1909-yilda O`rta va Sharqiy Osiyoni o`rganish komiteti uni rasadxona ochilishiga munosib hissa ko`shgan, V.L.Vyatkinning faol yordamchisi sifatida 100 rubl` pul mukofoti bilan taqdirlaydi. Abu Saidni mukofotlash to`g`risida V.V.Bartol`d yozgan tavsiyanomada... «V.L.Vyatkin bergan ma`lumotga qaraganda, Ulug`bek rasadxonasi o`rnini aniqlashda va uni qazib ochishda Abu Saidni fikrlari va ko`rsatgan amaliy yordami g`oyat

⁷ Lunin B.V. Samarkandskiy lyubitel drevnostey i kalligraf Abu Said Maxzum // İMKU. Vıp. 7. Tashkent, Fan, 1966.

⁸ Bartold V.V. Otchet o komandirovke v Turkestan // ZVORAO. T.XV, S. Pb., 1904.

⁹ Lunin B.V. O numizmaticheskoy kolleksii uzbekskogo sobiratelya drevnostey Akrama Askarova (po arxivnim dannim) // İMKU. Vıp. 5. Tashkent, Fan, 1964.

¹⁰ Shishkin V.A. Observatoriya Ulugbeka i eyo issledovanie // Trudi İnstituta istorii i arxeologii AN UzSSR. T. 5. Tashkent, 1953

qimmatli bo`lgan» degan satrlar mavjud¹¹ [Lunin, 1967, 182 s].

Darvoqe, Abu Said Mahsumning yuqorida bayon qilingan faoliyatini, shuningdek, Abu Tohirxoja Samarqandiy qalamiga mansub «Samariya» asarini 1899 yil V.L.Vyatkin tomonidan rus tilida, 1904 yil N.I.Veselovskiy tomonidan forsiyda nashrdan chiqarilishidagi katta xizmatlari e`tiborga olinsa, rus hukumati uning ilmiy va tashkilotchilik faoliyatini ancha kamtarona baholagan deb e`tirof etish mumkin. Lekin ta`kidlash joizki, arxeologiya rivojiga ko`shgan munosib hissasi uchun kichik kumush medal` bilan mukofotlangan toshkentlik havaskor arxeolog Akram Asqarovdan so`ng (1887 y.), bu Turkiston arxeologiyasi tarixidagi navbatdagi quvonchli voqea edi.

Abu Said Mahsum Ulug`bek rasadxonasi ochilganidan so`ng, biroz vaqt o`tib, 1910 yilda vafot etadi. Og`ir xastalikka uchragan Maxsum umrining so`nggi kunlariga qadar Afrosiyobda V.L.Vyatkin o`tkazayotgan qazishma ishlari joyiga borib turgan.

Bu davrda Yettisuv viloyatida yana bir havaskor mahalliy arxeolog Turdi Mirg`iyozov ham qazishmalar o`tkazgan, u o`n olti yil mobaynida qadimiy arxeologik ashyolarni to`plash bilan shug`ullangan. O`zbekiston Davlat Markaziy arxiv fondida uning arxeolog A.A.Divaevga yozgan rasmiy xati saqlanib qolgan. Ushbu xatda u To`qmoq tumani atrofida saqlanib qolgan qadimgi irrigatsiya tarmoqlari va ko`hna shahar xarobalari, unda o`zi boshchiligida o`tkazilgan qazuv ishlari, antiqa topilmalar haqida xabar beradi. Turdi Mirg`iyozov katta achinish bilan mazkur ko`hna shahar imoratlari va minoralari g`ishtlari mahalliy aholi tomonidan ayovsiz ravishda tashib ketilayotganini qayd etadi. - «Biz bu haqida Verniyga uchta telegramma jo`natdik, lekin hech qanday javob olmadik. Yana uch yil o`tkandan so`ng mazkur noyob minoradan hech vaqo qolmaydi. Qisqa qilib aytganda, Turkiston arxeologlari bu erdagi ko`hna yodgorliklarni o`z nazoratlariga olmas ekanlar, fan va tarix uchun zarur bo`lgan obidalarning barchasi yo`q bo`lib ketadi, kelgusi avlodlar esa buning uchun bizni la`natlaydilar» - deb yozadi Turdi Mirg`iyozov[Sadikova, 1975,51-52 s].¹²

Yuqoridagi ma`lumotlardan ko`rinib turibdiki, XIX asrning so`ngi choragida boshlangan Turkiston arxeologiyasini o`rganish ishlarida mahalliy ziyolilar vakillari ham qatnashib, muayyan malaka va tajribalarni to`play boshlashgan.

¹¹ Lunin B.V. Samarkandskiy lyubitel drevnostey i kalligraf Abu Said Maxzum // IMKU. Vyp. 7. Tashkent, Fan, 1966.

¹² Sadikova N Muzeynoe delo v Uzbekistane. Tashkent, Fan, 1975.

Xolislik nuqtai - nazardan qayd etish lozimki, 1895 yidda Toshkentda V.V.Bartol'd tashabbusi bilan tashkil etilgan Turkiston Arxeologiyasi havaskorlari to'garagi ham o'lka qadimshunosligini o'rganishga muayyan hissa qo'shgan ilmiy - jamoatchilik tashkiloti sifatida tarixda kolgan. Amalda 1917 yilgacha faoliyat ko'rsatgan to'garakning asosiy vazifasi Turkiston o'lkasidagi qadimiy yodgorliklar, sharq qo'lyozmalari, tarix, adabiyot, tabobatga oid nodir kitoblar, numizmatika va etnografiyaga oid topilma va kolleksiyalarni kayd qilish, hisobga olish va o'rganishdan iborat edi.

Ma'lumki, Turkiston xalqlari qadim tarixini o'rganish bilan dastlab o'z davrining taniqli sharqshunoslari, qadimshunoslari V.V.Bartol'd, N.I.Veselovskiy, M.S.Andreev, A.A.Divaev, N.S.Likoshin, N.G.Mallitskiy, N.P.Ostroumov, V.L.Vyatkin, A.A.Semyonov kabi atoqli olimlar shug'ullanganlar va ularning aksariyati to'garakka a'zo bo'lganlar. To'garak a'zolari tomonidan Turkiston o'lkasi tarixi, ma'muriy tuzumi bo'yicha o'rta asr sharq qo'lyozma manbalari, mahalliy xalq afsonalari, maqollari, matallari, urf-odat va folkolarga oid materiallar to'planib o'rganishga kirishilgan bo'lsada, aslida buning zamirida Rossiya imperiyasining o'lkada o'z mustamlakachilik boshqaruv rejimini mustahkamlash siyosati yotar edi. Shu o'rinda mashhur tarixshunos V.V.Bartol'dning quyidagi - «...sharq xalqlari bizning madaniyatimiz .ustunligiga shundagina ishonadilarki, qachonki biz ularni, ular o'zlarini bilganlaridan yaxshiroq bilishimizga tan bersalar» - degan so'zlari bu boradagi ayni haqiqatni bayon qiladi (Bartol'd, 1963 607-608 s)¹³. Chunki istibdodga solingan muayyan xalq tarixini, tilini, urf-odati va ma'naviy dunyosini har tomonlama o'rgangandagina uni qaramlikda saqlash va boshqarish oson bo'lishini podsho Rossiyasi ma'murlari yaxshi bilishar edi. Shuning uchun ham, Turkiston Arxeologiyasi havaskorlari to'garagi ilmiy jamoatchilik asosida tuzilgan tashkilot bo'lsada, uning moliyaviy mablag'lari Turkiston general-gubernatorligi xazinasidan va hatto ayrim hollarda, V.V.Bartol'dning shaxsiy so'rovnomalari asosida Rossiya imperatori xazinasi tomonidan ta'minlangan. O'z navbatida, to'garak a'zolari o'lkadagi mavjud nodir qo'lyozmalar, moddiy madaniyat namunalarini Rossiyaga jo'natishga yaqindan ko'maklashganlar.

Shunga qaramasdan XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi Turkiston o'lkasida olib borilgan arxeologik izlanishlar O'zbekiston tarixshunosligi uchun muhim ahamiyatga ega bo'ldi. O'rta Osiyo aholisining, jumladan o'zbek xalqining qadimiy moddiy madaniyat

¹³ Bartold V.V. Sochineniya. T. 1. Moskva, 1963.

yodgorliklari o`rganilishiga dastlabki qadamlar qo`yildi.

Ushbu jarayonlarda mahalliy xalqning ilg`or ziyolilari, o`z vatanining o`tmish yodgorliklari bilan qiziquvchi Mirzo Qosimov, Akram Asqarov, Mirzo Abdulla Buxoriy, Abu Said Mahsum, Turdi Mirg`iyozov kabi qadimgi osori-atiqalar, chaqatangalar to`plovchi havaskor o`lkashunoslar va arxeologlarning ilk namoyondalari shakllandi.

XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Turkistonda o`tkazilgan arxeologik tadqiqotlarda V.V.Bartol`d, V.L.Vyatkin, N.I.Veselovskiy, N.F.Sitnyakovskiy, A.A.Zimin kabi arxeologlar faol qatnashdilar. Bu davrda Turkiston arxeologiyasi bo`yicha yetarli darajada qadimgi moddiy madaniyat namunalari yig`ilgan bo`lsada, lekin uni davrlashtirish, «xronologik shkala»larini yaratish ishida katta muammolar mavjud edi. Arxeologik ashyolarni davrlashtirish taxminiy asosda sodda usulda, keng davriy sanalar bilan belgilanar, xususan topilmalar, asosan «musulmonlikkacha» («domusul`manskiy»), «mo`g`ullargacha» («domongol`skiy'), «temuriylar davriga oid» («timuridskiy») kabi atamalar bilan atalib, shu tarzda yodgorliklarning davriy sanasi qayd qilinar edi.

Bu davrda o`tkazilayotgan arxeologik qazuv tadqiqotlarining ilmiy natijalarini o`lka qadim tarixini o`rganishga, uni to`ldirishga yo`naltirish maxsus muammo sifatida qo`yilmagan Zero, tadqiqotchilar arxeologik qazuv ishlarida tarixiy yozma manbalar ma`lumotlaridan keng foydalangan bo`lsalarda, bunga katta ahamiyat berishmagan (Trudi ot dela istorii kul`turn i iskusstva Vostoka, 1940, 53 s)¹⁴.

Shuningdek, bu davrda Turkiston arxeologiya yodgorliklarini qazish metodikasi ham to`la-to`kis ishlab chiqilmagan bo`lib, buning asosiy sababi, o`lka arxeologiya yodgorliklarining o`ziga xosligi, qadimiy me`moriy inshootlarning asosan paxsa va xom g`ishtdan qurilganligi edi. Vaholanki, bu paytda Rossiya imperiyasining boshqa o`lkalarida, xususan qadimgi me`moriy inshootlar, asosan toshdan va pishgan g`ishtdan qurilgan Qora dengiz va Kavkaz arxeologiya yodgorliklarida o`tkazilayotgan qazuv tadqiqot ishlari nisbatan muvaffaqiyatli olib borilmoqda edi.

O`zbekistonda arxeologiya fani asosan XX asrning 20-30 yillarida o`zining shakllanish bosqichini nihoyasiga etkazdi. Bu davrda V.L.Vyatkin Afrosiyob shahar xarobasini (1925; 1929,1930 yy.), B.P.Denike qadimiy Termizni (1926-1927 y.), M.E.Masson Ohangaron vodiysining ayrim yodgorliklarini (1925-1928 y.), Ayritom

¹⁴ Trudi ot dela istorii kul`turn i iskusstva Vostoka, 1940.

xarobalarini (1932-1933 y.) qazib o'rgandilar. 1930-yillarda keng ko'lamda qazish ishlarini A.Yu.Yakubovskiy Zarafshon vodiysida (1934, 1939 y.), M.E.Masson kadimiy Termizda (1936-1938 y.), V.A.Shishkin Tali-Barzuda (1936-1939 y.), Varaxshada (1937-1939 y.), S.P.Tolstov va Ya.G'.G'ulomov ko'hna Xorazm vohasida (1937-1950 y.), A.P.Okladnikov Teshiktosh va Machay g'orlarida (1938-1939 y.), V.V.Grigor'ev Qovunchitepa xarobalarida (1934-1937 y.) olib bordilar. To'plangan arxeologik materiallar O'zbekiston tarixini nihoyatda qadimiyligini isbotladi, uni davrlashtirishda muhim manba bo'lib xizmat qildi, yangi arxeologik madaniyatlar - Kaltaminor, Tozabog'yop, Amirobod, Qovunchi madaniyatlari o'rganilib fan muomalasiga kiritildi. Natijada, Baktriya, Xorazm, Sug'd tarixiy - madaniy o'lkalarida qadimgi davrlardan boshlab o'ziga xos madaniy hayot bunyod etilganidan fan olami voqif bo'ldi. Ayniqsa, 1938-yilda o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida, Teshiktosh g'oridan neandertal tipidagi odam, «xomo sapiens» skeletini topilishi O'zbekiston arxeologiyasidagi buyuk kashfiyot hisoblanib, bu dunyo olimlarida katta qiziqish uyg'otdi. Ushbu kashfiyot orqali O'zbekiston diyori ham er yuzida antropogen jarayonlari sodir bo'lgan muhim, eng kadimiy maskanlardan biri ekanligi fan olamida e'tirof etildi¹⁵ [Muhammadjonov, 2000, 434 s].

O'zbekistonda arxeologiya fanini rivojlantirishda O'rta Osiyo Davlat universitetida Arxeologiya kafedrasini ochilishi (1940 y.), O'zFA qoshida dastlab Arxeologiya bo'limini, sal o'tib tarix va arxeologiya institutini tashkil etilishi (1943 y.), respublikada qadimshunos mutaxassislarini, ayniqsa mahalliy kadrlarni tayyorlashda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Arxeologiya kafedrasida tahsil olgan talabalardan ko'plari istiqbolda, nafaqat O'zbekiston, O'rta Osiyo, yoki sobiq ittifoq davlatlari, balki, dunyo miqyosida taniqli arxeolog bo'lib etishdilar. Kafedrada tahsil olgan B.A.Litvinskiy, V.M.Masson, V.I.Sarianidi, Yu.F.Buryakov, E.V.Rtveladze, O.B.Obel'chenko, B.D.Kochnev, R.H.Sulaymonov, A.A.Sagdullaev, S.B.Lunina, G.V.Shishkina, Sh.R.Pidaev, B.A.Turg'unov va ko'plab boshqa mutaxassislar arxeologiya fani taraqqiyotiga munosib hissa ko'shdilar.

O'tgan asrning 30-40 yillaridan boshlab arxeologiyaga mahalliy kadrlar kirib kela boshladi. Bu jarayonlarda «birinchi qaldirg'och» vazifasini o'tagan Ya.G'.G'ulomovning bosib o'tgan hayoti yo'li, ilmiy pedagogik faoliyati va ilmiy

¹⁵ Muh'ammadjonov A. Arxeologiya // O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. Toshkent, O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. 2000.

merosi o`zidan keyingi avlod o`zbek arxeologlari uchun yuksak namuna vazifasini o`tdi.

Ya.G'.G'ulomovning ilmiy faoliyati ko`p qirrali bo`lib, uning diqqat markazida O`zbekiston tarixi va arxeologiyasining asosan uch yo`nalishi muammolarini o`rganish turar edi. Bular: O`zbekistonning qadimgi davrlardan hozirgi kunlarga bo`lgan sug`orilishi tarixi; O`zbekistonning urug` jamoa tuzumi arxeologiyasi va tarixi, O`rta Osiyoning qadimgi davrlardan oktyabr davlat to`ntarishigacha bo`lgan tarixi. Ushbu ilmiy muammolarni hal qilish uchun Ya.G'.G'ulomov respublikamizning katta qismida faoliyat ko`rsatgan, bir qancha yirik arxeologik qidiruv ekspeditsiyalariga boshchilik qildi. Natijada, Xorazm tsivilizatsiyasining asosiy tosh tamali bo`lib xizmat qilgan irrigatsiya tarmoqlarini o`rganilishi, neolit davriga tamali bo`lib xizmat qilgan irrigatsiya tarmoqlarini o`rganilishi, neolit davriga oid Darvozaqir makoni, Zamonbobo qabristonini ochilishi, Zarafshon va Qashqadaryo havzalaridagi tosh davri yodgorliklarini, Jizzaxning shimoliy-g`arbidan majusiylar tosh qurbongohi (dol`men)ni topilishi, Toshkent vohasidan Obi-Rahmat, Farg`ona vodiysidan paleolit, mezolit, neolit, bronza va mashhur Quva Budda ibodatxonasini ochilishi kabi muhim kashfiyotlarning barchasi alloma Ya.G'.G'ulomov nomi bilan bog`liq bo`ldi. Ayniqsa, o`tgan asrning 50-70 yillarida Ya.G'.G'ulomov ulkan ilmiy tadqiqot ishlari va pedagogik faoliyati bilan ilmiy jamoatchilikning diqqat markazida turdi, tahsiniga sazovor bo`ldi¹⁶. [Shirinov, Pardaev, Mirzaahmedov, 1998. 5 b.].

Fanning biror sohasida birinchilardan bo`lish, ham sharafli, ham ma`suliyatli ishdir. Ya.G'.G'ulomov ham birinchi o`zbek arxeolog olimi, akademigi bo`lishdek sharafga, ma`suliyatga musharraf bo`ldi va o`zbek arxeologiyasini jahon fani darajasiga ko`tarilishiga munosib hissa qo`shdi. Ya.G'.G'ulomovning ulug` xizmatlaridan biri O`zbekiston arxeologiyasi faniga mahalliy yoshlarni jalb qilish, ularni yuksak malakali mutaxassis sifatida shakllantirish ishlariga boshqosh bo`lishdan iborat bo`ldi.

Arxeologiya fani tadqiqotlarining ba`zi bir o`ziga xos xususiyatlarini, xususan ushbu soha mutaxassisining yil davomida ma`lum muddat oilasidan, yaqin kishilaridan uzoqda, ekspeditsiyalarda yurishi kabi holatlar, bundan taxminan 50-60 yillar muqaddam fan ostonasida turgan mahalliy yoshlarni ikkilantirar, shu bois ularda to`g`ri qaror qabul qila olmaslik holatlari uchrab turardi. Shu sababli, arxeologiya faniga mahalliy yoshlarni jalb qilish masalasida yuzaga kelgan sezilarli darajadagi uzilishlar, o`sha davrlarda kun

¹⁶ Shirinov T.Sh., Pardaev M.X, Mirzaah`medov J.K., Akademik Ya.G'.G'ulomovning hayot yo`li va ilmiy merosi. // WMMT. 29-son. Samarkand, Sug`diyona, 1998.

tartibida turgan mahalliy kadrlar masalasining dolzarb muammolaridan biri edi. O`zbekistonda arxeologiya fanining kelajak ravnaqini hisobga olgan Ya.G`.G`ulomov bu borada ham barakali faoliyat, amaliy sa`y-harakat ko`rsatdi. Atrofiga yosh, iste`dodli mutaxassislarni yig`di, ularga turli davr va ijtimoiy - tuzumlar tarixi, moddiy madaniyatiga oid dissertatsiya mavzularini belgiladi, qazuv-qidiruv ekspeditsiyalarini tashkil qildi va eng asosiysi barcha imkoniyatlarni ishga solgan holda, ushbu yoshlarni sobiq ittifoqning mashhur arxeologiya markazlaridan hisoblangan, Moskva, Sankt-Peterburg, Novosibirskdagi ilmiy-tadqiqot maskanlari aspiranturalariga o`qishga kirishlariga ko`maklashdi.

Ya.G`.G`ulomovning ko`p sonli shogirdlaridan biri, akademik A.R.Muhammadjonovning ta`kidlashicha, bu davrlarda ustoz - «O`zbekiston bilimdon arxeolog kadrlarga muhtoj» - deyishni kanda qilmagan¹⁷ (Shirinov, Pardaev, Mirzaahmedov, 1998,6 6.).

Ushbu sa`y - harakatlarning natijasi o`laroq, 1950-1970-yillarda tarixchi va arxeologlarning o`ziga xos «G`ulomov maktabi» dunyoga keldi va aynan uning zamirida yurtimizda «o`zbek arxeologiyasi maktabi»ga asos solindi. Ushbu «maktab»ning vakillaridan bo`lmish O`zR FA akademiklari - A.Asqarov, A.Muhammadjonov, O`.Islomov, Yu.Buryakov, professorlar - M.Qosimov, T.Mirsoatov, R.Sulaymonov, M.Jo`raqulov, A.Abduhamidov, M.Isoqov, M.Mambetullaev, M.H.Isomiddinov, fan nomzodlari - I.Ahrorov, O`.Alimov, A.Anarbaev, J.Mirzaahmedov, S.Anorboev kabi etuk mutaxassislar O`zbekistonda arxeologiya fani taraqqiyotiga katta hissa qo`shdilar. Ushbu olimlarning aksariyati hozirgi kunda ham barakali ilmiy ijod bilan shug`ullanmoqda. 1988 yildan boshlab O`zR FA Arxeologiya instituti.

O`zbekiston arxeologiyasidagi kadrlar bo`yicha muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirilgan tezkor chora-tadbirlar o`zining ijobiy natijasini ko`rsata boshladi. 1940-1950 yillardan boshlab, O`rta Osiyo, xususan O`zbekistonda arxeologiya yodgorliklarini rayonlarga, tarixiy-madaniy vohalarga bo`lib o`rganish joriy etildi va bu borada, Termiz arxeologik kompleks ekspeditsiyasi, Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi, Mohandaryo arxeologiya ekspeditsiyasi, Qashqadaryo arxeologiya-topografiya ekspeditsiyasi, Pomir-Oloy va Pomir-Farg`ona ekspeditsiyalari katta hajmda, muvaffakiyatli tadqiqotlarni o`tkazdilar.

¹⁷ Shirinov T.Sh., Pardaev M.X, Mirzaah`medov J.K., Akademik Ya.G`.G`ulomovning hayot yo`li va ilmiy merosi. // WMMT. 29-son. Samarkand, Sug`diyona, 1998.

1950-yillarda O'zbekiston arxeologiya ekspeditsiyasi otryadlari Toshkent vohasidagi ko'chmanchi-chorvador xalqlarga tegishli mozorqo'rg'onlarni (T.A.zamxo'jaev), Zamonbobo cho'l-dasht bronzasiga oid qabristonni (Ya.G'ulomov), ilk o'rta asrlarga taalluqli Bolaliktepa yodgorligining me'moriy inshootlari va undagi nodir devoriy suratlarni (L.I.Al'baum) va boshqa yodgorliklarni o'rganishga kirishdi.

O'tgan asrning 60 yillarida esa Ya.G'.G'ulomov rahbarligidagi Mohandaryo ekspeditsiyasining maxsus otryadi Zarafshonning quyi oqimida mil. avv. IV-II ming yillikka mansub 60 dan ortiq, neolit va bronza davriga oid manzilgohlar, Uchtut chaqmoqtosh konlari, Mo'minobod qabristoni (A.Asqarov, M.Qosimov, O'.Islomov, T.Mirsoatov), Samarqand makoni (D.N.Lev, M.Jo'rakulov), Buxoro, Samarqand, Jizzax vohalarining Kanpirak devori, Sarmishsoy va Takatosh qoyatosh suratlari (X.Muhamedov, J.Kabirov, A.Muhammadjonov), Chust bronza davri qishlog'i xarobasi (V.Sprishevskiy), Dalvarzintepa (Yu.A.Zadneprovskiy), Xolchayon (G.A.Pugachenkova) kabi arxeologik obidalarda keng ko'lamda qazishlar, tadqiqotlar olib bordi.

Bu davrda Tuproqqal'a, Varaxsha, Afrosiyob, Bolaliktepa, Quva kabi oliymaqom hukmdorlarga mansub shaharlar, saroylar va ibodatxonalarining o'rganilishi, Samarqand va Mug'qal'asidan qadimiy sug'd, Xorazmdan xorazmiy yozuvlarning topilishi, antik va ilk o'rta asrlarga oid tasviriy san'at namunalarini ochilishi, O'zbekiston madaniyati, ayniqsa antik davrlardan boshlab yuksak darajaga ko'tarilganini ko'rsatdi¹⁸. [Muhammadjonov, 2000, 434-435 s].

1970-yilda O'zbekiston hukumatining maxsus qarori bilan Samarqand shahrida O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Arxeologiya instituti tashkil etildi va natijada, qazuv-qidiruv tadqiqotlari ko'lamini yanada kengaytirish imkoniyati yaratildi. Arxeologiya instituti tashkil etilgandan boshlab unga respublikada o'tkaziladigan arxeologik tadqiqotlarga ilmiy metodik jihatdan rahbarlik qiluvchi markaz maqomi va barcha moddiy madaniyat yodgorliklarida olib boriladigan izlanishlar uchun ruxsatnoma («Ochiq varaqa») berish va uni nazorat qilish huquqi berildi.

Arxeologiya instituti o'z tadqiqotlarini O'zR FA Qoraqalpog'iston bo'limi, San'atshunoslik instituti, Tarix instituti, O'zMU, SamDU va boshqa ilmiy muassasalar bilan muvofiqlashtirgan holda olib borishi natijasida, 1970-1980-yillarda O'zbekistonning deyarli barcha viloyatlarida keng qamrovli arxeologik kuzatuv va qazuv

¹⁸ Muh'ammadjonov A. Arxeologiya // O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. Toshkent, O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. 2000.

tadqiqotlari tashkil etildi. Natijada, O`zbekiston tarixining qadimiy tosh asridan to so`nggi o`rta asrlargacha bo`lgan davrlariga mansub ko`plab nodir yodgorliklar, kameb moddiy madaniyat namunalari topildi. Xususan, Surxodaryo, Buxoro, Samarqand, Toshkent, Farg`ona viloyatlarida - Teshiktosh, Amir Temur, Omonqo`ton, Qo`tirbuloq, Ko`lbuloq, Obi-Rahmat, Xo`jakent, Qapchig`oy, Selmur, Omonqo`ton, Qo`tirbuloq, Ko`lbuloq, Obi-Rahmat, Xo`jakent, Qapchig`oy, Selungur, Obishir, Qoratog`, Xo`jamazgil (M.Qosimov, O`.Islomov, R.Sulaymonov, N.Toshkenbaev, M.Xo`janazarov,) kabi qadimgi tosh davri g`or makonlari hamda Xorazm cho`llarida yangi tosh va bronza davri makonlarining (A.Vinogradov, M.Itina) o`rganilishi, ilmiy jamoatchilik tomonidan O`zbekistonning tosh davri arxeologiyasi uchun katta ilmiy yutuq sifatida e`tirof etildi. Bu yodgorliklardan olingan moddiy madaniyat topilmalari eng qadimgi aholining turmush tarzi, xo`jaligi manzarasini tiklash imkoniyatini yaratdi va O`zbekiston tarixi uchun muhim ashyoviy manba bo`lib xizmat qildi. Ayniqsa, O`zbekistonning janubiy tumanlarida ilk metallsozlik kashf qilingan davrlarga oid dastlabki o`troq dehkanchilik qishloqlari va shaharmonand turar - joylar xarobalari, xususan Sopollitepa, Jarqo`ton, Bo`ston, Mirshodi, Bandixon, Qiziltepa kabi yodgorliklarni ochib o`rganilishi (A.Asqarov, T.Shirinov, A.Sagdullaev) qadimgi Baqtriya tsivilizatsiyasining shakllanishi, taraqqiyot davrlari va ushbu vohada ilk shahar madaniyati paydo bo`lishi asosiy jarayonlarini kuzatish imkonini berdi.

O`rta Osiyo, xususan O`zbekiston hududida kechgan shaharsozlik madaniyati tarixi bo`yicha maxsus tadqiqotlar Samarqand, Buxoro, Toshkent, Surxondaryo, Qashqadaryo, Jizzax, Xorazm viloyatlari, Farg`ona vodiysi va Qoraqalpog`iston hududidagi ko`hna shahar yodgorliklarida olib borildi. Bu boradagi tadqiqotlar, ayniqsa, qadimiy shaharlar o`mi - Afrosiyob, erqo`rg`on, Qanqa, Eski Termiz, Dalvarzintepa, Buxoro, Poykend, Axsikent, Pop, Xiva, Mizdahqon, Qaliyatepa, Qo`rg`ontepa (X.Axunboboev, M.Isomiddinov, R.Sulaymonov, Yu.Buryakov, G.Bogomolov, Sh.Pidaev, Sh.Rahmonov, G.Pugachenkova, E.Rtveladze, A.Muhammadjonov, J.Mirzaahmedov, Sh.Odilov, A.Anarbaev, I.Ahrorov, B.Matboboev, M.Mambetullaev, M.Turebekov, A.Berdimurodov, M.Pardaev, A.Gritsina) kabi yodgorliklarda olib borilgan arxeologik qazuv tadqiqotlari juda samarali bo`ldi va shaharsozlikning rivojlanish bosqichlari va yangi qirralari o`rganildi. Arxeologiya institutida 1959 yildan «O`zbekiston moddiy madaniyati tarixi» (Istoriya material`noy kul`turi Uzbekistana) 2002 yildan

«O`zbekistonda arxeologik tadqiqotlar» (Arxeologicheskie issledovaniya v Uzbekistane) yillik to`plamlari nashr etilib, ularda Respublikamiz hududida olib borilayotgan arxeologik tadqiqotlarning umumlashma ilmiy xulosalari berib boriladi. 2010 yildan esa mazkur «O`zbekiston Arxeologiyasi» (Arxeologiya Uzbekistana) ilmiy jurnali chop etila boshlandi.

O`zbekistonda arxeologiyaning rivoji unga turdosh bo`lgan fan sohalaridan biri antropologiya taraqqiyotiga ham sezilarli, ijobiy ta`sir ko`rsatdi. Xususan, Zarafshon, Xorazm, Surxondaryo va Sirdaryo vohalari, Farg`ona vodiysida ko`shma holda olib borilgan arxeologik va antropologik izlanishlar natijasida, O`rta Osiyo, jumladan, O`zbekiston zaminida qadimdan yashovchi aholining asosiy antropologik tiplarini, ularning shakllanish tarixini yoritishga imkon yaratildi. Bu masalalarni yoritishda T.Xodjayov va K.Shoniyozovning hissalarini salmoqli bo`ldi¹⁹ [Muhammadjonov, 2000,435 b.].

O`zbekiston arxeologiyasi fanida uzoq yillar mobaynida o`tkazilgan fundamental tadqiqotlar natijalarini tom ma`noda o`zbek xalqi tarixi bilan bog`lash mamlakatimiz mustakillikka erishgan dastlabki yillardan boshlandi.

Mustaqillikning dastlabki davrlaridan boshlab xalqimizning qadim o`tmishi, shonli tarixi, ajdodlarimizdan qolgan nodir madaniy merosni ilmiy o`rganishni birinchiga qo`yildi. Ayniqsa, O`zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning 1998 yilda respublikamizning bir guruh etakchi tarixchi, arxeologlari bilan o`tkazgan uchrashuvi va ushbu uchrashuv natijasi o`laroq, Respublika Vazirlar Mahkamasining «O`zR FA Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to`g`risida» chiqqan qarori istiqbolda, tarixchi, arxeologlar tomonidan o`tkaziladigan tadqiqotlarning dasturi amali bo`lib xizmat qildi. Mazkur qarorning qadimgi tarix, xususan arxeologiyaga oid bandlaridagi vazifalardan kelib chiqqan holda, Arxeologiya institutida «O`zbekistonda Arxeologiya fanini rivojlantirish kontsepsiyasi» ishlab chiqildi. Ikki bo`limdan iborat ushbu kontsepsiyaning I qismida O`zbekistonning jahon tsivilizatsiyasi tizimidagi ahamiyatli o`rni, dunyo tamadduniga qo`shgan ulkan hissasi, erishilgan arxeologik kashfiyotlar orqali asoslangan. Shuningdek, mazkur qismda O`zbekiston arxeologiyasining kelgusidagi istiqbolli vazifalari belgilangan. Kontsepsiyaning II qismida qadimgi davrlardan temuriylar davrigacha

¹⁹ Muh`ammadjonov A. Arxeologiya // O`zbekiston milliy entsiklopediyasi. Toshkent, O`zbekiston milliy entsiklopediyasi. 2000.

o`zbek davlatchiligi va tsivilizatsiyasining paydo bo`lishi, shakllanishi hamda rivojlanish bosqichlarining asosiy xususiyatlari, davriy chegaralari, taraqqiyot va inqiroz davrlari, ularni o`rganishning asosiy yo`nalishlari belgilab berilgan. Kontseptsiya yaratilgan kundan boshlab o`zbek arxeologiyasining bugungi kundagi bosh maqsadi, xalqimizning o`tmishi haqidagi haqqoniy manzarani yaratish, uning eng qadimgi davrlardan temuriylar zamonigacha bo`lgan boy tarixini jahon tarixidan ajratmagan, unga qarama-qarshi qo`ymagan holda o`rganish, Sharq bilan G`arb o`rtasidagi muloqotlarga katta xizmat qilgan o`zbek xalqining jahon madaniyati xazinasiga qo`shgan hissasini ko`rsatish va Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati, davlatchiligini shakllanishida ajdodlarimizning xizmatlarini aniqlashdan iborat bo`ldi²⁰ [Shirinov, 2001, 11 s]. Buning natijasida, o`zbek davlatchiligining paydo bo`lishi ildizlari, rivojlanish bosqichlari va taraqqiyoti darajasiga doir ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilib salmoqli yutuqlarga erishildi.

Mustaqillik yillarida nihoyatda faollashgan tadqiqotlar ko`lami va ularning ilmiy samarasi tufayli, O`zbekiston arxeologiyasi dunyo ilm-fani darajasiga ko`tarildi. Bunday natija esa, o`z navbatida, O`zbekiston arxeologiyasi uchun dunyodagi etakchi arxeologiya markazlari bilan ilmiy hamkorlik o`rnatishga, teng asosda xalqaro shartnomalar tuzishga zamin yaratdi. Ayni paytda, O`zbekiston hududida - Avstraliya, AQSh, Germaniya, Italiya, Ispaniya, Fransiya, Polsha, Rossiya, Yaponiya kabi davlatlarning arxeolog olimlari bilan hamkorlikda, xalqaro miqyosda, arxeologik tadqiqotlar olib borilmoqda.

O`zbekiston arxeologiyasi hozirgi paytda millat manfaati, uning madaniy - ma`naviy hayoti, mustaqillik g`oyalari talab va istaklaridan kelib chiqqan holda faoliyat yuritmoqda, fanga xizmat qilmoqda. Belgili tavallud yoshlari nishonlangan Ahmad al-Farg`oniy, imom Moturudiy, imom al-Buxoriy, Burhoniddin Marg`inoniy, sohibqiron Amir Temur, Mirzo Ulug`bek kabi ulug` salafimizning ilmiy merosi, ular yashab o`tgan davr madaniyati taraqqiyotini o`rganishda, Samarqand, Buxoro, Qarshi, Shahrisabz, Xiva, Termiz, Toshkent singari kadimiy shaharlarimizning muborak tarixiy sanalarini rasman aniqlashda, o`zbek arxeologiyasining xizmatlari beqiyos bo`ldi. Ushbu yubiley tantanalarini BMT ning maxsus bo`limi YUNESKO homiyligi ostida o`tkazilishi, so`nggi deyarli 20 yil davomida mamlakatimizda olib borilgan arxeologiya fani izlanishlarining naqadar serqirra va sermahsul bo`lganligidan dalolat berdi. Bunga qadim

²⁰ Shirinov T.Sh. O`zbekistonda arxeologiya fanini rivojlantirish kontseptsiyasi // WMMT. 32-son. Toshkent, Fan, 2001.

tariximizni har tomonlama, chuqur o`rganish uchun davlatimiz va yurtboshimiz tomonidan ko`rsatilayotgan g`amxo`rlik, yaratilgan shart-sharoitlar asosiy tamal toshi bo`lganligini va ana shu omillar sababli O`zbekiston arxeologiyasi rivojlanib dunyoga tanilganligini alohida ta`kidlashga burchlimiz. Zero, yurtboshimiz ta`kidlaganlaridek, «...mana shu mu`tabar yurtimizdagi er osti xazinalaridan, asrlar davomida sukutga cho`mib yotgan shahristonlardan topilgan arxeologik ashyolar, noyob tasvirlar va hali ochilmagan, o`z sirlarini pinhon saqlab kelayotgan cho`lu biyobonlar, hech shubhasiz, bugun biz yashayotgan tuproqda qadim-qadim zamonlardan boshlab buyuk madaniyat va san`at rivojlanganini tasdiqlaydi».

Bop I.

1.1. Arxeologiya fanining Yevropada paydo bo`lishi tarixidan.

Arxeologiya fani dunyodagi boshka fanlarga qaraganda eng yosh fanlar qatoriga kiradi. Yozma manbalarning xabar berishicha, hatto Vavilon podshosi Nabonid (mil.il. 555-538 yy.) o`zining yurtidagi qadimgi ibodatxonalar, saroylarni ostki qislarini (fundamentlarini) qazdirtirib ko`rganligi vash u jarayonda ko`plab topilmalar topganligi to`g`risidagi ma`lumotlar saqlanib qolgan. Hatto Britaniya muzeyida Nabonid zamonida Sippara ibodatxonosini ostki qismini qazish

jarayonida topilgan, ustki qismiga yozuv yozilgan prizma shaklidagi buyum saqlanadi. Nabonid yangi vavilon sulolasining vakili, aslzoda bo`lib, faqat o`tmishdan qolgan binolarni ostini qazibgina qolmasdan, yangi binolarni ham juda ko`plab qurgan. Aytishlaricha, u o`zi qurayotgan binolarni qanday bo`lishiga avlod va ajdodlardan qolgan tavsiyalarni topib olmoqchi, hamda ulardan ko`p narsani o`rganmoqchi bo`lgan. Shu bilan birga u faqat avlodlardan qolgan rivoyatlar, afsonalar, diniy-ilohiy ananalarga qarab qolmasdan birinchi marta buyumlardan ko`p narsalarni o`rgangan. Albatta uning arxeologiya borasidagi urinishlari, hattiharakatlari buyumlarni ko`rishdan va ularga taqlid qilishdan, ya`ni qadimgi xalqlarni tajribasini o`rganishdan nariga o`tmagan.

U hech qachon arxeologik qazishmalar olib borayotganda tarix to`g`risida umuman o`ylamagan. Agar axamoniylar sulolasining vakili Kurush-II Vavilonni ag`darmaganda balki Nabonid qadimgi davrni o`rganish borasida yana birmuncha ishlar qilarmidi!

Yozma manbalarda «arxeologiya» termini miloddan ilgarigi V asrlardan boshlab uchray boshlaydi. Jumladan Platon (mil. il.427-347 yy.) va Diodor Sitsiliyskiy (mil.il. 80-29 yy.) larni asarlarida bir necha martadan «arxeologiya» terminini uchratish mumkin. Diodorning zomondoshi Diodor Galikarnasskiy Rimning Puni urushlarigacha bo`lgan davrini «Rim arxeologiyasi» atamasi bilan atagani ma`lum. Yaqin yuz yillar keyinroq yashagan yahudiylarning mashhur yozuvchisi Iosif Flaviy o`zining yahudiylar tarixiga bag`ishlangan «dunyo yaralgandan Nerongacha» nomli asarini «Yahudiylar arxeologiyasi» deb atadi.

Milodning boshlaridan boshlab «arxeologiya» atamasini o`rniga «antiquitates»-«qadimiyat», «qadimgi» atamalari ishlatilishi bilan birga arxeologiya tushunchasdan ko`ra ham boshqa sohalarda qo`llanila boshlandi. Ya`ni bu davrga kelib «arxeologiya» atamasi biroz differentsiyalashdi va boshqacharoq kasb etdi. Masalan, «badiiy buyumlar qadimiyati», «yuridik ishlar qadimiyati» va h.k.

Rimning imperatorlari davrida «antiquitates»-antikvariyy, ya`ni antikvariyy, qadamiyat havaskori ma`nosida ishlatildi. O`rta asrlarga kelib «antikvariylar» deb qadimgi qo`lyozmalarni ko`chirib yozadigan hattotlar aytiladi. Uyg`oonish davridan boshlab esa, barcha qadimgi davrlarga oid buyumlarni saqlovchilarini

«antikvariylar» deb aytiladi.

Yunonlarning «arxeologiya» atamasini yana qayta «tiriltirgan» olim Gettingen universitetining professori Xristian Gottlib Geyne bo`ladi. Ammo X.G.Geyne arxeologiya tushunchasini ishlatar ekan, uningnazarida butun insoniyat tarixidan qolgan buyumlar emas, balki faqat antik dunyodan qolgan buyumlarni va o`sha buyumlarni klassifikatsiyasini tushungan. U professor sifatida studentlarga dars berar ekan, ma`ruzasini «Gretsiya va Rimning qadimgi san`at arxeologiyasi» deb ataydi.

Bu davrda klassik arxeologiyani asosan filologlar o`rganar edilar. Chunki Qadimgi Gretsiya va Rim davridan juda ham ko`plab yozuvlar qolganligi tufayli filologlar aynan shu yozuvlar tarixini o`rganishar edi. Ular ibtidoiy davrarxeologiyasini mutlaqo tushunishmas edi. Shuning uchun eng dastlabki arxeologik bilimlarni o`rganishda ko`proq boshqa fanlarni vakillari shug`ullanishdi. Masalan, klassik davri arxeologiyasi bilan shug`ullanuvchi olimlar uchun Gretsiya va Rimga oid juda ko`plab yozma manbalar borligi tufayli, bu davr bilan ko`proq filologlar shug`ullanishdi. Ibtidoiy davr arxeologiyasi bilan – biologiya, geologiya, fizika va boshqa tabiiy fan vakillari shug`ullanishar edi. Ammo, klassik arxeologiya ham, shuningdek ibtidoiy arxeologiya ham bita narsani, u ham bo`lsa insoniyatni o`tmishini tushunishni maqsad qilib olgan edi.

Umumiy arxeologiyaning uchinchi yo`nalishi bu o`rta asrlar arxeologiyasi bo`lib, bu soha vakillari o`rta asrlarga doir buyumlarni o`rganish bilan shug`ullanishdi.

XIX asrlarning boshlariga qadar rivojlangan arxeologiyaning to`rtinchi yo`nalishi ham bo`ldi-ki, u ham bo`lsa «Sharq arxeologiyasi» edi. Ular Misr va Old Osiyo xududlarini o`rganish bilan shug`ullanar edilar. «Sharq arxeologiyasi» o`zining taraqqiyotida bevositta «klassik arxeologiya» vakillari bilan bog`liq edilar. Ammo «Sharq arxeologiyasi» o`zining rivojlanishi davomida juda ham ko`plab yozma manbalarni topdi-ki, natijada arxeologlar birinchi marotaba yozma manbalar bilan buyumlarni qo`shib o`rganilgandagina haqiqiy tarix yaratilishi mumkinligini tushunib etishdi va tarixning alohida bo`limini ochishga muvaffaq bo`lishdi.

Umumiy ildizlari bir bo`lgan arxeologiyaning to`rtta yo`nalishi XX asrning

boshlariga kelib birlashdi va rivojlanishida to`rtta alohida tomirga ega bo`lgan bufan keyingi taraqqiyotida birlashib beqiyos kata muvaffaqiyatlarga erishdi, chunki bu sohalarni hammasi tarix faniga xizmat qilar edi. Piramidalar to`g`risida yozar ekan, ayniqsa Xeops piramidasi to`g`risida alohida to`xtaladi, chunki Gerodot davrida bu piramidaning yoshi 2300 yildan oshiq bo`lib, uning qurilishi to`g`risida o`ylashning o`zi bir mo`jizaga o`xshar edi. Misrdagi piramidalar qurilishi tarixini, usullarini, ayniqsa texnik tomonlarini faqat Gerodot zamonidagina emas, hozirda ham uningoxiriga etaolganlari yo`q.

Gerodotdan keyin ham qadimgi san`at asarlariga murojaat qilish o`z zamonasining urfu-odatiga aylandi. Chunki, Aleksandr Makedonskiydan keyin u tuzgan davlat o`rnida tuzilgan ellin davlatlarining rahbarlari o`zlarining saroylari, ibodatxonalari, shahar tashqarisidagi uylarini o`sha klassik Elladadagi san`at asarlaridan nusxa olib ko`paytirishni orzu qildilar va bu ishni ko`p hollarda amalga oshirdilar ham.

Aynan ellinizm davrida yana bir holat yuz berdi, ya`ni periegesis – mamlakatlarni, shaharlarni va eng muhimi qadimgi san`at asarlarini tavsifini yozish keng urfu-odatga aylandi. Xuddi shunday ishlar bilan shug`ullangan odomlardan biri Polemon (mil. il. III asrning oxiri, II asrning birinchi yarmi) degan shaxs yashagan bo`lib, hayotida Gretsiya, Old Osiyo, Italiya, Sitsiliya kabi mamlakatlarda bo`lgan, hamda ko`plab arxitektura obidalarini, haykallar va boshqa san`at asarlarini yozma bayonini bergan.

Periegetik adabiyotning eng oxirgi vakillaridan biri Pavsaniya (milodni II asri) bo`lib, Ellada, Attika, Peloponnes, Beotiya va Fokida va bu shaharlardagi tarixiy obidalar va san`at asarlari to`g`risida batafsil yozma bayon bergan.

Rim imperiyasining qulashi araffasida qadimgi madaniyat obidalariga bo`lgan qiziqish asta-sekinlik bilan so`naboshlaydi. Buning sababi albattaimperiyaning inqirozga yuz tutganligi vash u bilan

Birga xristian dininingkeng tarqashi munosabati bilan qadimgi ko`p xudolilikka, turli ilohlarga sig`inishga qarshi siyosat bilan bog`liq jarayonlar boshlandi. Har bita xristian dini normalariga to`g`ri kelmaydigan biron-bir holatta qarshi ochiq oydin jang boshlandi, shunday odamlarni barchasi dushman deb e`lon qilindi.

Ammo bu davrda ham antik davrdan ilk o`rta asrlar orqali uyg`onish davriga qadar juda ingichka ip – kolleksionerlar orqali san`at asarlarini o`tganligini va u naqadar o`zini ta`sirini o`tkazganligini ko`rish mumkin.

Uyg`onish davrida arxeologiya fani filologiya bilan birgalikda biroz bo`lsa ham jonlashdi. Bu davrning eng buyuk namoyondalaridan biri Franchesko Petrarka bo`lib, klassik lotin tilini qayta tiriltirdi. Uning shogirdlari gumanitas-insoniylik degan terminni joriy etishdi. O`rta asrlardagi xudo to`g`risidagi bilimlar o`rniga Petrarka insoniylik bilimlari degan terminni keng targ`ib qildi. Bu davrda barcha buyumlarni o`lchovini o`lchaydigan xudo emas, odam degan shior keng tarqaldi. Yangi yo`nalishning eng yirik manbasi va namunasi klassik davrning adabiyoti va falsafasi bo`ldi. O`sha davrning asosiy tili lotin tilini to`liq tarjimasini o`rganishgani tufayli antik davrining san`ati va antik davr siyosiy doktrinasini yana qayta tirilishiga sabab bo`ldi. O`sha davrda davlat tuzumining ideal namunasi deb Rim respublikasi deb tan olindi. 1347 yilda o`sha davlatni yana qayta tiriltirmoqchi bo`lgan Kolo di Rientso edi. Bu ishni amalga oshirishni iloji bo`lmagan bo`lsa ham, ammo revolyutsion xukumat tomonidan chiqarilgan qarorlarning eng dastlabkisi Rimdagi antik davr yodgorliklarini saqlash to`g`risidagi buyrug`i edi.

Keyingi XV asrda mashhur qadimgi tarixni havaskori, sayyoh va gumanist Kiriako (Chiriako) Ankonskiy (1391-1452) bo`lib, uning antik davr yozuvlari bilan qiziqishi lotin tili bilan grek tilini o`rganishni maqsad qilib olib Gretsiya bilan birga Sharqqa sayohatini boshlaydi. U Gretsiyadan tashqari Makedoniya, Frakiya, Epir, Kichik Osiyo shaharlarini Suriya, Falastinda va Misrda bo`ldi va o`zining bu sayohatidan keyin «Qadimgi buyumlar to`g`risidagi yozuvlar» degan kitobni yozdi. Uning bu kitobi juda katta shuhrat qozondi. Uning shu kitobi tufayli avlodlar Kiriakini «epigrafikani otasi» va «arxeologiya otasi» deb aytishdi. Epigrafika klassik arxeologiya bilan klassik filologiyani qo`shadigan ko`prik edi.

XV asrning oxiri XVI asrning boshlarida Renessans o`zining taraqqiyotini yuqari bosqichiga chiqadi. Buyuk rassomlar Leonardo da Vinchi, Rafaelya Santi, Mikelanjelo Buonarroto, Titsiana va boshqalar etishib chiqishdi. Xristofor Kolumb va Magellan kabi sayohatchilar o`zlarining hamrohlari bilan er yuzi bo`ylab sayohatlarini amalga oshiradilar. Bu davrga kelib ayrim knyazlar, yoki hatto cherkov xodimlari ham antik davrining san`at asarlarini to`plashga kirishadilar.

Hatto Vatikandagi saroyda maxsus bir ellinizm davri haykallarini saqlashdi. Lekin ruhoniylarni arxeologiya bilan shug`ullanishlari juda uzoqqa bormadi. 1555 yilda pop Yuliy III vafatidan keyin Augsburg diniy bitimi tuzilgan bo`lib unda «Xukmdor kim bo`lsa, o`shaning dini bo`ladi» degan shior o`rtaga tashlandi.

O`sha davrdagi imperator Karl V diniy ulamolar tomonidan qo`llab-quvvatlanmay qolgandan keyin taxtdan tushirildi. Trident sobor iva iezuit ordenining reaksion qarorlari tufayli fan va san`atga qarshi haqiqiy quvg`in boshlandi. Katolik cherkovining yozuvchilarini ustidan tsenzura boshlandi. Juda ko`plab kitoblar o`qish uchun cheklab qo`yildi, yoki yoqib yuborildi. Antik davrdagi haykallar-xudolarning, qahramonlarning, turli afsonalardagi qahramonlarni tasvirlarni noshaariy, shayton tasvirlari deb ularni saqlash man etildi.

Bularni hammasi arxeologiya fanini rivojlanishiga juda kata to`siq bo`ldi. Ayniqsa Italiyada arxeologiyaga ajratilayotgan pul miqdori qisqaribgina qolmasdan, balki u bilan shug`ullanish xavfli bo`lib ham qoldi. Arxeologiya bilan shug`ullanadiganlarni budparastlikda aybladilar va ular inkivizitsiya sudining iskanjasiga tushdilar.

Ammo uyg`onish davridagi antik san`ati namunalarga bo`lgan qiziqish endilikda Fransiya va evropaning boshqa mamlakatlariga tarqalib bo`lgan edi. Fransiya XVII asrning boshidan boshlab antikvar buyumlarni to`plash, ularni topib saqlash bo`yicha eng yirik markazga aylandi.

Shunday qilib, bu klassik arxeologiyaning dastlabki boshlang`ich paytini «arxeologik materiallarni to`planish payti edi» desa ham bo`ladi. Lekin shunday payt keldi-ki, endilikda oddiy to`plangan material son jihatidan sifatga o`tishi kerak edi.

Xuddi shunday olimlardan Fransiyaning Provansa degan shahridan Klod Peyresk (1580-1637) bo`lib, birinchi marotaba buyumlarning ahamiyatini tushunib etdi. Uning uchun buyumni «katta», yoki «kichik»ka ajratmasdan ularni barchasiga barobar qarash kerak ekanligi, barcha buyumlarni aniq gipsdan qilingan nusxasi bo`lishi kerakligini tushunib etdi.

Shu bilan birga shu davrgacha to`plangan barcha materiallarni yig`ib to`plashga harakat qilish boshlandi. Shunday olimlardan biri Geydelberg

universitetining professori Gruter juda kata 12 ming lotin yozuvlarni o`zida mujassam etgan to`plam nashr ettirdi.

Angliyaga ham qadimgi yozuvlar bilan qiziqish keng tarqaldi va hatto bu ishlar bilan qirol Karl I ham shug`ullandi.

Frantsiyada XVII asrning o`rtalariga kelib bir qator akademiyalar – Yozuvlar akademiyasi, Arxitektura akademiyasi, Tasviriy san`at va Haykaltaroshlik akademiyalari tashkil topdi. Bu tashkilotlar juda ham ko`plab tarqoq holdagi alohida tadqiqotchilarni qadimiyat havaskorlarini birlashtirdi, arxeologik ekspeditsiyalarni tashkil etishdi, vash u davrgacha to`plangan arxeologik materiallarni sistemalashtirish bilan shug`ullandilar.

1733 yildan boshlab Angliyada va uning ketidan butun evropada birinketin Frantsiyadagi kabi jamiyatlar va akademiyalar tashkil etildi. Bu jamiyatlarni say-harakatlari bilan ko`plab kitoblar nashr qilindi. Benedikt Monfokon (1655-1741) evropada tarqoq holda bo`lgan va juda ko`plab antikvar buyumlarni, ayniqsa ellinizm davridan qolgan haykollarni 10 tomdan iborat kitob holida 1800 nusxada chop ettirdi. Biroz keyinroq Frantsiyalik olim, antikvar, graf Kelyus yetti tomdan iborat «Misr, etruss, grek va Rim Kadimiyatlari to`plami» degan kitob nashr ettirdi. Unda mayda buyumlar-tamg`alar, tangalar va boshqalar to`plangan bo`lib, bu buyumlarni nimadan ishlangani, badiiy ishlanishi va mazmuniga qarab klassifikatsiya qildi.

Yuqaridagilardan farqli o`laroq Germaniyada XVIII asrning birinchi yarmidan boshlab dastlabki arxeologik bilimlarni, ayniqsa Gretsiya va Rim qadimiyati bo`yicha to`plangan bilimlarni universitetlarda o`qitila bashlandi.

Ammo yevropada boshlangan dastlabki arxeologik izlanishlar o`sha arxeologik buyumlarni tiplarini o`rganish, buyumlarning tavsifi, qaysi haykaltarosh qanday materialdan qachon, qanday qilib yasaganligi to`g`risidagi ma`lumotlarni berishdan nariga o`tmadi. Bu davrdagi olimlar arxeologik materiallarga faqat buyum sifatida qarashdi, arxeologik materiallarni tarixi o`rganishni manbai ekanligini tushunib etmadilar. Qo`lga kiritilgan yutuqlarga faqat o`sha davrgacha to`plangan antikvar buyumlarni sistemalashtirilishi bo`ldi.

Albatta bu davrda ayrim erlarda arxeologik qazishmalar ham o`tkazilgan bo`lib, bu qazishmalrning asosiy maqsadi antikvar buyumlar topib olishdan nariga

o`tmagan edi. Arxeologik obidalarini qachonlardir hayot xukm surgan qazish usullariga amal qilish kerakligini tushunishmadi. Buning sababi u davrda hali qazish usullarining o`zi ishlanmaganligi edi.

1.2. Gerkulanum va Pompeyning arxeologik qazish uslublarini tushunishda manba ekanligi

Ma`lumki, milodning 79-yilida Italiyaning Gerkulanum va Pompey shaharlari Vezuviy vulqonlari ostida qalib haloqatga uchragan. Butun boshli ikkita tirik shahar vulqondan ko`tarilgan kul va shlak qatlamlarini ostida qolib ketgan va oradan juda ko`p yillar o`tgandan keyin bu shahar to`g`risidagi ma`lumotlar xalqning xotirotidan ko`tarilgan edi. 1711-yilda Gerkulanum shahri ustida olib borilayotgan tuproq ishlaripaytida bu erdan antik davrga oid buyumlar topildi. Odamlar qadimgi shaharning boshqa xududlarini qazib ko`rishganda yana xudi shunday buyumlar topib olaverishdi. Shunday keyin butun boshli qadimgi shahar xududida tartibsiz ravishdagi qazishma ishlari boshlandi. Turli odamlar qanday xohlashsa, shunday qazishib faqat antik davrga oid topilmalar topib olishga harakat qilishdi. Qazilgan joyni tarxi, kesmasi, yoki topilma qanday sharoitda turganligi to`g`risida boshqa ma`lumotlarga umuman ahamiyat berildi. Hatto topilmalar topilgan joydan devoriy suratlar chiqqan bo`lsa ham, unga hech qanday e`tibor berilmadi. Devoriy suratni olib chiqib boshqa biron erda sotishni iloji yo`q edi, chunki uni ko`chirib boshqa erga o`rnatish uslubi ham ishlanmagan edi. Shuning uchun topilma qidiruvchilar bu chuqurni ko`mib, boshqa joydan yana shunday chuqur qazishdi.

Oradan ancha vaqt o`tgandan keyin Italiya xukumatining qarori bilan Gerkulanum xududida ruxsatsiz qazishmalar olib borishni ta`qiqdash to`g`risida qaror chiqardilar. Bu erdagi hukumat qarori bilan qazilayotgan qazishmalar ancha

planli, tartibli ravishda amalga oshirila boshlandi. Davlat tomonidan bunday ishlarni amalga oshirilishi natijasida ancha ijobiy, yaxshi natijalarni olishga muvaffaq bo`lindi. Jumladan, 1753 yilda shahar tashqarisida quriladigan villaga o`xshagan bino bilan birgalikda butun boshli kutubxona, haykallar galereyasi kabi topilmalarni topishga muvaffaq bo`lindi. Lekin, nima bo`lganda ham bu davrda olib borilgan qazishmalarning asosiy maqsadi qimmatbaho buyumlarni topib uni pullashdan iborat bo`ldi.

1938-yilda Gerkulanum bilan bir davrda Vezuviy vulqoni natijasida ko`milib qolgan Pompey shahri topildi. Bu erdagi qazishmalar ham Gerkulanumdagi singari asosan yodgorlikni talan-taroj qilishdan iborat bo`ldi va bunga ham faqat davlatning aralashishidan keyingina uni to`xtatish imkoniyati tug`ildi.

Yuqoridagilarga qaramasdan bu ikki buyuk shahar xududida olib borilgan qazishma ishlari natijasida ilmi, tushungan odamlar o`rtasida tarixiy yodgorliklarga bo`lgan munosabat biroz o`zgardi. Arxeologik yodgorliklarni qazish va ulardan to`g`ri xulosalar chiqarish bo`yicha yangi fikrlar paydo bo`ldi. Jumladan, Gerkulanum va Pompey shaharlarini ellinizm davri tarixi va madaniyatini o`rganishdagi ahamiyatini nihoyatda kata ekanligini tushunib etadigan ham etishib chiqdi. Chunki bu har ikki buyuk shaharlardek ellinizm davri madaniyatini, kundalik turmushini, jamoa hayotini, ayniqsa shaharlardagi hayotni qanday bo`lgan bo`lsa, shundayligicha qotirib qo`yilganday ko`rsatib beradigan boshqa shahar yo`q edi.

Pompey shahrida ham olib borilgan arxeologik qazishma ishlari Gerkulanum xarobasini qazishdan ko`ra yaxshi bo`lmadi. Bu erda davlatni aralashiga to`g`ri keldi. Lekin shu ikki shaharda olib borilgan ishlar natijasida o`z davrining ilg`or arxeologlari orasida ellinistik shaharning tirikligidagi qiyofasi namoyon bo`ldi. Shuning uchun o`sha tushungan odamlarda yodgorlikni saqlash, uni kelgusi avlodlarga etkazish to`g`risida qayg`urish kerakligini anglaydiganlari paydo bo`lishdi.

Gerkulanum va Pompeyni ko`milib qolishi to`g`risida yozgan mualliflar Vezuviy vulqonini yozishar ekan, go`yoki vulqondan ko`tarilgan juda kata lava oqimi kul bilan ko`milgan emish. Buday bo`lishi mumkin emas, chunki shahar

xarobalarida hattoki kitoblar ham saqlangan. Yozma manbalarning to'g'ri yoki noto'g'riligini tushunishda vulqan otilishi bilan bog'liq bo'lgan tabiiy hodisalarga e'tibor bersak masalani tushunishga biroz bo'sa ham yordam beradi. Jumladan, agar lava oqib kelib bu shaharni ko'nganda edi, bu har ikki shahar ham 100% yonib, barcha narsa erib, shahar toshday qotgan jism bilan ko'milib qolishi kerak edi. Juda ham ko'plab narsalar erib, yonib ketgan bo'lar edi.

Aslida vulqon otilgan payitda juda ham katta fizik jarayonlar yuz beradi. Vulqon yuqori qatlamlarga issiq lava kul qatlamlari ko'tarilib atrofda momaqaldiroqli yomg'ir chaqiradi. Natijada yomg'ir o'zi bilan kulni yopishtirib yog'ishi natijasida qattiq massaga aylanib butun boshli shaharlarni ko'mib yuboradi. Shuning uchun bu shaharlardagi barcha buyumlar shikastlangan bo'lsa ham, lekin butunlay buzilib ketmagan edi. Shuning uchun ham bu yodgorlikdan faqat qimmatbaho topilmalarni sug'urib olib, qolgan topilmalarni toshlab yuborish insoniyatga qarshi qilingan juda katta jinoyat ekanligini Gerkulanum va Pompey tufayli tushunib etdilar. Aynan shu shaharlarda saqlangan osori-atiqalar tufayli bu shaharlar xududida arxeologik ekspeditsiyalar tashkil etildi va shuning uchun ham bu har ikki obidani ko'rgan minglab turistlar, tarixchilar va arxeologlar hozirgacha kelib turadilar.

Bop II.

2.1.Arxeologiya XVIII asr XIX asrdagi rivoji.

Arxeologiya keyingi rivojlanishi yevropadagi siësiy va iqtisodiy rivojlanishlar bilan bog'liq. Jumladan Frantsiyadagi revolyutsiya, Napoleon urushlari, boshqa davlatlarda ham boshlangan burjua revolyutsiyalari, kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi, ayniqsa transport vositalarini, sanoat korxonalarining rivojlanishi va h'.k. arxeologiyani rivojlanishiga olib keldi. Yevropadagi davlatlar qadimgi Rim Respublikasi siësiy tuzum sifatida, davlat shakli sifatid ideal tuzum ekanligini tushundilar va nihoyat Fransiyada ham aynan shunday davlat tuzildi.

General Napoleon Bonapartning Misrga qilgan ekspeditsiyasi natijasida Sharq mamlakatlariga ywl ochildi. Misrga Napoleon bilan birga juda ko'plab talantli olimlar h'am kelishgan edi. Burjuaziyaning rivojlanishi arxeologiyani rivojiga h'am katta tasir etdi. Napoleonning Misrda qilgan dastlabki ishlaridan biri bu yerda Misr institutini ochilishi bo'ldi.

Bu davrda Yevropada ibtidoiy davr arxeologiyasi rivojlandi. Sanoatni rivojlanishi natijasida temir yvllarni qurilishi, avtomobil yvllarini qurilishi, suv tegirmonlari, shamol tegirmonlarini qurilishi kabi ishlar boshlanishi munosabati bilan shu qurilishlar olib borilgan joylarda juda kwplab ibtidoiy davr ëdgorliklari ochildi.

XIX asrdan boshlab «buyuk arxeologik kashfiëtlar» davri boshlanadi. Napoleonni Misrga olib borgan olimlari ichida Denon degan juda talantli, ziyrak olim bor edi. U juda qisqa vaqtda butun Misrni kezib chiqdi va juda h'am kwplab arxitektura obidalariga ëzilgan ëzuvlarni nusxasini oldi, boshqalarini chizma nusxasini tushirdi, turli topilmalarni sotib oldi va twpladi.

Misrning turli qismlarida toshdan qurilgan ibodatxonalar, maqbaralar, turli haykallarning ostonasi toshlavh'alar bilan twla edi. Shunday topilmalardan biri Rozetta qishlog'idan topilgan yozuvli bazalt toshi bo'lib, unda uch xil tilda qadimgimistr tilida - ieroglifda, yangi misr tilida - demotik yozuvida va grek tilida - grek alifbosida yozilgan edi. Keyinroq aniqlanishicha, har uchta yozuv bitta narsani ifodalay edi. U ham bo'lsa kohinlarning Ptolemey V Epifap (mil. il. 196 y.) sharafiga chiqarilgan farmoishi edi. Rozetta qishlog'idan topilgan tosh lavh'aning uch tilda bitilganligi va uning bir tomonida grek tilidagi nusxasini ham borligi sababli qadimgimistr, hamda yangimistr tilidagi nusxalarini o'qish uchun kalit bwlilib xizmat qildi.

Misrning qadimgi yozuvlarini yoqish albatta juda qiyin edi. Ammo Fransuz olimi Fransua Shampolon (1790-1832) ning juda ko'p tillarni bilishi tufayli va Rozetta topilmasidagi uch tilda yozilgan yozuvlar tufayli Misr ierogliflarini 15 ta belgisini aniqlashga muvaffaq bo'ldilar. Shu 15 ta belgini aniqlash usuli keyingi qadimgimistr ierogliflarini tadqiq etish uchun katta baza bo'lib xizmat qildi.

Frantsiya ekspeditsiyasi davrida Misr yodgorliklaridan juda yaxshi kolleksiyalar to'plandi. Biroq Amen tinchlik bitimiga ko'ra bu topilmalarni hammasi, shu bilan birga Rozetta qishlog'idan topilgan toshlavha ham Angliya ixtiyoriga berildi. Ammo Fransiyada hamma topilmalarning chizmalari, yozuvlardan kwchirmalari bwlganligi tufayli bu erda 1808-1813-yillarda Misr topilmalarini jamlagan 12 tomndan iborat tablitsalar va 24 tomndan iborat matnli kitob chiqarildi.

Shampolondan keyin Fransiyaga kelib katta ishlar qilgan yirik nemis olimi Lepsius (1810-1884) edi. Lepsius Shampolonga nisbatan o'zining juda aniqligi va ziyrakligi bilan ajralib turar edi. U Misr topilmalarini o'rganishga juda ham aniqlik, albatta uslubiy jih'atdan to'g'ri yondashdi. Har bitta topilmadan qanday informatsiyani olish mumkin bo'lsa, maksimal darajada oladi. Misrning Memfis shahri yaqinida u yaqin yarim yil qolib ketadi va u erda 67 ta piramidani, yaqin 130 ta mozor-maqbarani tadqiq qiladi. U birinchi marta shu topilmalarga asoslanib turib Misrni davrlashtirish ishlarini amalga oshirdi. Misr, Efiopiya, Sinay yarim oroli xududlarini ko'p tomli yodgorliklari nomli kitoblarni nashr etdi. Lepsius tomonidan to'plangan arxeologik materiallar keyinchalik o'zi direktori bo'lgan Berlin arxeologiya muzeyiga topshirildi.

Yevropaliklar umun Mesopotamiya tarixi to'g'risidagi ma'lumotlar juda ham kam edi va ular har bir yangilikni juda ziyraklik bilan kuzatib turishar edi. Shu bilan birga Misrga borgan Yevropaliklar toshdan yasalgan piramidalarni, mavzoley va makbaralarni ko'rishga bo'lishsa, Mesopotamiyada bunday narsalar umuman yo'q edi. Bu erdagi qurilishlar asosan g'ishtdan, ko'p hollarda xom g'ishtdan, juda kam hollarda pishiq g'ishtdan bo'lar edi. Shuning uchun qadimda juda ulug'vor bo'lgan shaharlar ham ko'proq xom g'isht bilan ko'tarilgan bo'lganligi uchun ular tashlab ketilgandan keyin oddiy jonsiz dashtdan farqi bo'lmay qoldi.

Mesopotamiya tarixini assurologiya yo'nalishini o'rganishni boshlab bergan olim Klavdiy Djems Rich (1784-1821) bo'lib, aslida kelib chiqishi frantsuz, ammo Angliyada yashab inglizlarni Ost-Ind kompaniyasini Bag'doddagi vakili bo'lib ishlagan. U Mosulda bo'lgan payitda mahalliy aholining xotirasida qolgan rivoyatlarda eslatiladigan Nineviyani asoslagan podshoh Nimrod to'g'risida so'raganda mahalliy arablar o'sha shaharning o'rnini ko'rsatishadi. Ammo Rich bu yerni qazib ko'rgani bilan hech narsani topa olmaydi. Lekin keyinroq ma'lum bo'lishicha Rich Nineviyani o'rnini juda aniq aniqlagan ekan. U qazishmalar olib borgan davrda sopoldan yasalgan plitalarni to'playdi. Bu topilgan plitalar Ashurbanipal kutubxonasini klinopis yozuvli kutubxonasining birinchi hujjatlari ekanligi aniqlangan.

1942-yilda Fransiyaning Mosuldagi konsuli Emil Botta Dur-Sharrukin shahri yaqinidagi Xosrobod qishdog'idagi tepani qazib ko'rganda Assuriya podshosi

Sargon (mil.il. 722-705yy.) ning saroyini topadi. Sargon saroyi - saroy zallari, ichki hovli, ibodatxona, zipapoyasimon burj, omborxonalar, oshxona, vino saqlaydigan xonalar, otxona topilgan. Saroylarning devorlari yozuvli va bo'rtma usulda ishlangan barelef tasvirli plitalar bilan qoplangan edi. Ayniqsa juda yirik qilib ishlangan, yuz qismi odam, qolgan qismi besh oyoqli qanotli buqa tasviri tushirilgan haykal, Gilgamesh va Enkichu dostonidagi qahramon Gilgameshning bir qo'lida o'ldirilgan sherni, ikkinchi qo'lida gurzini ushlab turgan tasvir hammani hayratga tushirdi.

İngliz Genri Leyyard Nineviyani topishga muvaffaq bo'ldi. U faqat bitta emas, balki bir nechta Nineviya podsholari saroylarini topdi. Ularning ichida eng mashhuri Ashshurbanapal kutubxonasi bo'lib, 20000 ortiq sopol taxtachalariga yozilgan matematikaga, astronomiyaga, meditsinaga, tarixga, grammatika va boshqa fanlarga doir asarlar bor edi. Bundan tashqari davlatning qonunlari, buyruqlari, xatlar, xabarlar, xo'jaliklarning daromadlari va hisobotlari, arznomalar va iltimoslar, sud qarorlari, shartnomalar, uylarni oldi-sottisi, erlar, qullar, qarz olib, qarz berish to'g'risidagi, xullas juda ham ko'p hujjatlar bor edi.

Baxtga qarshi Rich ham, Botta ham, Leyyard ham nemis olimi Lepsius kabi arxeolog-olim emas edilar. Shuning uchun qazishmalar davrida qazish uslublarini, ayniqsa topilmalarni ahamiyatini tushunib yetmaganliklari sababli ularni juda ko'plari, shu jumladan sopol-taxtachalardagi hujjatlar yo'qotildi.

Arxeologik qazishmalar XIX asrning birinchi yarmida Suriyada, Kichik Osiëda va Falastinda ham oz bo'lsa ham davom etdi. Xuddi shu davrdan boshlab Gretsiya xududida xam qazishmalar boshlanib, Qadimgi Elladaning klassik materiallarini olishga muvaffaq bo'ldilar. Malumki, Yevropalik olimlar Gretsiyaning qadimgi materiallari bilan faqat Frantsiyadagi nusxalarga qarab turib fikr yuritilar edi.

İlgari varvarlarcha qazishmalar olib borilgan Pompey shahrini to'liq o'rganish uchun qazishmalar boshlab yuboriladi. Endilikda shaharning turli qismlarida alohida-alohida chuqurlar qazib faqat topilmalarni sug'urib olish emas, balki katta maydonlarda qazishmalar olib borilib, faqat yaxshi topilmalar emas, balki har bitta buyumning holati to'g'risida batafsil malumotlar yig'dilar va natijada butun boshli shaharni kundalik hayoti, xalqning kundalik turmushi to'g'risidagi ma'lumotlarni

olishga muvaffaq bo'ldilar. Antik davrning kichik shahrini to'liq ochishib, uni kundalik hayotini har tomonlama o'rgandilar.

XIX asrning 20-yillarida Vulche shahri yaqinidagi Etruriyadagi miloddan ilgari VIII asrlarga oid qabristonda nemis olimi Eduard Gergard qazishmalar o'tkazib, bu erdagi qabrlardan 20000 ortiq suratlar tushirilgan vazalar topildi. Bu olimning qilgan katta ishi o'sha 20000 surat tushirilgan vazalarni topganligi emas, balki o'sha vazalarni davrlashtirganligi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Eduard Gergard ellinlar davri vazalaridagi suratlardagi ishlatilgan rang, suratning mazmuni, vazalarning shakllariga qarab turib bu vazalarni «gapirtirishga», ya'ni davrini aniqlashga majbur qildi. Bu ish shu darajada yaxshi amalga oshirilgan ediki, hatto shu payitga qadar arxeologlar sur'at solingan vazalarni topib olsalar, uning aniq davrini aniqlash uchun Eduard Gergardning XIX asrda amalga oshirgan davrlashtirishiga murojaat qiladilar. Aynan Edvard Gergardning qilgan bu ishi arxeologik topilmalarni davrini aniqlash uslublarini kelib chiqishidagi bir katta bosqich edi.

2.2.Rossiyada arxeologiya fanining paydo bo'lishi.

O'zbekiston xududida, shuningdek butun o'rta Osiyo xududida arxeologiya fanini paydo bo'lishi bevosita O'rta Osiyo xududlarini Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi bilan bog'liqdir. Chunki, O'zbekiston xududida, shu jumladan butun O'rta Osiyoda ham ruslar kelgunga qadar arxeologik qazishmalar olib borilmagan, xalq orasida «arxeologiya» degan tushuncha ham bo'lmagan edi. Shuning uchun arxeologiya fanini O'zbekiston xududiga kirib kelishini bevosita Rossiya bilan, rus olimlarini kirib kelishi bilan bog'lashimiz to'g'ri bo'ladi. Shunday ekan, Rossiyaning o'zida arxeologik qazishma ishlari qachon boshlangan va arxeologiya tushunchasi bu erlarda qachon paydo bo'lgan, degan tushunchaga oydinlik kiritib o'tsak to'g'ri bo'lar edi.

Rossiya tarixining XII asrga oid Ipatevsk yilnomasida Ladoga kvlini bo'yidagi aholi to'g'risida yaxshi ma'lumotlar saqlanib qolgan bo'lib, ularning birida aholi orasida bo'lgan real voqealar to'g'risida xabar beradi. Unda yozilishicha, «osmonni qalin bulut qoplab kuchli yomg'ir yoqqan payitda Ladoga ko'lining bo'yiga juda ko'plab tangalar va munchoqlar yog'ilishi»ni aytishganligi to'g'risida xabar bor. Bu xabar albatta o'sha payitda arxeologik tushunchani

yo'qligi, mahalliy aholini, shu jumladan yilnoma tuzuvchisini Ladoga ko'lining bo'yidagi qadimgi manzilgohni yomg'ir suvlari yuvganligi sababli erni yuzasiga qadimgi asori-atiqalar chiqib qolganligini bilmasliklari tufayli kelib chiqqan holat ekanligini nafaqat o'sha mahalliy xalq, balki Ipatevsk yilnomachisi ham bilmaydi. Shu bilan birga bizga o'ta sodda aholini arxeologik obida yomg'ir suvi tufayli osori-atiqalarni er yuzasiga chiqib qolayotganligini tushunmaganligini ham ko'rsatadi, yoki xalq orasida «arxeologiya» fani to'g'risida hali umuman tushunchani yo'qligidan darak beradi.

O'rta asrlardan boshlab yevropaning yirik shaharlarida turli buyumlarni maxsus joylarda, muzeylarda saqlash ishlari boshlanadi. Ammo bu saqlanadigan buyumlar qadimgi tarixni ma'lum sohalarini yorituvchi yodgorlik sifatida emas, balki u yoki bu knyazga, yoki mashhur shaxslarga tegishli buyumlar bo'lganligi uchun saqlanar edi. Ya'ni podshoga, knyazga va uning avlodlariga nisbatan bo'lgan laganbardorlik, podsholarga, oliy martabali shaxslarga sig'inish aynan shunga o'xshash muzeylarni tashkil qilishga olib keldi. Rossiyada ham dastlabki muzeylarni tashkil qilish ishlari aynan ana shunday, knyaz, knyaginya, dvoryan, podsho kabi mashhur shaxslardan qolgan buyumlarni to'plab saqlashdan boshlangan.

Rossiyaning XVII asriga oid bir qator hujjatlarida «gorodishe» (qadimgi shahar harobasi) atamasi uchrashini aytib o'tish kerak. Xuddi shu davrdan boshlab Rossiyaning turli xududlarida qimmatbaho xazinalarni qidirish ishlari keng avj oladi. Bunday xazinalarga albatta Sibirdagi juda ko'plab qadimgi chorvador aholiga mansub mozor-qo'rg'onlarda talonchilik maqsadlarida olib borilgan qazishmalarni kiritish mumkin, Bunday «qazishmalar» natijasida bir qancha tillo buyumlar bilan ko'milgan xazinalar topilgan bo'lsa ham, buni ijobiy bah'olab bo'lmaydi, chunki bu ishlar natijasida tarix faniga juda katta ziyon yetkazilgan edi.

Rossiyada arxeologik tasavvurlarni paydo bo'lishida Pyotr I ning 1718-yilda chiqargan buyrug'i arxeologik buyumlarni to'plashda, yodgorliklarni saqlashda katta rol o'ynadi. Unda Rossiya xududining qasridan qanday topilma topilsa, uni olib kelib davlatga topshirish, yana keyinroq chiqarilgan buyruqda esa, topilgan joyni holatini, sharoitini chizishni topshiradi. Bu buyruq arxeologik obidalarni saqlash, ulardan kerak bo'lgan joyda foydalanish imkoniyati jihatidan Rossiyaning

o'z davrida Yevropa mamlakatlaridan ancha ilgari ketishiga sababchi bo'lgan buyruq edi.

Rossiya xududida eng dastlabki arxeologiyani asoslagan olimlardan biri deb Z.Ya.Xodakovskiy (1784-1825yy.) tushunishadi. U birinchi marta arxeologik yodgorlik avvalo tarixiy manba ekanligini, yani arxeologik yodgorlik real tarixiy jarayon ekanligini aytgan. U Rossiya bo'ylab piyoda sayohat qilib, juda ko'p arxeologik obidalarini topadi va ularni qazish kerakligini aytsada, bu yodgorliklarni to'liq tushunib etmaydi. Hatto shahar harobasini u ibodatxona deb o'ylaydi.

Xuddi shu davrdan boshlab Rossiya xududida antik arxeologiya o'z ishini boshlaydi. Jumladan 1811-yildan boshlab, Kerch yarim orolida P.A.Dyubruks arxeologik izlanishlar olib borib, hatto mashhur Kul-Oba yodgorligini qazishga muvaffaq bo'ladi.

Rossiyadagi keyingi arxeologlardan A.S.Uvarov (1825-1884 yy.) o'sha davrdagi arxeologlar jamiyatini aktiv ishtirokchisi P.S.Savelev bilan birgalikda 1851-1854-yillari Vladimir atroflaridagi mozor-qo'rg'onlarni shu atrofdagi xalqlarni tarixini bilish uchun qazishadi. Ammo u davrda bunday mozor-qo'rg'onlarni qazish uslublarini bilmaganliklari uchun yaqin 7000 ta mozor-qo'rg'onni qazishgan bo'lishsa ham, birorta ham mozor qo'rg'on uchun pasport yaratishmagan edi.

Rus arxeologlaridan yana biri I.E.Zabslin bo'lib, (1820-1908), u asosan Dneprbwyi, hamda Qoradengizbo'yi atroflaridagi skif mozor-qo'rg'onlarida qazishmalar o'tkazib, birinchilardan bo'lib skiflarni o'zlari qadimgi zamonlardayoq qabrga, o'likni yoniga qo'yilgan buyumlar o'g'irlanganligini aniqlaydi. Aynan I.E.Zabelin mozor-qo'rg'onni qazigunga qadar o'g'irlangan, yoki o'g'irlanmagan ekanligini aniqlash usulini topishni o'rgandi. Bu narsa arxeologik izlanishlar olib borish uslublarini taraqqiyotida mozor-qo'rg'onni ustki qismiga qo'yilgan tuproq uyumini holatiga qarab qadimgi davrlarda uni o'g'irlangan, yoki o'g'irlanmagan ekanligini aniqlash uslubini aniqladi. Ya'ni I.E.Zabelin arxeologik tadqiqot olib borish jarayonida arxeologik manbani qanchalik to'g'ri, yoki noto'g'ri ekanligini aniqlash kerakligini aytdi.

Birinchilardan bo'lib I.E.Zabelin arxeologik obidani o'rganishda qatlamlarni

ajratish, uni uqiy bilish, mozor qaziyotganda uning ustidagi tuproq uyumi bilan qabrni ichidan chiqarib tashlangan tuproqni farqiga boraoldi.

İ.E.Zabelin arxeologik qazishmalar olib borishda ilmiy usullarni qo'llash, ayniqsa arxeologik stratigrafiyani, ya'ni biron-bir qazishmalar olib boriladigan obekti qatlamma-qatlam ochish kerakligini aytdi. Xuddi shunday usullarda qazishmalar olib borganligi tufayli juda katta Chertomlik mozor-qo'rg'oni butun dunyoga tanildi.

1864-yilda Moskva arxeologlar jamiyati tashkil etiladi. Bu tashkilotni tashkilotchilari A.S.Uvarov va İ.E.Zabelin edilar. A.S.Uvarov jamiyatni sezdlarini chaqirib turishni tashkil etdi. Bu sezdlar qaysi shaharda tashkil etilsa, o'sha shaharda arxeologik qazishma ishlarini o'tkazish keng joriy etildi. Bu narsa o'sha xududni tarixini arxeologik usullar bilan o'rganishga katta yordam berdi. Bundan tashqari sezdlarda arxeologlar uchun dala tadqiqotlarini o'tkazish uchun uslubiy ko'rsatmalar tayyorlash kerakligiga alohida e'tibor berildi. Dala sharoitida razvedka qilish usullari, shahar, yoki turli manzilgohlarni qazish usublari, mozor-qo'rg'onlarda qazishmalar olib borish uchun ko'rsatmalar tayyorlandi. Jumladan, o'sha davrdagi taniqli arxeologlardan D.Ya.Samokvasov 1874-yilda Kievda bo'lib o'tgan III-Arxeologiya sezdidagi «Shahar qoldiqlarini, mozor-qo'rg'on va g'orlarda qazishmalar o'tkazish bo'yicha ko'rsatmalar» mavzuida maruza qildi.

Malumki, bu davrgacha mozor-qo'rg'onlarda, shahar harobalarida olib boriladigan qazishma ishlari umuman chizmalarsiz, kundaliksiz, biron-bir qonun-qoidalarga bo'y sunmagan holda olib borilar edi. Bu davrlarda olib borilayotgan qazishmalar olib borish bo'yicha ko'rsatmalar, instruktsiyalar hali boshlang'ich nuqtada edi.

Bu davrga kelib ibtidoiy arxeologiya ham paydo bo'laboshladi. Uning paydo bo'lishida asosiy ro'l o'ynagan soha bu geologiya edi. Bu davrda eng dastlabki Fransuz paleolitshunos arxeologi G.Mortile bo'lib, u birinchi marta arxeologiyaga geologik atama – «qatlam» so'zini kiritdi. Aynan tosh davrini o'rganishda geologiya bilan arxeologiya o'rtasidagi yaqinlik ko'rindi. Shulardan biri geolog A.A.İnostrantsev bo'lib, u Ladoga ko'li bo'yidagi neolit davri yodgorligidagi geologik, biologik va arxeologik malumotlarni bir-birini to'ldirganligini juda yaxshi keltiradi.

1859-yilga kelib Rossiyaning asosiy arxeologik markazi-arxeologik komissiya tashkil etiladi. 1889-yildan boshlab u mamlakat xududida o'tkazilayotgan arxeologik qazishmalarni to'g'ri, yoki noto'g'ri o'tkazilayotganligini kontrol qilish huquqini oladi.

Bu davrlarda chet ellarda ham qazishma ishlari keng avj olgan bo'lib, ulardan eng mashhurlari G.Shliman Troya xarobalarida (Gissarlik) qazishma olib bordi va juda katta hajmda transheya solish usuli bilan qazilganligi uchun yodgorlikka juda katta ziyon etkazilgan. Bu xatolarni tushungan nemis olimi V.Dyorpfeld arxeologiya fanida birinchilardan bo'lib ilmiy asosga asoslangan uslubiy ko'rsatmalar berishga muvaffaq bo'ldi. Bu arxeologning sa'y-harakatlari bilan Gissarlikdagi arxeologik qazishmalarda kundalik tutilib, har kungi qilingan ishlarni yozib borish, topilgan buyumlarni joyida suratga tushirish kerakligi, arxeologik kesmalar, planlar olish muhim ahamiyat kasb etishini tushunib etishdi. Birinchi marta qazishmada kichik-kichik shurflarni qazib faqat topilma topish bilan shug'ullanmay yodgorlikdan topilayotgan arxitektura obidasini tiklashga harakat qilish, yani butun boshli qazishmani kompleks holda tushunishni joriy etdi. V.Dyorpfeld qazishmada asosiy etiborni qazishmani to'liq rekonstruktsiyasini tiklashga harakat qildi. Uning asosiy xatolaridan biri qazishmalarini eng quyi qatlamlarigacha olib bormadi. V.Dyorpfeldning eng buyuk ixtiro si bu qurilish gorizontlari bo'yicha qazishmalarni olib borish kerakligini tushunganligi bo'ldi.

Bu davrda Krit orollarida qazishma ishlarini olib borgan ingliz arxeologi A.Evans juda ko'plab topilmalar topiladigan obidalarni yaxshi tushungan. Shunday obidalarda qazishmalar o'tkazish uchun dastlab qazishmani aniq kvadratlarga bo'lib, uni qatlamlarga ajratib qazish usulini joriy etdi.

B.V.Farmakovskiy (1870-1928) Olviya qazishmalarini diqqat bilan kuzatar ekan, birinchi marta har qaysi qatlamga alohida etibor berish kerakligini, ayniqsa mozor-qo'rg'onlarni qazish davomida avval ustki qismidagi tuproq uyumini to'liq ochib, keyin pastki qatlamlarni qazish kerakligini tushunib etdi. Ammo, bu davrda tarqalgan mozorlarni «quduq» shaklida qazish uslubi keng miqyosida davom etdi.

A.A.Spitsin (1860-1945) yirik rus arxeologlaridan bo'lib, uning eng katta yutuqlaridan biri arxeologlar uchun «Arxeologik qazishmalar» va «Arxeologik razvedka» degan ko'rsatmalarni chiqargani bo'ldi. Arxeologlar ichida

birinchilardan bo'lib arxeologik obidani eng avvalo tarixiy manba nuqtai nazaridan qazish kerakligini juda yaxshi tushundi va boshqalarni shunga targ'ib qildi. U topografik xarita va planlarga juda katta etibor berdi. U yana birinchilardan bo'lib qazishmalar o'tkazilgan yodgorliklarni saqlashga e'tibor qaratish kerakligini tushunib etdi.

XIX asrning oxiri XX asr boshlarida yashab ijod qilgan yana bir yirik arxeolog V.D.Gorodtsov bo'lib, u juda ko'plab shogirdlarni arxeolog sifatida tarbiyaladi va eng muhimi «Arxeologik qazishmalar o'tkazish va topilgan materiallar ustida ishlash bo'yicha ko'rsatma» degan kitobni chop ettirdi. Uning arxeologik qazishmalar o'tkazish bo'yicha ko'rsatmalari juda ham A.A.Spitsinning arxeologik izlanishlar olib borish bo'yicha chiqargan ko'rsatmalariga yaqin bo'ldi. Eng muh'imi V.A.Gorodtsov o'zining «ko'rsatma»larida har qanday yodgorlikni qatlamma-qatlam qazish kerakligini aytadi. Uning aynan shu ko'rsatmasi ahamiyati jihatidan juda yuqori edi.

Rossiyadagi XIX asrning oxiri XX asrning boshlaridagi holat bu arxeologik izlanishlar olib borishning eng dastlabki bosqichlarida edi. Bu davrdagi arxeolog mutaxassislar hali o'zlarini tarixchi deyishlariga haqlari yo'q edi. Chunki, wsha davrning taqozosi bilan olib borilgan qazishmalarning deyarli barchasi faqat turli buyumlarni topib olish uchun qilinardi. Arxeologik buyumlar ko'proq mozor-qo'rg'onlarda bo'lganligi uchun asosiy qazishmalar o'sha joylarda olib borildi. Bu qazishmalardan maqsad faqat topilma topish bo'lganligi uchun ham uni faqat transheya solish usuli bilan olinardi, qabrlarning atrofi, ularning yonlaridagi qatlamlar hisobga olinmasdan, tozalanmasdan, faqat qabrga qo'yilgan topilmalar sug'urib olinardi. Demak, bunday holda arxeologiya tarix uchun ishlamas edi.

2.3.İbtidoiy arxeologiyaning paydo bo'lishi.

İbtidoiy arxeologiya insoniyat tarixining biroz qadimgiroq davrni o'z ichiga olib, asosan yozuvlar paydo bo'lgunga qadar bo'lgan davrni egallaydi. Ammo bu davrning kattaligi yozuvlar davridan deyarli yuz marta ko'proq davrni egallaydi. Odamlar yozishni bundan besh ming yil ilgari o'rganishgan bo'lsalar oddiy tosh qurolini yasashni va undan foydalanishni bundan 500000 yil ilgari o'rganishgan. Yozuv paydo bo'lgandan buyon insoniyat tomonidan yasalgan buyumning har biriga o'xshash buyumlar hozirda ham bor va shuning uchun o'sha qadimgi

davrlarda qanday qurollar nima maqsadda ishlab chiqarganligini aniq bilib olish mumkin. Yozuv paydo bo'lgunga qadar ishlab chiqarilgan qurollarni birontasi ham hozirgi payitda ishlab chiqarilmaydi va shuning uchun u davrda ishlab-chiqarilgan qurollarni nima maqsadda yasalganligini bilish juda qiyin. Bu davrdagi qurollarni na birontasini hozir ishlab chiqarishadi va na hozirda ularni taqqoslash uchun biron-bir buyum saqlangan.

Yozuvlar paydo bo'lgan davrdan boshlab esa, har holda buyumning o'zida yozuv bo'lmasa ham, o'sha buyumga o'xshagan yana boshqa buyum bilan birgalikda yozuv bo'lishi mumkin. Shuning uchun bu davrda solishtirish yo'li bilan o'sha buyumlar o'rganiladi.

Ibtidoiy davr arxeologiyasi tarix fanining alohida yo'nalishi sifatida faqat XIX asrda vujudga keldi. Ammo juda qadimgi zamonlardan boshlab odamlar o'zlarini qayerdan, qanday qilib kelib chiqqanlari to'g'risida o'ylashadi. Har qaysi xalqda ham o'zining o'tmishi haqida juda uzoq zamonlarga borib taqaladigan afsona va rivoyatlar saqlangan. Bu rivoyatlarda odamlarni qanday paydo bo'lganliklari, dunyoni qanday yaralganligi, ayniqsa Odam Ato va Momo Havo to'g'risida, yoki eng qadimgi odamlarni yovvoyi holda bo'lganliklari, qanday qilib otni egallaganliklari to'g'risida rivoyatlar saqlangan.

Nima bo'lganda ham aynan antik dunyo olimlari eng dastlabki dunyo to'g'risida o'z davriga nisbatan juda ham progressiv fikrlarni berdilar. Jumladan, grek faylasufi Demokrit (mil.il.460-370yy.) ibtidoiy odamlar to'g'risida so'zlar ekan, «ular na uyi bwlgan va na usti-boshlari, o'tdan foydalanishni ham bilmaganlar, tartibga solingan yashash tarzi ham bo'lmagan. Asta sekinlik bilan tajriba ortib borgan sari ular sanatni o'rgana boshladilar va jamoat ishidan o'zlariga foyda olaboshladilar». Demokrit bo'yicha insoniyat madaniyatining rivojlanishini eng buyuk stimuli ehtiyojdir.

Miloddan ilgari I asrning birinchi yarmida faylasuf-epikurshunos Lukretsiy Karning «Buyumlarning tabiati to'g'risida» degan asari o'zining materialistik dunyoqarashi bilan ajralib turadi. Bu olimning o'sha zamonlarda qilgan buyuk ishlaridan biri bu bugun insoniyat tarixini buyumlariga qarab uchta yirik davrga - tosh, mis (bronza) va temir davrlariga bo'ladi. Antik davrning o'zidayoq bunday juda ham to'g'ri xulosani olinishi bu o'z davri uchun juda katta tarixiy ahamiyatga

ega bo'lgan xulosalar edi. Insoniyat tarixini o'rganish bosqichlariga nazar solar ekanmiz, yana shunday xulosalarga qaytishimiz uchun yana qo'shimcha ming yilliklar kerak bo'ldi.

Ammo, antik davrdagi insoniyat tarixi bilan bog'liq bu ilk ilmiy xulosalar, nuqtai-nazarlar xristian dinining dogmatik qarashlari bilan yo'q qilindi. Hech qanday pop, yoki kardinallar insoniyatni paydo bo'lishi to'g'risidagi ilmiy qarashlarni qabul qilaolmas edi. Chunki, arxeologiya fani tomonidan eng dastlabki odamlar tomonidan yasalgan tosh qurollarini topilishi, albatta xristian dinidagi poplar, kardinallar, yoki oddiy dinga ishonuvchilarni tushunchasi uchun mutlaqo teskari holat edi. Usha diniy tashkilotlarni rahbarlari tomonidan qadimgi odamlar yasagan toshni tan olinishining o'zi bu ibtidoiy odamni yovvoyi holda bo'lganligini tan olish bilan teng edi. Xristian dini bo'yicha «Xudo eng dastlabki odamni o'ziga o'xshatib tayyorlagan». Bundan ko'rinib turibdiki, Lukretsiy Kar aytgan dastlabki odamning paydo bo'lgan davridagi holati, ya'ni uning mutlaqo yovvoyi holati, usti-boshni bilmasligi, oddiy toshdan qurollar tayyorlashi uning «Xudoga o'xshash»ligiga mutlaqo qarama-qarshi holat edi. Shu narsa tushunarliki, ibtidoiy odam to'g'risidagi bu har ikki holatni bir joyda, bir davrda turishi mumkin emas edi. Aynan shu davrdan keyin diniy qarashlar ilmiy qarashlarga nisbatan ustunlik qildi. Hamma ilmiy qarashlar quvg'in qilindi.

Lukretsiy Karning «Buyumlar tabiati» nomli asari XV asrda chop etildi. O'rta asrlarda antik davrning buyuk faylasuf olimining hamfikrlari, uni tushunadiganlari paydo bo'ldi. Odamni paydo bo'lishi to'g'risidagi Bibliya qarashlari endilikda ma'lumotli odamlarni, ayniqsa olimlarni qoniqtirmas edi. Bu davrga kelib Hindistonga okean orqali yo'l ochildi, Xristofor Kolumb tomonidan Amerika qitasi ochildi, Magellanning butun dunyo bo'yicha sayohati va boshqa ko'plab sayohatlar natijasida dunyoning juda ko'plab qismidan ajabtovur ma'lumotlar kelaboshladi. Bu ma'lumotlarda chekka xududlarda kamon bilan ov qiladigan ovchi qabilalari, ularning juda ko'plab yerlarida juda ham oddiy tosh qurollarini ishlatishib ov qilishlari to'g'risida ma'lumotlar bor edi. Bu qurollarni ichida eng hayron qoldiradigani bu tosh boltalari edi. Demak, «tosh bolta, kamon o'qining uchi va nayza o'sha yovvoyi odamning quroli emasmikan» degan fikr o'z-o'zidan keldi.

Bu davrga kelib Yevropaning o'zida ham ko'p yerlarda ma'lum bir

chuqurlikda xuddi shunday kamon o'qining uchlari, nayza va tosh qurollar topila boshlandi. Endilikda odamlarda juda qadimgi odamlarni tosh qurolini ishlatishlarini, kamonda o'q otib ov qilishlarini, uchi toshdan qilingan nayzalar ishlatishlarini inkor qilib bo'lmaydigan haqiqat ekanligini tushunishdi.

Oradan biroz vaqt o'tib, 1724 yilda Amerikada biroz vaqt yashagan missioner Jozef Lafito o'zining «Amerika yovvoyilarining odatlari va uni ibtidoiy odamlar odatlari bilan solishtiruv» nomli asarini yozdi. U evropaliklar ichida birinchilardan bo'lib Amerikalik indeetslarning hayotida ibtidoiy davr madaniyatini ko'ra bildi va bu madaniyatni Gretsiya va Rim madaniyati bilan solishtirdi.

Arxeologiya fanining keyingi rivojiga nemis arxeologlaridan ota-bola İogann (ota) va Georg (wg'il) Forsterlar juda katta hissa qwshdilar. Ular butun ibtidoiy davr tarixini o'rganishib insoniyatni eng qadimgi tarixini uchta katta davrga bo'ladi. Birinchi davri bolalik-yovvoyilik davri, o'smirlik-varvarlik holati, va yetuklik (madaniy) holat. Xuddi shunday uch bosqichga, lekin biroz boshqacharoq nom bilan shotland olimi Adam Fergyusson ham bo'lgan bo'lib, ular yovvoyilik, varvarlik va tsivilizatsiya davrlaridir. U yovvoyilikdan varvarlikka o'tish chegarasini ilk dehqonchilik va chorvachilikni paydo bo'lishi bilan bog'liq xususiy mulkni paydo bo'lishi bilan, tsivilizatsiyani esa siyosiy sistemani, ya'ni davlatni paydo bo'lishi bilan bog'liq hodisa ekanligini aytadi. Bu tarixiy sotsiologik davrlash antik davrning buyuk olimi Lukretsiy Karning tarixiy arxeologik davrlashiga biroz to'g'ri keladi. Bunday tarixiy-madaniy davrlashtirish bo'yicha qilingan ishlarni yakuniga Amerikalik etnograf Lyuis Morgan va nemis olimi F.Engels tomonidan qo'yildi. Ayniqsa bunda Morganning evolyutsion nazariyasi katta rol o'ynadi.

Nima bo'lganda ham XVIII asrda o'rta asrlarga xos xristian dini bergan odamni Odam ato va Momo havodan tarqalgan ekanligi to'g'risidagi nazaryani yo'qqa chiqarishga arxeologik materiallar etishmadi.

Ibtidoiy arxeologiyani fanga aylanishida Frantsiyadan tashqari Skandinaviya yarim oroli mamlakatlari - Shvetsiya, Norvegiya va Daniya katta rol o'ynadilar. Bu mamlakatlar Yevropaning markaziy, ayniqsa janubiy xududlarini tarixning tahlikali zamonlarida, ya'ni keltlarning migratsiyasi, rimliklarning bosqinchilik yurishlari, xalqlarning buyuk ko'chishlari davri ham Skandinaviya yarim oroli

mamlakatlarini chetlab o'tdi. Shularga qaramay aynan bu xududlarni tuprog'i juda ko'plab yodgorliklarni, ayniqsa ibtidoiy davr yodgorliklarini saqlab kelar edi. Bu xududlarda umuman antik dunyo madaniyatining tasiri umuman bilinmaydi.

XIX asrning boshlaridan boshlab Skandinaviya mamlakatlarida muzeylar tashkil qilish bo'yicha ancha ishlar qilindi. Jumladan, 1806-yili Kopengagen universiteti kutubxonachisi professor Rasmus Nirup Daniya qadimiyatlariga bag'ishlangan miliy muzeyini tashkil qildi va bu muzeyga o'zi to'plagan juda ko'plab eksponatlarni ham topshirdi. Muzeyda material to'plangan sari bu materiallarni sistemalashtirish ishlarini o'tkazishni talab qilar edi. Bu davrga kelib tarixdagi uchta yirik asr - tosh, bronza, va temir asrlarini bo'lganligi to'g'risida juda ham ko'p tarixchilar yozaboshladilar. Daniyalik tarixchi Vedel Simonsen Skandinaviyani qadimgi tarixini umumlashtirish bo'yicha ish qildi, ammo uning ishini kamchilik joyi bor edi, u ham bo'lsa juda ko'plab arxeologik yodgorliklarni tarix bo'yicha beradigan ma'lumotlarini o'zini chiqargan xulosalarini tasdiqlashda foydalanilmagan. Ammo bu ishni daniyalik arxeolog olim, Kopengagen muzeyining Kristian Yurgensen Tomsen amalga oshirdi. U ibtidoiy yodgorliklardan to'plangan materiallarni uchta katta davrga-tosh, bronza va temir davriga bo'ladi. U ikkita tomdan iborat kitobni chop etib, o'zining qarashlarini bayon etadi. Topilgan topilmalarning yoshi to'g'risida biron-bir narsa aytmasa ham uning fan oldida qilgan eng buyuk ishi ibtidoiy davrdagi moddiy madaniyatda avval tosh, keyin bronza va undan keyin temir kelishini muzeylarda to'plangan materiallarga qarab turib aytib berdi.

Tomsenning davrlashtirish bo'yicha qilgan ishlari butun Yevropa mamlakatlaridagi mutaxassislar tomonidan tan olinaboshlandi. Ayniqsa juda ko'p mamlakatlarning muzeylarida to'plangan topilmalar tiplarga ajratildi va ularning juda ko'plari Tomsenning davrlashtirishini to'g'ri ekanligini isbot qilishda juda katta yordam berdi.

Tomsenning yana bir shogirdi Yens-Yakov Vorso (1821-1885) bo'lib, u Kopengagen universitetining professori edi. Keyinchalik u davlat ishlarida ishlab maorif ministri darajasiga ham ko'tarildi. U arxeolog sifatida Daniyaning juda ko'plab mozor-qo'rg'onlarini o'rganib, o'zining ustoz Tomsenning izidan ketayotganligini ko'rsatdi. Bronza davri qabrlarini ajratganda kutilmagan

yangilikka ro'para keldi. Ya'ni ayrim qabrlardagi o'liklar yoniga juda ko'plab turli buyumlar qo'yilgan bo'lsa, boshqa bir qabrlarda umuman buyumlari yo'q qabrlarni borligini aniqladi. Bundan tashqari Vorsoning qabrlar bo'yicha qilgan ishlari o'sha qabrlardan topilgan topilmalarga va kumish rasm-rusmlariga qarab turib o'sha qabrga odam qo'yilgan vaqtni nisbiy davrini aniqlanishi mumkinligini isbotladi.

Keyinroq, Daniyalik yana bir professor Lunde Sven Nilsen o'zining Skandinaviyaning faunasiga bag'ishlangan kitob yozgan bo'lib, uning bir qismini «baliqchilikni va ovchilikni kelib chiqishi» degan ancha yirik bo'limni qo'shdi. Nilsen insoniyat tarixini davrlashtirish ishlarini amalga oshiradi. Uning bo'yicha insoniyat paydo bo'lganidan buyon to'rtta birin-ketin keladigan bosqichlarni bosib o'tganligini aytadi: yovvoyilik davri, nomadlar (ko'chmanchi chorvadorlar) davri, dehqonchilik davri va tsivilizatsiya davrlariga bo'ladi. Bundan tashqari Nilsen butun insoniyat tarixini arxeologik va etnografik materiallarga asoslanib va solishtirish usullarini qo'llagan holda taraqqiyotning evolyutsion yo'l bilan rivojlanishini tarixiy-madaniy kontseptsiyasini yaratdi.

Shunday qilib, Daniyalik olimlar XIX asrning birinchi yarmida «arxeologik to'ntarish» qilib, arxeologiya fanini boshqa gumanitar fanlar qatoriga qo'shdilar. Birinchi marotaba arxeologiya fani tarix fani uchun xizmat qilaboshladi.

Bop.III. 3.1.O'zbekistonda arxeologiya fanining paydo bo'lishi va rivojlanishining bosqichlari

O'rta Osiyo sharoitida ham dastlabki arxeologik qazishma ishlari deyarli Rossiyadagi kabi XIX asrning ikkinchi yarmida faqat topilmalar topib kolleksiyalar yig'ish uchun qazishmalar o'tkazishni boshlaganlar. Usha davrning yirik sharqshunos olimlari, tabiatshunoslar va boshqa ko'plab olimlarning Turkiston xududiga kelishi bilan bu erda ham dastlabki o'lkashunoslik, tarixni o'rganish uchun yozma va arxeologik materiallarni to'plash ishlari boshlandi. Rossiyalik yirik sharqshunos olimlarning bu erda boshlagan ekspeditsiyalarida mahalliy ilmi-bilimli odamlar ichida turk va fors tillarini biladigan, arab alifbosida yozilgan qo'lyozmalarni o'qiy oladigan odamlarni olib yurib birinchidan qadimgi tariximiz bo'yicha juda ko'plab materiallar to'plagan bo'lsalar, ikkinchidan shu mahalliy aholi orasidan chiqqan yoshlarni arxeologik qazishmalar olib borib tarixni o'rganish mumkinligini tushuntirishdi.

Xuddi shunday mahalliy havaskor o'lkashunoslardan biri Akram Asqarov bo'lib, uning o'zi savdogar, ipak tolalaridan gazlamalar to'qiydigan hunarmand bo'lsa ham, bularga qo'shimcha ravishda qadimgi asori-atiqalardan kolleksiyalar ham to'plagan. N.İ.Veselovskiy tashkil etgan qazuv-qidiruv ishlarida bevosita qatnashgan, turli davrga oid tangalarni davri, zarb qildirgan podshoning nomlarini juda yaxshi bilgan. Farg'ona, Sirdaryo, Samarqand va Buxorodagi ekspeditsiyalarda qatnashgan. Akram Asqarovni bemalol birinchi o'zbek arxeologlaridan edi deb qo'rqmay aytsa bo'ladi. Rus sharqshunos olimi N.İ.Veselovskiy Akram Asqarovga baho berib «Agar Akram Asqarov bo'lmaganda men bunchalik muvaffaqiyatlarga erishmagan bo'lar edim» deb juda yuqori baholagan. 1887 yili «Rus arxeologiya jamiyati» Akram Asqarovni «Arxeologiya rivojiga ko'shgan hissasi uchun» kichik kumush medali bilan mukofotlaydi. Ko'p o'tmay u Parijdagi «ilmiy arxeologiya jamiyatining azosi» etib saylanganligi ma'lum bo'ldi.

Yana bir mahalliy aholi vakillaridan biri Mirza Abdulla Buxoriy bo'lib, u aslida savdogar-ziyoli oiladan chiqqan edi. Ko'p yillar davomida arxeologik ashyolarni to'plash va ularni o'rganish bilan shug'ullangan va natijada oddiy asori-atiqalarni to'plovchi odamdan mahalliy o'lkashunos, numizmat va havaskor arxeolog darajasiga ko'tarilgan.

Mahalliy havaskor - numizmag, samarqandlik hattot Abu Said Maxsum bo'lib, uning Samarqand shahrining obidalaridagi ko'chirmalaridan N.İ.Veselovskiy, V.A.Krachkovskaya, A.A.Semyonov kabi taniqli sharqshunoslar o'z ilmiy tadqiqotlarida foydalanishgan. Hatto, Samarqandlik sharqshunos va arxeolog olim V.L.Vyatkinga Ulug'bek rasadxonasini o'rnini XVI asr vaqfnomalarini o'rganib turib ko'rsatib bergan ham Abu Said Maxsum bo'ladi. Demak, «tarixiy manbalarni o'qib turib, u yoki bu yodgorlikni topish usulini ham birinchilardan bo'lib o'zbek ziyolilari ixtiro qilgan», desak xato qilmagan bo'lamiz.

Abu Toxirxwja Samarqandiyning qalamiga mansub bo'lgan «Samariya» asarini 1899-yilda N.İ.Veselovskiy tomonidan fors tilida, 1904 yilda V.L.Vyatkin tomonidan rus tilida nashr qilinishiga sababchi bo'lgan ham Abu Said Maxsum bo'ladi. Chunki, Abu Said Maxsum birinchi marta bu qo'lyozmani topib, undan bir nusxa ko'chirib N.İ.Veselovskiyga bergan edi. U umrining oxiriga qadar V.L.Vyatkinning Afrosiyobdagi qazishmalariga borib turgan, ammo og'ir

xastalikka uchragan Abu Said Maxsum rasadxona ochilganidan ko'p o'tmay 1910-yilda vafot etdi.

Turkisgonning Ettisuv viloyatida yana bir havaskor arxeolog Turdi Mirg'iyosov faoliyat yuritgan bo'lib, u 16 yil davomida asori atiqalarni to'plagan. Uni o'sha davrdagi arxeolog A.A.Divaevga yozgan xati O'zbekiston Davlat Markaziy arxivida saqlanib qolgan. Unda To'qmoq tumani atrofida saqlanib qolgan irrigatsiya inshootlari, ko'hna shahar harobalari, u erda qazishmalar o'tkazilganini, u erda topilgan topilmalar to'g'risida yozgani holda, yodgorliklarni saqlash ishlari yaxshi bo'lmayotgani, jumladan, mahalliy aholi tomonidan obidalarining g'ishtlari ko'chirib olib ketilayotganligi to'g'risida xabar qilinadi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, bizda boshlangan arxeologik qazishma ishlarini ibtidosida mahalliy aholidan chiqqan ziyoli, havaskor o'lkashunos, o'z xalqini tarixini o'rganishni orzu qilgan havaskorlar turadi.

V.V.Bartoldning sa'y-harakati bilan 1895-yilda Toshkentda Turkiston Arxeologiyasi havaskorlari to'garagi tashkil etildi. Bu to'garak ishlarida o'z davrining yirik sharqshunos va qadimshunoslari V.V.Bartold, N.I.Veselovskiy, M.S.Andreev, A.A.Divaev, N.S.Likoshin, N.G.Mallitskiy, N.P.Ostroumov, V.L.Vyatkin, A.A.Semyonov kabi atoqli olimlar shug'ullanganlar.

O'rta Osiyoning qadimgi va o'rta asrlari bo'yicha yirik mutaxassis, arxeolog olim V.M.Massonning fikricha O'rta Osiyo arxeologiyasini shakllanishida Sankt-Peterburg sharqshunoslarining o'rni juda katta bo'lgan edi. Ayniqsa V.V.Bartold, N.I.Veselovskiy, A.Yu.Yakubovskiy kabi yirik sharqshunoslar boshlagan va A.M.Belenitskiy oxiriga yetkazgan arxeologik manbalardan tarixni yoritishda foydalanish usuli «Sankt-Peterburg arxeologiya maktabiga» aylandi.

Ammo XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida Turkiston xududining anchagina qismida arxeologik izlanishlar olib borish bilan o'z zamonasining yirik bilimdon sharqshunos olimlari shug'ullanishgan bo'lishsa ham, ularning hammasi oddiy «kolleksiya yig'uvchi mutaxassis» darajasidan nariga o'tmadilar. Buning sababi asosan bitta edi. U ham bo'lsa bu «arxeolog»larni O'rta Osiyo sharoitida oddiy tuproqdan yasalgan (paxsa, xom g'isht, guvalak, sinch, erto'la, yarim erto'la va h.k.) arxitektura obidalarini nurashi, ularni ko'p qatlamligi sharoitida paydo bo'lgan arxeologik qatlamlarni ajrata olmaganliklarida, yodgorliklarni tarixiy

manba sifatida ishlatishni bilmaganliklarida edi. Bu ishni bilish uchun o'sha qazilayotgan obidani yodgorlik shakliga kirgunga qadar bo'lgan tarixini tasavvur qilaoladigan odamgina bu yodgorlikni qaziy olishi, arxeologik obidani yaxlit bino sifatida tasavvur qila olishi mumkin edi. Buning uchun albatta arxeolog-mutaxassislar kerak edi.

Bizning xududlarimizga kelib qazishmalar olib borgan dastlabki sharqshunos-arxeologlar Yevropa xududlaridan kelganliklari uchun ular ko'proq Qoradengizbwyi, Kavkaz, Yevropaning janubiy qismlaridagiday toshdan ko'tarilgan imoratlarni qazib o'rganishgan, yoki o'zlari bevosita qatnashmagan bo'lsalar ham, ular to'g'risidagi ma'lumotlarni chop etilgan adabiyotlardan bilishar edi. Shuning uchun ular O'rta Osiyoga kelib dastlabki qazishmalarni o'tkazishgan davrda katta muvaffaqiyatlarga erisha olmadilar, chunki ular mahalliy sharoitdagi tuproqdan bo'lgan imoratlarni qoldig'ini qazishni bilishmas edi.

O'zbekistonda arxeologiya fani hatto o'tgan asrning 30-yillarini oxirlarigacha o'zining shakllanish bosqichida edi. Bu davrda V.L.Vyatkin Afrosiyob yodgorligida, B.P.Denike qadimiy Termizda, M.E.Masson Ohangaron vodiysida va Amudaryo bo'yidagi Ayritomda, Termizda, A.Yu.Yakubovskiy Zarafshon vodiysi yodgorliklarida, V.A.Shishkin Varaxshada, S.P.Tolstov va Ya.G'.G'ulomov Xorazm vohasida, A.P.Okladnikov Teshiktosh va Machay g'orlarida, V.V.Grigorev va A.İ.Terenojkin Toshkent viloyati va Samarqand shahrida qazishmalar olib bordilar.

Bu olimlarning aksariyat qismi o'z sohasining yetuk darg'alari bo'lishsa ham, ularning ichida O'rta Osiyo iqlimiy sharoitidagi tuproqdan bo'lgan arxitektura obidalarini qazish, yodgorlikni qatlamma-qatlam o'rganishning eng dastlabki namunalarini hayotga joriy etgan dastlabki arxeologlar bu G.V.Grigorev, hamda A.İ.Terenojkin bo'ladilar G.V.Grigorev Samarqand shahridagi Tali-Barzu yodgorligida olib borgan qazishmalaridan topilgan juda ham yaxshi, qatlamma-qatlam olingan kulolchilik komplekslari hozirgi payitgacha «tozza komplekslar» sifatida o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Bunday ish O'rta Osiyo sharoitida birinchi marotaba o'tkazilganligi tufayli va olingan stratigrafik ma'lumotlar juda aniq davrni ko'rsatsa ham, o'sha davrning arxeologiyasiga katta xizmat ko'rsatgan G.V.Grigorev bu ma'lumotlarni aniq davrini aniqlashda katta xatolarga yo'l

qo'ydi. Albatta bu uning aybi emas, balki arxeologiya fanining ilk rivojlanish bosqichlaridagi to'g'ri yo'lni qidirish edi.

Xuddi shunday fikrni urushdan keyingi qiyinchilik yillarida Samarqandning Afrosiyob harobalaridagi jarliklar, eski qazishmalarni kesmalari, mudofaa devorlarini tozalash va ularni tushunish ishlarini muvaffaqiyatli bajargan, hamda bu sohada yirik tajriba to'plagan olim A.İ.Terenojkin to'g'risida ham aytsa bo'ladi. Bu olimning o'sha turli kesmalarni, jarlik va mudofaa devorlarini tozalash usullari bilan Samarqand shahri tarixini davrlashtirishi va ayniqsa uning olgan komplekslarini tozaligi o'z kuchini hozirga qadar yo'qotgani yo'q.

O'zbekistonda arxeologik bilimlarni to'planishida, mamlakatimiz uchun ko'plab arxeolog kadrlar yetkazib berishda hozirgi Milliy universitetning arxeologiya kafedrasini ochilishi (1940 y.), O'z.FA qoshida dastlab Arxeologiya bo'limini, sal o'tib tarix va arxeologiya institutini tashkil etilishi (1943 y.), yurtimizda qadimshunos mutaxassislarni ko'plab paydo bo'lishida o'zining munosib hissasini qo'shdi. Bu kafedrani bitirib chiqqan olimlar ichida O'rta Osiyo tarixi va arxeologiyasi bo'yicha eng yirik ishlarni qilgan qadimshunoslar - B.A.Litvinskiy, V.M.Masson, V.İ.Sarianidi, Yu.F.Buryakov, E.V.Rtveladze, R.H.Sulaymonov. G.V.Shishkina, B.D.Kochnev, A.S.Sagdullaev, Z.Usmonova, İ.Axrorov, Sh.Pidaev kabi olimlarni misol qilib keltirish mumkin. Aynan shu kafedrani bitirib chiqqan olimlarni alohida qazish usullari, arxeologik materiallarni talqin qilish usullarini birligi uchun ham bu olimlarni O'rta Osiyo arxeologiyasining «Toshkent maktabi» deb atash rasm bo'lgan.

3.2.O'zbekistonda arxeologiya fanining vujudga kelishida

Ya.G'.G'ulomovning ro'li.

O'tgan asrning 30-40-yillaridan arxeologiyaga mahalliy kadrlar kirib kela boshladilar. Bu kadrlarning eng dastlabki qaldirg'ochi, o'zbek xalqining taniqli arxeologi, tarixchisi va sharqshunos olimi, O'zbekistonning qadimgi va O'rta asrlar tarixi bo'yicha yirik olimi, tarix fanlari doktori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, akademik Yahyo G'ulomovich G'ulomovning butun hayoti vatanimizning tarix fanini paydo bo'lishi va taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqdir.

Yahyo Gulomovich G'ulomov 1908-yilning 1-mayida Toshkent shahridagi

madrasa mudarrisi oilasida tavallud topdi. Otasidan juda erta yetim qolib, boshlang'ich qizlar maktabida dars beradigan onasi qo'lida tarbiyalanadi. 1921-yildan esa, bolalar maktab internatida, boshlang'ich talimning 6-sinfini tugatgandan keyin esa, xalq talimi yo'nalishidagi erkaklar instituti (1921-1926 yy.)ni tugallagandan keyin Toshkent shahridagi boshlang'ich maktabda dars beradi.

1921-1930-yillarda Yahyo Gulomovich o'sha davrlardagi O'zbekistonning birinchi poytaxti Samarqandda tashkil etilgan O'zbek Davlat pedagogika akademiyasiga o'qishga kirgan. 1921-yildan 1931-yilgacha Ya.Gulomov Xalq Komissarlari huzuridagi tarix kabinetini asissentini va aspiranti, 1933-1940 yillarda esa qadimgi yodgorliklar va san'atni saqlash qo'mitasini (Uzkomstaris) ilmiy xodimi va ilmiy kotibi lavozimlarida ishladi. Aynan shu davrlardan Yahyo G'ulomov arxeologik razvedkalarda va arxeologik qazishmalarda ishtirok etadi, hamda arxeologiya bilan yaqindan tanishadi.

O'sha davrning eng yirik tarixchi, sharqshunos va arxeologlari bilan birga ekspeditsiyalarda bo'lib, ularning tajribalarini o'rganadi. 1933-yilda u M.E.Masson boshchiligidagi Termiz ekspeditsiyasida, sharqshunos olim A.Yu.Yakubovskiy tashkil etgan Zarafshon ekspeditsiyasida, 1936-1938-yillarda esa, S.P.Tolstov boshchiligidagi Xorazm ekspeditsiyasida bevosita ishtirok etadi.

1940-yildan boshlab Ya.G'.G'ulomov Ittifoq Akademiyasi O'zbekiston filialining bo'lim boshlig'i bo'ldi. 1943-yildan boshlab esa, yangi tashkil etilgan O'zbekiston FA Tarix instituti filialining qadimgi va o'rta asrlar tarixi bo'limining boshlig'i lavozimlarida ishladi.

Ya.G'.G'ulomov 1943-yilda «Xiva va uning yodgorliklari mavzusida nomzodlik, va 1950 yilda esa, Xorazmni qadimgi davrlardan bugungi kungacha sug'orilishi tarixi» mavzuida doktorlik dissertatsiyasini himoya kiladi. 1955-yilda professor unvoninn oladi, 1956-yilda O'zFA muxbir a'zosi, 1966-yilda esa, O'zFA akademigi etib saydandi. Ya.G'.G'ulomov haqiqiy olim sifatida biron-bir lavozimga o'tirishni orzu qilmadi, shunga qaramay 1956-1959-yillarda O'zFA tarix va arxeologiya institutini direktori lavozimida ishladi.

Ya.G'.G'ulomov talantli inson sifatida, o'zining yurtini tarixini o'rganishga jon-dilidan intilganligi tufayli, studentligi yillaridanoq uni o'rganishni boshladi.

Shuning uchun u Davlat pedagogika akademiyasining studenti bo'lib o'qib yurgan paytidanoq yirik domlalarining maruzalarini maroq bilan tingladi. Bu davrdagi uning domlari qatoriga taniqli tarixchilar, sharqshunoslar va marifatchilar Bular Soliev, Musa Saidjonov, Abdurauf Fitrat kabilar edilar.

Ya.G'.G'ulomovga juda ko'p narsani o'rgatgan olimlardan yana biri V.L.Vyatkin edi. V.L.Vyatkin aslida O'rta Osiyo sharoitida o'sganligi sababli mahalliy o'zbek, tojik tillaridan tashqari arab va fors tillarini ham biladigan, shu bilan birga arab alifbosida yozilgan tarixiy manbalarni o'qiy oladigan sharqshunos olim edi. Bundan tashqari V.L.Vyatkin taniqli arxeolog ham edi. Shuning uchun Ya.G'.G'ulomov VL.Vyatkindan juda ko'p narsani o'rganishga harakat qildi. Ayniqsa Samarqand sharoitida arxeologiya bo'yicha o'rganishi mumkin bo'lgan yagona ustoz ham o'sha payitda faqat V.L.Vyatkin edi. Keyinchalik domla Ya.G'ulomovda sharqshunoslik fani manbalarini arxeologik manbalar bilan qo'shgan holda ishlaganligining sabablaridan biri ham ustoz V.L.Vyatkinning tasiridan bo'lishi ham mumkin.

Ya.G'.G'ulomovning rus sharqshunos, tarixchi va arxeolog olimlari bilan doimiy muloqotlari, Yoshligidan boshlab yirik olimlarning maruzalarini tinglaganliklari natijasida, hayotda ham shu ustozlarning yolidan borishiga, tarix, arxeologiya, sharqshunoslik va etnografiya fanlarini xulosalarini qo'shgan holda maqola va monografiyalar yozishiga imkon yaratdi. Shuning uchun domla Ya.G'.G'ulomovni O'rta Osiyoning eng yirik arxeologlari va sharqshunoslari S.P.Tolstov, M.E.Masson, A.Yu.Yakubovskiy, A.M.Belenitskiy, A.N.Bernshtam, V.A.Shishkin, M.M.Dyakonov kabi yirik olimlari qatoriga qo'shish mumkin.

Ya.G'.G'ulomov O'rta Osiyo xalqlari tarixini o'ylar ekan, doimo eng dolzarb masala sifatida, xalqimiz tarixida irrigatsiyani o'zni va rolini juda yaxshi tushunganligi tufayli hayotining juda katta qismini aynan irrigatsiya tarixini o'rganishga sarfladi. Shuning uchun ham o'zining doktorlik dissertatsiyasining mavzusini ham aynan irrigatsiya tarixidan oldi. Keyinchalik ham irrigatsiya sohasi bo'yicha juda ko'plab shogirdlariga nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalariga mavzuni aynan irrigatsiya tarixidan berdi.

Domla qiziqqan yana boshqa bir yirik yunalish bu ibtidoiy davr-tosh, bronza davri jamoalarini o'rganish mavzusi eng dolzarb mavzular qatoridan o'rin olgan

edi. Shuning uchun domla Ya.G'ulomov o'zining shogirdlarini olib quyi Zarafshon voh'asida Moh'andaryo ekspeditsiyasini tashkil etdi va natijada bu vohada nealt davriga oid kaltaminor madaniyati va bronza davriga oid zamonbobo madaniyati va juda ko'plab yodgorliklar topib o'rganildi.

Domlaning ilmiy faoliyatida tosh davri yodgorliklarini o'rganish alohida o'rinni egalladi. Shuning uchun Toshkent voh'asi va Farg'ona vodiysidagi bir qator tosh davri yodgorliklarini - Obiraxmat, Ko'lbuloq, Selungur, Obishir mukammal o'rganildi. O'zbekiston xududi bir necha yuz ming yillar muqaddam ilk odamdar tomonidan o'zlashtirilganligi aytib o'tildi.

Ya.G'.G'ulomov o'zining jo'shqin faoliyati davomida eng asosiy etiborni O'zbekistonning juda ko'plab xududlarida arxeologik qazishma ishlarini tashkil etib xalqimiz tarixi va qadimgi madaniyatini mukammal o'rganishga harakat qildi. Jumladan, Samarqanddagi Afrosiyob yodgorligi, Farg'ona vodiysidagi Quva shahrining xarobasi, Axsikent yodgorligida, Surxondaryo vodiysi yodgorliklarida, Samarqand, Buxoro, Jizzaxdagi voha yodgorliklarini o'rab turgan mudofaa devorlarini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarga bosh-qosh bo'ldi.

Zarafshon vohasining ibtidoiy davr tarixi va madaniyatini o'rganish, bu joylarda kompleks ekspeditsiyalarni tashkil qilish, ekspeditsiyalarda qatnashayotgan aspirantlar, ilmiy xodimlarning ilmiy ishlariga rahbarlik qildi. Natijada quyi Zarafshon vohasning tosh davridan temir davrigacha bo'lgan tarixi va madaniyatini to'liq qamrab olgan mukammal monografik asarlar paydo bo'ldi. Bu erda olib borilgan ilmiy tadqiqot pshlarining natijasi sifatida domlaning bir nechta shogirdlari nomzdlik dissertatsiyalarini yoqladilar.

Ya.G'.G'ulomov o'zining doktorlik dissertatsiyasining mavzusini sug'orilish tarixi bo'yicha qildi, chunki sug'orilish tarixi O'rta Osiyo sharoitida eng muh'im yo'nalish bo'lib, bu erdagi deh'qonchilik sug'orilish bilan bog'liqdir. Demak, O'rta Osiyo sharoitida vujudga kelgan cho'jaliko-iqtisodiy va madaniy jarao'nlar ham sug'orilish tarixi bilan bog'liqdir. Sug'orilish tarixini juda qadimgi davrlardan eng keyingi davrlargacha qamrab oldi. Sug'orilish tarixini o'rganish uchun arxeologik materiallardan tashqari juda ko'plab qo'lyozmalardan, saqlagan toponimik atamalardan va shu jumladan etnografik malumotlardan mukammal foydalandi. Sug'orilish tarixining tariximizni o'rganishdagi ahamiyatini yaxshi

tushungan Ya.G'.G'ulomov o'zining shogirdlariga dissertatsiya mavzularini h'am sug'orilish tarixidan berdi. Shuning uchun Yaxyo G'ulomovning juda ko'plab shogirdlari - A.R.Muhammadjonov, S.Jalilov, A.Abdulxamidov. S.Anorboev, M.Tagiev, R.Ravshanov kabilar o'z mavzularini aynan sug'orilish tarixidan olishdi.

Domlaning yana bir katta ishi bu mahalliy kadrlarni ko'paytirishga asosiy etiborini qaratdi. U juda ko'plab mahalliy yoshlarni o'z davrining eng yirik arxeologiya markazlari Moskva, Leningrad, Novosibirsk kabi shaharlardagi ilmiy tadqiqot institutlarida ishlaydigan olimlarga stajirovka, aspirantura va doktoranturaga yubordi. Uning o'zi yirik tarixchi, ko'plab qo'lyozmalarni o'qiy oladigan sharqshunos va arxeolog sifatida juda ko'plab tarixchi, etnograf va arxeologlarning dissertatsiyalariga rahbarlik qildi, bu borada unumli va barakali mehnat qildi.

Akademik Yahyo G'ulomov to'g'risida o'z zamonasining juda yirik olimlari katta baho berganlar. Jumladan o'z davrining juda yirik olimi, Leningrad (hozirgi Sankt Peterbur) Davlat Ermitajining direktori, professor B.Piotrovskiy Ya.G'ulomov to'g'risida shunday degan edi: «Yaxyo G'ulomovich yirik arxeolog va tarixchi sifatida mamlakatimizda hamda chet ellarda shuhrat qozondi. Uning O'rta Osiyo xo'jaligining negizi bo'lmish sug'orishga oid ilmiy tadqiqot ishlari fanda katta yutuq hisoblanadi».

Yana boshqa bir mashhur olim V.A.Shishkin «Ya.G'ulomov oddiy ilmiy xodimlikdan arxeologiyaga doir yirik ilmiy ishlari bilan keng tanilgan etuk olim darajasiga ko'tarildi».

Akademik A.P.Okladnikov Yahyo G'ulomovni doimo hurmat bilan tilga olar, va u bilan aloqasini uzmas edi. Uning fikricha, Yahyo G'ulomov O'rta Osiyoning sug'orish va dehqonchilik tarixini yaratib, Sharqning muhim tarixiy masalalarini o'rganishga ulkan hissa qo'shdi.

Haqiqatdan ham Yahyo G'ulomovich G'ulomov tariximizni arxeologik usullar bilan o'rganishga doimo intilib kelgan va bu yo'lda turli usullarni qo'llash ishlariga doimo bosh-qosh bo'lgan. Jumladan Yahyo G'ulomov arxeologik topilmalarni tamirlash va ularni muzeylarga qo'yish, arxeologik obidalarni o'rganish davrida topilgan paxsa, xom g'isht va guvalalardan ko'tarilgan uylarning

harobalarini, qazishmalardan topilgan loydan yasalgan san'at asarlarini (haykallarni) kimyoviy usullar bilan restavratsiya va konservatsiyalash qilish taklifini beradi. Shu taklif asosida O'zbekiston Fanlar akademiyasining Tarix va arxeologiya instituti qoshida arxeologik topilmalarni restavratsiya qilish bo'limi ochildi. Bu taklif asosida tashkil etilgan qism laboratoriyalari dastlab Tarix va arxeologiya instituti qoshida ishlagan bo'lsa, 1970-yildan boshlab alohida Arxeologiya instituti tashkil topganligi munosabati bilan uning «Kimyo-texnologik tadqiqotlar va konservatsiyalash bo'limi ochildi. Mazkur bo'lim ishlab chiqqan tadqiqotlar tufayli ko'pgina sanat obidalari, mudofaa inshootlari, Sopollitepa, Qoratepa, ayniqsa Afrosiyobdan topilgan va butun jahonni lol qoldirgan devoriy suratlari, Yerqo'rg'ondan topilgan loydan yasalgan haykallarning parchalari, Arxeologik obidalarni va topilmalarni kimyoviy usullar bilan restavratsiya qilish bo'limi ochildi.

Yahyo G'ulomovich G'ulomovning ilmiy faoliyatini juda katta qismini tashkiliy ishlar tashkil etgan. Uni 1967-yilda Respublika tarixiy obidalarni saqlash bwyicha tuzilgan jamiyatning tasis sezdi bwlil wtadi va unda Yah'ë G'ulomov h'ayat azoligiga saylanadi. 1971 yildan esa, Yahyo G'ulomov shu jamiyatning arxeologiya seksiyasining raisi etib tayinlanadi. Bu ishni Yahyo G'ulomov mazkur seksiya ishining asosiy vazifa qilib respublika xududidagi arxeologik obidalarini xartasini tuzishni asosiy vazifa qilib belgilaydi. Bu o'ta muh'im va zarur ishga barcha ilmiy muassasalar, viloyat va o'lka muzeylari jalb qilinadi. Arxeologiyani jondilidan sevgan Yahyo G'ulomov respublika arxeologik obidalarini xartasini tuzishda shoshma-shosharlikka yo'l qo'ymaslikni qayta-qayta takrorlar edi.

Ushbu sa'y-harakatlarning natijasi o'laroq 1950-70-yillarda tarixchi va arxeologlarning o'ziga xos «G'ulomov maktabi» dunyoga keldi va shu asosda «o'zbek arxeologiya maktabi»ga asos solindi.

Ushbu «maktab»ning vakillaridan bo'lmish O'zRFA akademiklari A.Asqarov, A.Muhammadjonov, O'.Islomov, Yu.F.Buryakov, professorlar M.Qosimov, T.Mirsoatov. A.Abdurazzaqov, M.Jo'raqulov, R.Sulaymonov, A.Abdulxamidov, M.Is'hoqov, M.Mambetullaev, M.Isomiddinov, T.Shirinov, A.Sagdullaev, B.Matboboev, Sh.Shaydullaev, fan nomzodlaridan I.Axrоров,

W.Alimov, M.İ.Filanovich, N.B.Nemtseva, Sh.R.Pidaev, J.Mirzaahmedov, K.Abdullaev, A.Anorboev kabi ko'plab olimlarni O'zbekistonda arxeologiya fanini rivojlanishiga qo'shgan hissalarini kattadir.

1970-yilda O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Arxeologiya institutini Samarqand shahrida ochilishi va shu institutning o'ziga O'zbekiston xududida olib borilayotgan qazishmalarga «Ochiq varaqa» berish huquqini berilishi juda katta ahamiyat kasb etdi. Bu bilan butun O'zbekiston xududida olib borilayotgan qazishmalarni mutaxassislar tomonidan tekshirib ko'rilishi, arxeologlarni arxeologik obidalarni qazish davrida uslubiy jihatdan noto'g'ri qazishmalar o'tkazilib xatolarga yo'l ko'ymaslikka undadi. Shu institutning o'zida arxeologlarning yillik hisobot sessiyalari tashkil etilib, har qaysi voha va viloyatlarda ekspeditsiya uyushtirgan arxeologlar shu sessiyalarda chiqishlar qilishdi va maruzadan keyin har qaysi arxeolog olib borgan qazishmalar ustidan baxs-munozaralar bo'ldi. Natijada arxeologik qazishmalar olib borish usullari takomillashdi.

Har qaysi viloyatda, vohada yirik, etalon yodgorliklarda doimiy ekspeditsiyalar, ko'p hollarda shu yodgorliklar qoshida arxeologik bazalar, yoki muzeylar tashkil etildi.

Mustaqillik yillarida arxeologiya faniga va ayniqsa uni qazish, fiksatsiya qilish, hozirgi zamon texnologiyalari asosida kompyuterlar xotirasiga solish, xududlarni arxeologik yodgorliklarini o'rganishda kosmosdan olingan suratlardan foydalanish, arxeologik obidalarni, arxeologik materiallarni, adabiyotlar to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini yaratish bo'yicha juda katta ishlar qilindi. Bu yillarda o'zbek arxeologiyasi jahonga chiqdi. O'zbekiston xududida dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlar arxeologlari bilan ko'p yillik shartnomalar tuzildi va shu shartnomalar asosida o'zbek arxeologlari jahonning turli mamlakatlari markaziga borib ularning tajribasini o'rganish bilan birga o'z tajribalarini ularga o'rgatdi. Xalqaro ekspeditsiyalar tuzilib O'zbekistonning barcha tarixiy-madaniy xududlaridagi asosiy yirik yodgorliklarda birgalikda qazishmalar o'tkazish yo'lga qo'yildi. O'zbekiston xududida Avstraliya, AQSh, Germaniya, Italiya, Ispaniya, Frantsiya, Polsha, Rossiya, Yaponiya va Turkiya kabi davlatlariniig olimlari bilan hamkorlikda arxeologik tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Arxeologik izlanishlarda

yangi, hozirgi zamon qazish usullarini joriy etishga, eng zamonaviy texnikalardan foydalanishga va uni hayotda qo'llashga muvaffaq bo'ldilar.

Tabiiyki, O'zbekiston xududidagi olib borilayotgan keng miqyosdagi dala tadqiqotlari va ayniqsa arxeologik qazishma ishlari dala ishlari qo'mitasini ishlarini kuchaytirishni talab qiladi. Shu bilan birga O'zbekiston xududida ikkita Universitetda arxeologiya kafedralari bo'lib, ularning biri Milliy universitet qoshida bo'lsa, ikkinchisi Samarqand Davlat universitetida faoliyat yuritadi. Bu har ikki dargohdan har yili o'nlab arxeolog-mutaxassislar etishib chiqmoqdalar. Ammo bu o'quv dargohlarida ham hali hozirgacha bo'lajak arxeologlar uchun arxeologik qazishmalar olib borish uchun darslik, o'quv qo'llanma, yoki o'quv-uslubiy ko'rsatma chop etilgani yo'q. Yuqorida eslatilgan ikkita oliy o'quv yurtidan tashqari yurtimizdagi juda ko'plab universitetlarni tarix fakultetlari bo'lib, ularda ham arxeologiya kurslari, ayrimlarida esa, arxeologiyadan dala ishlarini olib borish uchun ma'lum soatlar ajratilgan.

O'zbekiston mustaqillikka chiqqandan keyin Yahyo G'ulomovich G'ulomovning xalqimiz tarixini, o'tmish madaniyatimizni o'rganishga qo'shgan buyuk ishlarini inobatga olib Vazirlar mahkamasining qarori bilan «Yaxyo G'ulomov nomidagi O'zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixi» ilmiy seminari tashkil etildi. O'zbekiston Fanlar akademiyasining Arxeologiya institutiga Yahyo G'ulomov nomi berildi. Vatanimizdagi ko'plab shaharlarining ko'chalari, kollej va litseylariga ham Yahyo G'ulomov nomi berildi.

3.3.Yahyo G'ulomovning izdoshlari

Professor Abdug'ani Abdurazzakov.

Tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi fan arbobi Abdug'ani Abdurazzaqov 1930-yili Toshkent viloyati Qibray tumanida dehqon oilasida tug'ilgan. 8-sinfni tugatib Chirchiq kimyo-mexanika texnikumiga o'qishga kirdi va 1950-yili tugatdi. So'ngra O'rta Osiyo politexnika institutining kimyo-texnologiya fakultetini muvaffaqiyatli tugatadi. Avval Toshkent industrial texnikumida o'qituvchi, so'ngra Andijon viloyati ijroiya komitetida mahalliy sanoat bo'limida ishladi. Ilmga bo'lgan chanqoqlik yosh mutaxassisni O'z RFA kimyo institutiga yetakladi. Bu yerda institut direktori Yo.Aliev va arxeologlar sardori Ya.G'ulomov o'rta asr shishalarini o'rganish vazifasini yukladilar. 1964-

yili «O'rta Osiyoning o'rta asr shishalarini kimyoviy-texnologik tadqiq etish» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi va texnika fanlari nomzodi ilmiy darajasini oldi.

1971-yildan boshlab tarixiy yodgorliklarni kimyoviy tadqiq etish va tamirlash bo'limi tashkil etilib A.Abdurazzaqov unga rahbar etib tayinlandi.

A.Abdurazzaqov ilmiy faoliyati O'zbekistonda birinchi bo'lib arxeologiyaga tabiiy fanlar usullarini qo'llash bo'ldi va bu ijtimoiy fanlarda yangi yo'nalish edi. Olimning izlanishlari o'zbek arxeologiyasida quyidagi dolzarb masalalarni o'z ichiga oladi:

1. Arxeologiya topilmalarini saqlash va tamirlash.
2. Loy tuproqdan qurilgan obida va inshootlarni saqlab qolish usullarni yaratish va ochiq osmon ostidagi muzeylarni bunyod etish.
3. Me'moriy obidalarni qurilish materiallarini yaratilish usullarini o'rganish va texnologiyalarini qayta tiklash.
4. Moddiy va madaniy yodgorliklarni tamirlash va saqlash usullarini yaratish.
5. O'rta Osiyo hunarmandchilik sohalarni tarixini va rivojlanish bosqichlarini o'rganish.

A.Abdurazzakov uchta fan nomzodi va 15 dan ortiq tamirchi mutaxassislarga ustoz bo'lgan. Ular respublikamizdan tashqari Afg'oniston, Qozog'iston va Tojikiston muzeylarida ish olib bormoqdalar.

A.Abdurazzakov 150 dan ortiq ilmiy va ilmiy-ommabop ishlar muallifidir. Ular o'zimizning va xorijda nufuzli nashrlarda chop etilgan (A.Abdurazzaqov, M.A.Bezborodov, Yu.A.Zadneprovskiy. Steklodelie Sredney Azii v drevnosti i srednevekovye. Tashkent. 1963 y.).

Arxeolog-olim, akademik Ahmadali Asqarov.

Ahmadali Asqarov 1935-yilning 25-sentyabrida Namangan viloyati Norin tumanidagi Uchtepa qishlog'ida oddiy dehqon oilasida tavallud topgan. 1953-yili Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika institutini tugallagan. Talabalik yillarida Yahyo G'ulomovdan eshitgan maruzalari tufayli Ahmadali Asqarovda tarix va arxeologiyaga qiziqish ortdi.

Ahmadali Asqarov Buxoro, Qarshi, Surxon cho'llarida, Toshkent va

Farg'ona vohalaridan tortib to uzoq Sibir kengliklarigacha bo'lgan xududlarda ko'plab arxeologik izlanishlar olib borgan fidoiy tadqiqotchi hamdir. U Boyko'l (Baykal), Krasnoyarsk, Mohindaryo, Janubiy Turkmaniston arxeologik ekspeditsiyalarining ilmiy-tadqiqot ishlarida faol qatnashdi.

Ahmadali Asqarovning ilmiy va ilmiy - pedagogik faoliyatini rivojlanishiga O'zbekiston Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti tarkibida olib borgan faoliyati katta rol o'ynadi. Ayniqsa 1970-yilda davlat qarori bilan Respublika Fanlar akademiyasi tarkibida Arxeologiya institutining tashkil etilishi va bu institutni tashkil etishni A.Asqarov zimmasiga yuklatilishi A.Asqarovning keyingi ilmiy-tashkiliy faoliyatiga katta tasir etdi. Arxeologiya institutini Samarqand shah'rida ochilganligi tufayli ilgari Toshkent shah'rida ishlab kelgan bir qancha arxeolog ilmiy xodimlar oilaviy sharoitlari tufayli Samarqand shahriga kelaolmadilar, Bunday sharoitda A.Asqarovning juda katta sa'y-harakatlari bilan Respublikaning turli oliy o'quv yurtlarini tugallagan yoshlarni Moskva va Leningradning yirik arxeologlari qo'llarida nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilish uchun o'nlab mutaxassislarni yuborish imkoniyatini topdi.

A.Asqarov Samarqanddagi yangi Arxeologiya institutini tashkil etishdagi turli murakkab masalalar bilan birga o'zining ilmiy ishlarini ham birga olib bordi. Surxondaryo viloyatining Surxon - Sherobod cho'llarida Sopolli madaniyatiga doir bir qancha yodgorliklar topib, ularning ilmiy natijalari A.Asqarovni nomini mashxur qilishda juda katta rol o'ynadi. Uning faoliyatini asosiy natijalari quyidagi yirik ilmiy yo'nalishlarga bo'linadi.

1. O'rta Osiyoning bronza va ilk temir davri tarixi va madaniyati masalalari;
2. Qadimgi shahar madaniyatining shakllanishi va ilk davlatchilik masalalari;
3. O'zbek xalqining kelib chiqishi tarixi muammolari;
4. Arxeologiya fanining ilmiy-uslubiy va nazariy asoslari;
5. Ko'p jildli fundamental tarixiy asarlarni yaratishdagi ishtiroki;
6. Oriylar muammosi va o'zbek milliy kurashi tarixi;
7. İlk zardushtiylikning arxeologik materiallarda aks etishi;
8. Akademik A.Asqarovning ilmiy-tashkiliy va pedagogik faoliyati. Yuqorida keltirilgan yo'nalishlardan ko'rinib turibdiki, Ahmadali Asqarov xalqimiz tarixi va

arxeologiyasi bo'yicha juda yirik ishlarni qilgan.

Arxeolog-olim, akademik Yuriy Fedorovich Buryakov.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi, tarix fanlari doktori, professor Yu.F.Buryakov 1934-yili Qirg'iziston Respublikasining Ush viloyagi Uchqo'rg'on qishlog'ida xizmatchi oilasida tug'ilgan. 1948-yili oila a'zolari bilan Toshkentga ko'chib keladilar va 1951-yili o'rta maktabni oltin medal bilan bitiradi hamda shu yili O'rta Osiyo Davlat universitetining tarix fakultetiga o'qishga kirdi. Bu erda mashhur arxeolog M.E.Masson qo'lida bilim olib tarbiya topadi.

1956-1965 yy. O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyida ishlaydi. Ko'plab arxeologik ekspeditsiyalarda faol qatnashadi. Ayniqsa UzRFA Tarix va arxeologiya institutining O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyi bilan birgalikdagi ekspeditsiyasida ishlar salmoqli bo'ldi. Natijada «Gornoe delo i metallurgiya srednevekovogo Ìlaka V - nachalo XIII vv.» monografiyasi nashr etildi.

Yu.F.Buryakovning yana bir muhim ishlaridan biri arxeologiya yodgorliklarini saqlash va yangi o'zlashtiriladigan yerlarda himoya ishlarini olib borishdir. Arxeologiya fanini tashkil etish va rivojlantirishda ham olimning xizmatlari kattadir. 1970-yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasi tarkibida yangi Arxeologiya institutini Samarqandda tashkil etilishi munosabati bilan uning tashkiliy ishlarida aktiv qatnashadi. 1970-1973 yy. Arxeologiya instituti ilmiy kotibi, 1973-1979 yy. Bo'lim boshlig'i, 1979-1993 yy. Direktor o'rinbosari lavozimlarida ishladi. Dastlab Choch-Ìloq, keyinroq, Choch -Ustrushona arxeologiya ekspeditsiyalari ishlarini tashkil etish va muvofiqlashtirishda ustozning ro'li kattadir. «Arxeologicheskie pamyatniki Tashkentskoy oblasti», «Drevnosti Charvaka», «Ìstoricheskaya topografiya drevnix gorodov Tashkentskogo oazisa», «Drevnosti Tuyabutuza» kabi kitoblarning nashr etilishi shu ishlarnig hosilasidir. Bu kitoblar mutaxassislar tomonidan iliq kutib olindi.

Yu.F.Buryakovning ilmiy qarashlarida shaharsozlik (urbanizatsiya) muammolari asosiy o'rin tutadi. Olim birinchi bor yodgorliklarni o'rganishda sistemali yondoshish usuli bilan Sharqiy Movarounnahr xududini tah'lil etib yirik fundamental ish yaratdi. Bular barchasi olimning «Genezis i etapi razvitiya gorodskoy kulturi Tashkentskogo oazisa» monografiyasida o'z aksini topgan.

Yu.F.Buryakov ijodida arxeologiya fani nazariy asoslari va uslubiy tizimlari masalasi ham muhim ahamiyatga egadir. Ana shu yo'nalishda tadqiqotchining ishlanmalari «Teoreticheskie i metodologicheskie problemi issledovaniya v arxeologii» kollektiv monografiyasi diqqatga loyiqdir. Olim o'z turmush o'rtog'i E.Yu.Buryakova bilan birgalikda Afrosiyob-qadimgi Samarqandni o'rganishda ham katta xizmatlar qilgan.

1985-yili urbanizatsiya muammolariga bag'ishlangan turkum ishlari uchun Abu Rayxon Beruniy nomidagi Respublika Davlat mukofotini olgan. Yu.F.Buryakov sermahsul ijodkor bo'lib, 700 ga yaqin ilmiy, 10 ta monografiya va bir necha yuz ommabop maqolalar e'lon etgan. Olim keng miqyosda ilmiy pedagogik faoliyat ham olib boradi. O'zbekiston Milliy universiteti arxeologiya kafedrasida professori, 20 dan ortiq nomzodlik dissertatsiyalariga ilmiy rahbarlik qilgan.

Yu.F.Buryakov ilmiy ishlari nafaqat mamlakatimizda balkim ko'plab xorijiy mamlakatlarda ham tan olingan. Germaniya, Frantsiya mamlakatlarida YUNESKOning ko'plab seminarlarida maruzalar bilan chiqish qilgan. Germaniya Arxeologiya institutining xorijiy muhbir a'zosi etib saylangan.

Professor Mavlon Jo'raqulovich Jo'raqulov.

M.J.Jo'raqulov 1932-yil 9-mayda Samarqand viloyatining Bog'ojot qishlog'ida dehqon oilasida tug'ildi. O'rta maktabni tamomlagandan keyin 1955-1960-yillarda Samarqand Davlat universitetining talabasi, 1955-1960-yillari Tarix fakultetning jamoat ishlari, 1960-1963-yillari SamDU aspiranturasiga kirib, 1966-yilda «O'rta Osiyoning tosh davri tarixshunosligi»ni o'rganilishi mavzuida nomzodlik, 1992-yilda «Zarafshon havzasi tosh asri madaniyati» mavzuida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

M.J.Jo'raqulov 1960-yillardan boshlab uzoq yillar davomida Ohalik, Sazag'on, Zirabuloq, Qo'tirbuloq, Chashma, Olmabuloq, Qorakamar, Samarqand kabi qadimgi manzilgohlarda, 1967-1971-yillarda Afrosiyob harobalarida arxeologik izlanishlar olib borib, yurtimizning ibtidoiy davr tarixi va madaniyatini o'rganishga ulkan hissa qo'shdi.

Afrosiyobni o'rganish bo'yicha tashkil qilingan muammoviy laboratoriya va ekspeditsiya olib borgan izlanishlar IX-XI asrlar tarixi, fani va madaniyatiga, qurilish va memorchilik, shaharshunoslik, kommunikatsiya, hunarmandchilik,

kulolchilikka oid katta ilmiy ahamiyatga molik bo'lgan ashiyoviy dalillar to'pladi. Aynan shu laboratoriya keyinchalik SamDUdagi Arxeologiya kafedrasini ochilishiga sababchi bo'ldi. Hozirgacha ishlab kelayotgan arxeologiya kafedrasida juda ko'plab bakalavr, magistr diplomli mutaxassislar, hamda kafedradagi aspirantura malakali olimlarni etkazib beradigan markazga aylandi.

Domla Mavlon aka Jo'raqulovning ijodini yarmidan ko'p qismini pedagogik faoliyat tashkil qiladi. U juda ko'plab shogirdlarni tarbiyaladi. Davlatimiz tomonidan ham M.Jo'raqulovning mehnatlari munosib baholandi. Jumladan 1970-yilda «Shavkatli mehnati uchun» medali, 1982-yilda O'zbekiston respublikasida xizmat ko'rsatgan xalq talimi xodimi», 1988 y. Akademik N.A.Pelyugin medali bilan, 1992-O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi kunining bir yilligi munosabati bilan «Mustaqillik» esdalik nishoni berildi. Yuqoridagilardan tashqari M.J.Jo'raqulov ko'p yillar davomida SamDUning rektori, Arxeologiya kafedrasining mudiri, professori lavozimlari, Universitet va shaharning juda ko'plab jamoa ishlarini bajarib kelgan.

Arxeolog-olim, akademik O'tkir Islomov.

O'tkir Islomov 1932-yilda Toshkent shahrida, ziyoli o'qituvchilar oilasida tavallud topdi. Uning otasi Ismoilov Islom O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi, onasi Ismoilova Habiba mohir pedagog, tarbiyachi bo'lib, bo'lajak olimni ilmga qiziqqan inson sifatida tarbiyalashda muhim o'rin egallaydi.

Oiladagi yuksak manaviy muhit yosh O'tkir Islomovni 1947-yili Toshkent pedagogika bilim yurtiga yetaklaydi. 1951-yilda bilim yurtini tugallagandan keyin 1952-1956-yillari Toshkent Davlat pedagogika institutini imtiyozli tugatgandan keyin mutaxassis sifatida Toshkent viloyati Qorasuv tumanidagi 14 maktabda o'qituvchilikdan boshlaydi. Lekin talabalik yillarida taniqli olim Yahyo G'ulomovdan tinglagan maruzalari, u kishi bilan bo'lgan muloqotlari unga tinchlik bermay Respublika Fanlar Akademiyasining tarix va arxeologiya institutida katta faoliyat olib borayotgan Yahyo G'ulomov qo'l ostiga laborantlik lavozimida o'zining mehnat faoliyatini boshlaydi.

O'tkir Islomovning keyingi ilmiy faoliyati hozirgi Sankt Peterburg, o'sha payitlardagi Leningrad shahridagi SSSR Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti Leningrad bo'limida mashhur arxeolog, akademik A.P.Okladnikov rahbarligida

aspiranturada nomzodlik dissertatsiyasini yozadi. Bu yerda o'z davrining eng yirik qadimshunos olimlari - M.M.Gerasimov, M.P.Gryaznov, S.A.Semenov, P.İ.Boriskovskiy, B.P.Piotrovskiy, N.N.Gurina, V.M.Masson kabi o'z davrining yirik olimlari bilan kundalik muloqotda bo'ladi va arxeologiya fanining eng nozik qirralarini o'rganishda bu olimlarning bergan saboqlari juda katta bo'ldi.

O'tkir Islomov 1963-yili Leningradda «Quyî Zarafshonning neolit davri madaniyati» mavzuida nomzodlik dissertatsiyasini tayyorlab uni himoya qildi.

Arxeolog sifatida uzoq yillik faoliyati davomida O'rta Osiyoning barcha tog'lari, vohalari, Rossiyaning g'arbiy chekkalaridan Uzoq Sibirning kengliklarigacha bo'lgan yerlaridagi tosh davri arxeologik obidalarda olib borilgan qazishmalarda qatnashdi. So'x vohasining yuqori oqimida joylashgan Selungur g'orida olib borilgan arxeologik izlanishlar juda mavffaqiyatli bo'ldi. Bu erda bundan 1 mln. 200 ming yil ilgari yashagan odamning qoldiqlari topilib, O'rta Osiyoda insoniyatni kelib chiqishi va uning rivojlanishi borasidagi fikrlariga yangi yo'nalishni berishga muvaffaq bo'ldi.

Uning So'x vodiysida mezolit davriga oid obishir madaniyatini topishi va bu qabilalarning yana bir qismi Markaziy Farg'ona yerlarida ham yashaganligini ko'rsatuvchi yangi yodgorliklarni topdi va bu uning doktorlik dissertatsiyasiga asos bo'ldi.

O'tkir Islomovning ko'p yillik ilmiy izlanishlari uning 8 ta yirik monografik asar va 150 ortiq ilmiy, ilmiy –ommabop ishlarida o'z aksini topgan. Bu monografiya va maqolalar diqqat qilinib ko'rilsa, bular 4 ta katta ilmiy yo'nalish bo'yicha umumlashtirish mumkin.

1. O'rta Osiyoda odamning paydo bo'lishi va paleoekologik sharoit;
2. Mezolit davri odamlarining moddiy madaniyati va turmush tarzi;
3. O'zbekistonning neolit davri jamoalari va ularning madaniy aloqalari.
4. Ilmiy-pedagogik ishlar.

Shunday qilib, akademik O'tkir Islomov o'zining uzoq yillik mehnat faoliyati davomida faqat O'zbekiston xududidagina emas, balki butun O'rta Osiyo xududida yashagan ibtidoiy ajdodlarimizni hayoti va moddiy madaniyatini o'rgangan, o'z faoliyati davomida juda ko'plab shogirdlar chiqargan olim, xalqaro O'zbekiston-Rossiya ekspeditsiyasining rahbaridir.

Arxeolog-olim Muhammadjon İsomiddinov.

Tarix fanlari doktori, professor Muxammad Hasanovich İsomiddinov 1943 yili Farg'ona viloyatining Farg'ona tumanidagi Qo'chqorchi qishlog'ida tug'ilgan.

1962-yili o'rta maktabni tugatgan. 1963-1968 yy. Farg'ona Davlat pedagogika institutining tarix-geografiya fakultetida tahsil olgan. O'z faoliyatini universitetni geografiya fakultetida o'qituvchi, laborant vazifalarida ishlashdan boshladi.

1971-yildan O'zRFA Arxeologiya institutiga stajer-tadqiqotchi bo'lib ishga o'tdi. 1973-1978 yy. SSSR FA Arxeologiya instituti Leningrad bwlimida (hozirgi Moddiy madaniyat instituti) avval stajer-tadqiqotchi, so'ngra aspiranturani o'tadi. 1979 yili «Janubiy Sug'dning antik va o'rta asrlaridagi kulolchilik tarixi» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya etdi. 2000-yili «Samarqand Sug'dida shahar madaniyatining genezisi» mavzuida doktorlik dissertatsiyasini himoya etdi.

M.X.İsomiddinov rahbarligida Sug'dning Yerqo'rg'on, Afrosiyob va Ko'ktepa arxeologik yodgorliklarida keng qamrovli arxeologik qazishmalar o'tkazilgan. Bir necha olamshumul kashfiyotlar qilgan olimlardan biridir. M.X.İsomiddinov tomonidan bir necha fundamental monografik tadqiqotlar e'lon etilgan (İsamiddinov M.X., Suleymanov R.X., Erkurgan. Tashkent. 1984). Ayniqsa M.X.İsomiddinov boshqargan O'zbek-Fransuz qo'shma ekspeditsiyasining Afrosiyobda va Ko'ktepadagi ilmiy izlanishlari muvaffaqiyatli bo'ldi. Ko'p yillik izlanishlar samarasi bo'lib yirik monografik tadqiqot «İstoki gorodskoy kulturi Samarkandskogo Sogda» nashr yuzini ko'rdi. Bu xududdagi shaharsozlik madaniyati va davlatchilik asoslari haqida yangi fikrlar bildirildi va ushbu xulosalar ilmiy jamoatchilik tomonidan quvvatlandi. Masalan, Samarqand quyi qatlamlarini 2750 yilligini, Ko'ktepaning esa «Avesto» davriga borib taqalishi ilmiy isbot etib berildi.

1985-yili M.X.İsomiddinov bir guruh olimlar bilan urbanizatsiya jarayonlarini o'rganishdagi katta xizmatlari uchun fan va texnika sohasidagi Abu Rayxon Beruniy nomidagi Respublika mukofotini olishga muvaffaq bo'ldi.

2003-yili «Mehnat shuhrat» ordeni bilan mukofotlangan. Bundan tashqari 200 dan ziyod ilmiy ishlar, jumladan 3 ta monografiya muallifidir. Jahonning ko'plab,

xususan Fransiya, Italiya, Germaniya, Rossiya mamlakatlaridagi ilmiy anjumanlarida qilgan maruzalari e'tiborga sazovor bo'lgan. Shaharsozlik madaniyati, davlatchilik munosabatlari, ilk temir va antik davrlari, hunarmandchilik tarixi bo'yicha yirik taniqli mutaxassis.

Tarix va Arxeologiya institutlari qoshidagidagi tarix fanlari doktori ilmiy darajasini beruvchi Maxsus Ixtisoslashgan Kengashlar a'zovidir.

Arxeolog-numizmat, olim Boris Dmitrievich Kochnev.

Arxeolog va mashh'ur numizmat B.D.Kochnev 1940-yilda Moskva oblastining Kostino shahrida jurnalist oilasida tug'iladi. 1946-yilda ularning oilasi Frunze (hozirgi Bishkek) shahriga ko'chib o'tgan. Uning ilk arxeologiyaga bo'lgan qiziqishi maktab o'quvchilari bilan birgalikda Issiqko'l arxeologik otryadi tarkibida qoyatoshlarga bitilgan suratlarni ko'rgani borishgandan keyin boshlandi. 1958-yilda o'rta maktabni tugallagandan keyin Qirg'iziston Davlat Universitetiga o'qishga kiradi. Ammo bu erda u sevgan arxeologiya mutaxassislarini tayyorlash kurslari yo'qligi tufayli u o'zining o'qishini Toshkent Davlat universitetining tarix fakultetiga o'tkazdiradi, chunki bu erda arxeologiya ixtisosli mutaxassislarni tayyorlanar edi. Universitetda M.E.Masson dars berganligi uchun ham uning qiziqarli maruzalari B.D.Kochnevda arxeologiyaga bo'lgan qiziqishni yanada oshirdi. Shuningi uchun uning kelgusidagi ilmiy ishini mavzusini ham M.E.Masson bilan hamkorlikda tanlanib, uning rahbarligida amalga oshirildi. 1971-yilda «Nomozgoh'larning O'rta Osiyodagi feodal shaharlari topografiyasida tutgan o'rni» mavzuidagi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qiladi. Uning bu dissertatsiyasini paydo bo'lishida juda ko'plab Qarshi, Kasbi, Koson, G'uzor, Marv kabi shaharlarda saqlanib qolgan nomozgoh masjidlarida olib borilgan arxeologik izlanishlarning ilmiy-tahliliy natijalari o'zining ijobiy natijalarini berdi.

1971-yildan B.D.Kochnev O'zbekiston Fanlar akademiyasi Arxeologiya iistitutiga ishga o'tib, bu erda umrining oxirigacha ishlab qoladi. Bu institut tarkibida ishlar ekan, Samarqand, Buxoro va ayniqsa Qashqadaryo voh'alarining arxeologik obidalarini o'rganish bo'yicha katta arxeologik qazishmalarda ishtirok etdi. Jumladan 1976-1977-yillarda Qarshi voh'asidagi Tallisortepada (o'rta asr manbalarida G'ubdin) arxeologik izlanishlar olib bordi. Bu yodgorlikda ilk o'rta asrlarga xos bo'lgan olovga bag'ishlangan ibodatxona ochib o'rganildi. İlk o'rta

asrlar hunarmandchiligiga doir juda ko'plab sopol, shisha, ganch kabi ko'plab buyumlar topib o'rganildi.

B.D.Kochnevning arxeolog sifatidagi hayotining ikkinchi yarmini numizmatixa yo'nalishi egallaydi. U hali Frunzedagi Tarix muzeyining direktor o'rinbosari lavozimida ishlab yurgan paytidayoq qo'liga tushib qolgan tanganing yozuvlarini o'qishga harakat qiladi, hamda shu kundan arab alifbosini o'rganishni boshlaydi. Samarqanddagi Arxeologiya institutiga ishga o'tgandan keyin B.D.Kochnev to'liq qoraxoniylar davrining sulolalari, ularning siyosiy tarixini numizmatik materiallarga qarab o'rganishni juda ham katta ishtiyoq bilan bajardi va o'rta asr numizmatik materiallarini o'rganish bo'yicha eng yirik mutaxassis darajasiga erishdi. Bu ishlarning natijasi o'laroq 1993-yilda u «Qoraxoniylar davri tangalari: manbashunoslik va tarixiy o'rganish» mavzuidagi tadqiqoti uning shu davrni o'rganish bo'yicha yirik ishi bo'lib qoldi.

1994-yilda B.D.Kochnev Frantsiyaning Druen nomidagi mukofotining sovrindori bo'lgan. Uning qisqa umri juda sermahsul bo'ldi. Yaqin 200 dan ortiq ilmiy va 200 ga yaqin ilmiy ommabop maqolalari va shogirdlari B.D.Kochnevning O'zbekistonda arxeologiyani rivojlantirishdagi hissasi bo'lib qoladi.

Arxeolog-olim Boqijon Matboboev

İqtidorli arxeolog va tarixchi, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Arxeologiya institutining bo'lim boshlig'i B.H.Matboboev 1955-yilning 25-avgustida Andijon viloyati İzboskan tumanining To'rtko'l qishlog'ida oddiy dehqon oilasida dunyoga keldi. O'rta maktabni tugallagandan keyin Andijon Davlat universiteti tarix fakultetini 1977-yilda tugalladi. 1979-yildan boshlab O'zbekiston Fanlar akademiyasi Arxeologiya institutiga ishga kiradi. 1985-yilda SSSR Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti Leningrad bo'limida «Chust madaniyatining lokal variantlari» mavzuidagi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qiladi.

1986-yildan hozirgi paytgacha B.Matboboev O'zbekiston Fanlar akademiyasi Arxeologiya institutida avval katta ilmiy xodim, etakchi ilmiy xodim va hozirda bo'lim boshlig'i lavozimlarida ishlab kelmoqda. Shu paytgacha Farg'ona vodiysi qadimgi va ilk o'rta asrlar arxeologiyasini rivojlantirishga o'zining juda katta hissasini qo'shib kelmoqda. Ayniqsa o'rta asrlarga taluqli

yodgorlik Quvada, Andijon shahri xududida olib borgan izlanishlari juda katta ahamiyatga ega bo'lgan natijalarni bergan bo'lsa, Andijon va Namangan viloyati xududida olib borgan razvedka ishlari juda ko'plab yangi yodgorliklarni topilishiga, va ayniqsa butun vodiyni arxeologik jihatdan qayta rayonlashtirish ishlariga katta foydasi tegdi.

B.H.Matboboevning ilmiy faoliyatini butun dunyoga yoyishda Pop tumanidagi Mo'nchoqtepa yodgorligida olib borgan ilmiy izlanishlari katta o'rin egallaydi. Bu yodgorlikda O'rta Osiyo arxeologiyasi tarixida birinchi marta ilk o'rta asrlarga oid qamishdan yasalgan tobutlarga qo'yilgan xilxonalar topilgan bo'lib, ularga qo'yilgan paxta va ipak matolar, yog'och buyumlar, turli novdalardan to'qilgan savatlar yaxshi saqlanib qolgan edi. Bu narsa O'rta Osiyo arxeologiyasi tarixida birinchi marta xo'jalikda ishlatilgan va shu kungacha ko'pchilikka ma'lum bo'lmagan buyumlarning turlari, hunarmandchilikning noma'lum sohalarini anglab yetishga imkon berdi.

B.X.Matboboevning Farg'onaning ilk o'rta asrga oid yodgorliklarida olib borgan ilmiy izlanishlarining natijalari uning 2009-yilda himoya qilgan «Farg'onaning ilk o'rta asrlar madaniyati (V-VIII asrlarga oid arxeologik manbalarni tarixiy talqini) mavzuidagi doktorlik dissertatsiyasi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu dissertatsiyada to'plangan asosiy ilmiy g'oyalar B.Matboboevning o'zbek, rus, ingliz va xitoy tillarida chiqarilgan 8 ortiq monografiyasida, 200 dan ortiq ilmiy va ilmiy ommabop maqolalarida o'z aksini topgan.

B.H.Matboboev katta ilmiy va ilmiy pedagogik ishlarni olib borish bilan birga ilmiy-tashkiliy ishlarni ham olib bormoqda. Arxeologiya institutida doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilish Kengashining azosi, «O'zbekiston moddiy madaniyati tarixi» to'plami, «O'zbekiston arxeologiyasi» jurnali, «O'zbekistonda arxeologik tadqiqotlar» to'plamlarining tah'ririya a'zosi.

B.H.Matboboev keyingi yillarda Xalkaro Bobur fondi uyushtirgan sohibqiron Amir Temurning Oltin o'rda xonligi va To'xtamishxonga qarshi qilgan janrlarini o'rganish uchun Qozog'iston va Rossiya xududlaridagi yodgorliklarni o'rganish uchun uyushtirilgan ekspeditsiyalarida ham aktiv qatnashib kelmoqda.

2012-yildan boshlab Farg'ona vodiysi tarixi va moddiy madaniyatini o'rganish bo'yicha tashkil etilgan O'zbekiston-Xitoy ekspeditsiyasining

O'zbekiston tomonidan boshlig'idir.

B.H.Matboboev kelgusidagi ilmiy faoliyatida ham yanada katta muvaffaqiyatlarga erishadi va bu bilan O'zbekiston arxeologiyasini yanada rivojlantiradi degan umiddamiz.

Arxeolog-olim Turg'unboy Mirsoatov

Arxeolog-olim Turg'unboy Mirsoatov Toshkent 1934-yilning 31-martida shahrining Qoratosh mahallasida tug'ilgan. O'rta maktabni tugallagandan keyin 1952-yili Nizomiy nomidagi pedagogika institutining tarix fakultetiga o'qishga kirib, 1956-yilda uni 1956-yilda muvaffaqiyatli tugallaydi. Ish faoliyatini Marg'ilonda o'rta maktab o'qituvchisi lavozimidan boshlagan. 1964-1967-yillarda SSSR Fanlar akademiyasi Arxeologiya institutini Leningrad bo'limidagi aspiranturaga kiradi va 1970-yilda «Neolit davrida Uchtut konlari» mavzuida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

1970-1988-yillar mobaynida O'z.FA ning Samarqanddagi Arxeologiya institutida ishlaydi va hozirgi Navoiy viloyatidagi Uchtut konlarini qaziydi. Ko'p yillik Uchtut konlaridagi qazishmalar o'zining natijasini berib, birinchi marta neolit davri jamoalarining tosh davridayoq shaxta usulida tosh qurollari tayyorlash uchun xomashyo olganliklarini aniqladi.

T.Mirsoatovning 1989-yilda himoya qilgan doktorlik dissertatsiyasi aynan neolit va mezolit jamoalarining xo'jaligini o'rganishga bag'ishlangan edi.

1989-yildan boshlab T.Mirsoatov ilmiy-pedagogik faoliyatini Farg'ona Davlat universitetini tarix kafedrasida davom ettiradi. U o'zining hayoti davomida ikkita yirik monografiya, yuzdan ortiq ilmiy maqolalar, shulardan bir nechtasi Yevropaning Parij, Berlin va Varshava nashriyotlarida chop etilgan, u tayyorlagan juda ko'plab shogirdlari mamlakatimizning ilmiy tekshirish institutlarida, oliy va o'rta maxsus talimi tizimida, o'rta maktablarda faoliyat yuritib kelmoqdalar.

Sharqshunos-arxeolog, akademik Abdulah'ad Muh'ammadjonov

Akademik Abdulah'ad Rah'imjonovich Muh'ammadjonov 1928-yil 26 - dekabrda Toshkent shahrida ziyoli oilasida tug'iladi. O'rta maktabni bitirgach Toshkent Davlat universitetining sharqshunoslik fakultetini 1951-yilda muvaffaqiyatli tugallaydi va O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik

institutiga aspiranturasiga o'qishga kiradi. 1955-yildan O'zbekiston Fanlar akademiyasini Tarix muzeyida ishni boshlab, 1956-68-yillarda O'zbekiston FA Tarix va arxeologiya institutining ilmiy xodimi, 1968-70-yillarda shu institutning ilmiy xodimi vazifasida ishlaydi.

1970-yildan boshlab O'zbekiston Fanlar akademiyasi tarkibida mustaqil Arxeologiya institutini tashkil etilishi munosabati bilan Abdulah'at Rah'imjonovich Muh'ammadjonov ham Toshkentdan Samarqandga ko'chib keladi va Arxeologiya institutining «O'zbekistonning sug'orilishi tarixi» sektorining mudiri vazifasida ishlash bilan birga Buxoro vohasi arxeologik yodgorliklari, shu jumladan sug'orish inshootlarini, irrigatsiya sistemasini o'rganish bilan shug'ullanadi. Buxoro vohasida olib borgan arxeologik va etnologik izlanishlari natijasi o'laroq «Quyil Zarafshon vohasining sug'orilishi tarixi (qadim zamonlardan to XX asrning boshlarigacha)» mavzusiga bag'ishlangan yirik ilmiy ish doktorlik dissertatsiyasini yozib tugallaydi va muvaffaqiyatli himoya qiladi.

A.R.Muh'ammadjonov ko'p yillik samarali ijodi davomida O'rta Osiyo tarixini chuqur va mukammal o'rganar ekan, sharqshunos sifatida juda ko'plab manbalarni, atamalarni topishga va undan juda ham unumli foydalanish imkoniyatlarini qidiradi. O'zining ustozlari Ya.G'.G'ulomov izidan borib, juda ko'plab irrigatsiya inshootlaridan qanday foydalanganliklarini bilish uchun etnografik ma'lumotlardan unumli foydalanishga harakat qiladi va bizningcha buning natijalari ancha muvaffaqiyatli chiqqan.

Domlaning to'plagan tajribasini uning juda ham ko'plab shogirdlari davom ettirmoqdalar va uning ilmiy salohiyatini uning akademik degan unvoni yaqqol dalil bo'lib turibdi.

Arxeolog-numizmat olim, akademik Edvard Vasilevich Rtveldze

O'zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi, Markaziy Osiyo va uning atroflari xalqlari tarixi, arxeologiyasi, numizmatikasi, madaniyati, san'ati bo'yicha yirik olim.

U 1942-yilda Gruziyaning Borjomi shahrida tug'ildi. Toshkent Davlat universitetining arxeologiya kafedrasini tugallagandan keyin M.E.Masson rahbarligida «Shimoliy Kavkazning shahar madaniyati tarixi va uni O'rta Osiyo

bilan aloqalari» mavzuida nomzodlik dissertatsiyasini, 1989-yilda esa, «Qadimgi Baqtriya-Toxariston. Tarixiy-madaniy rivojlanishning dinamikasi» mavzuidagi doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

1980-yillardan shimoliy Baqtriyaning Kampirtepa yodgorligida boshlangan qazishma ishlarini davom ettirib, 1990-yildan E.V.Rtveladze Toxariston arxeologik ekspeditsiyasini tashkil etadi. Bu yodgorlikni O'rta Osiyo arxeologik yodgorliklarini o'rganish tarixida birinchi marta qadimgi obidaning yuqori qatlamini to'liq ochishga muvaffaq bo'ldi. E.V.Rtveladze o'zining ustozlari M.E.Masson va G.A.Pugachenkova an'alarini davom ettirib, yoshlar ichidagi iqtidorlilarini tanlab, ularni kelgusidagi ishlariga ustozlik qilmoqda. Uning shogirdlari orasida faqat bizning vatanimiz xududidagina emas, balki jahonning Gretsiya, Isroil, AQSh, Frantsiya, Kanada, Rossiya kabi mamlakatlarida ijod qilib kelmoqdalar. U shu kunga qadar 20 dan ortiq monografiya, 600 dan ortiq ilmiy maqolalari tarix, arxeologiya, numizmatika, madaniyat tarixi, tovar-pul munosabatlariga bag'ishlangan bo'lib, bu ishlarning juda ko'pchiligi AQSh, Frantsiya, Yaponiya, Rossiya kabi mamlakatlarida chop etilgan. Uning juda ko'plab O'rta Osiyo tarixi va madaniyatining turli sohalariga bag'ishlangan maruzalari jahonning ko'plab ilmiy muassasalari va universitetlari auditoriyalarida tinglangan. U juda katta ilmiy faoliyat olib bormoqda - Oliy attestatsiya komissiyasi Prezidiumining a'zosi, ko'plab ilmiy jurnallar - Fan va turmush, O'zbekistonda ijtimoiy fanlar, O'zbekiston tarixi, San'at kabi jurnallar hayat kengashining a'zosi, juda ko'plab ilmiy kitoblarga redaktorlik qilgan, ko'plab dissertatsiyalar himoya kengashlarining a'zosi.

E.V.Rtveladzening xizmatlari davlat mukofotlari bilan qadrlangan. 1985-yilda Abu Rayxon Beruniy nomidagi Davlat mukofotining sovrindori, 2001-yilda «Buyuk xizmatlari uchun» ordenining sohibi, Gruziya Respublikasining «Girdebis ordeni» sohibi, 1999-yilda Badiiy Akademiyaning oltin medali sohibi, 2001-yilda E.V.Rtveladzening «Velikiy Shelkovqy put» kitobi O'zbekiston Fanlar akademiyasining «Ijtimoiy fanlar ichidagi yilning eng yaxshi asari» degan diplomga sazavor bo'lgan.

E.V.Rtveladze hozirgi payitda ham aqliy, ham ma'lumot jihatdan etilgan payti. Uni mamlakatimiz xalqlari tarixi va madaniyatiga doir juda ko'plab monografiyalar, darsliklar, o'quv qo'llanmalarini yozish, ko'plar shogirdlarni tarbiyalab berishiga

Arxeolog-olima, akademik Galina Alekseevna Pugachenkova

O'zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi G.A.Pugachenkova 1915-yilning 7-fevral kuni Qozog'istonning Olmaota shahrida tug'ilgan. O'rta maktabni bitirgandan keyin O'rta Osiyo industrial institutining arxitektura bo'limiga o'qishga kiradi. Bu institutni tugatgandan keyin esa, institut qoshidagi arxitektura tarixi kafedrasidagi aspiranturada o'qib. 1941-yilda nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli ximoya qiladi. Ancha payitgacha SAGUning arxeologiya kafedrasida ishni boshlaydi, ammo 1958-yildan boshlab G.A.Pugachenkovaning asosiy ish joyi Sanatshunoslik instituti bo'lib qoladi. Bu institut tarkibida 1960-1984-yillarda san'at va arxitektura tarixi bo'limini boshlig'i lavozimida ishlab O'zbekiston san'atshunoslik ekspeditsiyasini boshqarib keldi. 1959-1984-yillarda G.A.Pugachenkova o'zining ijodidagi yirik tadqiqotlarga asos bo'lgan asosiy dala ishlarini bajaradi, O'rta Osiyoning tarixi va arxeologiyasiga doir yirik fundamental asarlarni yaratadi. Shu erda u o'zining doktorlik dissertatsiyasini (1959 y), professor unvonini oladi (1962 y), dastlab O'zbekiston Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi, keyinroq haqiqiy azosi bo'ladi.

Akademik G.A.Pugachenkovaning asosiy ijodiy yo'li shundan iborat, U o'zining oxirgi kunigacha bo'lgan faoliyatida juda ham ko'plab O'rta Osiyo arxitekturasi tarixi, O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi va o'rta asrlardagi sanati mavzularida yirik fundamental asarlar yozgan muallifdir.

Arxeolog-olim, professor Anatoliy Sagdullaev

O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi davr tarixini o'rganish bo'yicha juda katta ishlarni qilgan olimlardan biri Anatoliy Sagdullaev 1951-yilning 15-iyunida Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanida ziyoli oilasida dunyoga keldi.

O'rta maktabni bitirgandan keyin 1968-1973-yillarda ToshDU (hozirgi O'zMU)ning tarix fakultetida tah'sil olgan. U 1973-yildan 1981-yilgacha mazkur o'quv dargohida kichik ilmiy xodim, 1981-1983-yillarda «Etnografiya, qadimgi dunyo va o'rta asrlar tarixi» kafedrasida katta o'qituvchisi, 1983-1987-yillarda ushbu kafedra dotsenti, 1987-1992-yilgacha ToshDU tarix fakultetini dekani lavozimida

ishladi. 1992-1998-yillarda O'zMU tarix fakulteti «O'rta Osiyo arxeologiyasi va etnografiyasi» kafedrasini mudiri, 1998-yildan 1912-yilgacha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi qoshidagi yangi tarixi markazi direktori lavozimlarida ishladi. Anatoliy Sagdullaev o'zining ilmiy-ijodiy faoliyati davomida juda ko'p monografiyalar ilmiy maqolalar, ilmiy ommabop kitoblar yozib, iqtidorli shogirdlar tayyorlab kelmoqda.

Anatoliy Sagdullaev Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida 38 yoshida fan doktori ilmiy darajasini olgan yagona arxeolog olimdir. U kishi ilgari fanga ma'lum bo'lmagan Mo'llali, Mirshodi, Bandixon (Baqtriya), Uzunqir, Daratepa, Sangirtepa (Sugd), kabi yodgorliklarni topgan, o'rgangan va fanga kiritgan amaliyotchi arxeolog. Baqtriyaning ilk temir davri xronologiyasini, shaharsozligini, uy-qo'rg'onlarini, O'rta Osiyoda temirni kashf etilishi va tarqalishi tarixini yoritgan nazariyotchi arxeolog sifatida mashh'ur.

Uning maqolalari ichida akademik E.V.Rtzeladze bilan hamkorlikda yozgan «Sovremennie mifi o dalekom proshlom narodov Tsentralnoy Azii» mavzuidagi maqola Markaziy Osiyo mamlakatlarida bo'layotgan tarixni sohtalashtirish borasidagi ishlarga qaqshatqich zarba bo'ldi. Bu maqola mubolag'asiz davrimizning eng aktual masalalarini ko'targan.

U o'zining ijodiy faoliyatini katta qismini shogirdlar tayyorlashga 'olimlar kattagina miqdorni tashkil qiladi. Bunday olimni mevali daraxtga, aksincha shogirdsiz olimni esa, mevasiz daraxtga qiyoslashadi. Anatoliy Sagdullaevni aynan mevasi ko'p, serhosil daraxtga qiyoslasak tog'ri fikr yuritgan bwlamiz.

Anatoliy Sagdullaevning ilmiy ishlarining umumiy soni 200 dan ortiq, shulardan 20 ortiq o'quv-uslubiy ko'rsatma, oliy o'quv yurtlari tarix fakultetining studentlari uchun darslik, o'quv qo'llanmalari, maktab o'quvchilari uchun darsliklar tashkil qiladi. A.S.Sag'dullaev tarixiy voqealarni badiiy til bilan ko'pchilikka yetkaza oladigan olimdir. Shuning uchun uning bir nechta ilmiy-ommabop kitoblarni keng kitobxonlar ommasi hukmiga xavola qilingan. Arxeolog-olim A.Sagdullaev ijodiy tomondan kuch quvvatga to'lgan payti. Biz undan arxeologiyaning turli qirralarini yoritishda muvaffaqiyatlar tilaymiz.

Arxeolog-olim, professor Rustam Sulaymonov.

O'rta Osiyo xalqlari tarixi va madaniyatini o'rganishda o'zining juda katta mehnatini sarflagan Rustam Hamidovich Sulaymonov 1939-yil 30-mayda Toshkent shahrida o'qimishli intelligentlar oilasida tavallud topdi.

Yoshlik yillari urush va urushdan keyingi qiyinchilik yillariga, Stalin tomonidan uyushtirilgan repressiyalar davriga to'g'ri keldi. 1957-yilda o'rta maktabni tugallagandan keyin Toshkent Davlat universitetining tarix fakultetiga o'qishga kiradi. Usha yillarda tarix fakultetini Arxeologiya kafedrasini O'rta Osiyo arxeologiyasini asoschilaridan biri M.E.Masson boshqarar edi. Studentlik yillari M.E.Masson tomonidan o'qilgan maruzalarni tinglab tarix, san'atshunoslik va ayniqsa arxeologiya fanining o'lkan salohiyatini to'liq tushunib etdi. R.H.Sulaymonov o'zining ilmiy faoliyatini O'zbekiston Fanlar akademiyasi tarix va arxeologiya institutida boshladi. Ya.G'.G'ulomov boshchilik qilgan bir qator ekspeditsiyalarda qatnashdi va arxeologiya faniga bo'lgan qiziqishi yanada ortdi. R.H.Sulaymonovning kelgusida yirik paleolitshunos olim bo'lib yetishishida uni mashhur antropolog olim M.M.Gerasimov bilan tanishishi juda katta rol ynadi.

Bu davrda O'rta Osiyoning anchagina qismida wrta va swnggi tosh davri yodgorliklari anchagina malum edi, ammo ularning moddiy madaniyatini davrlashtirish, madaniy mansubligini aniqlash masalalari o'zining echimini topmagan edi. R.H.Sulaymonov Toshkent viloyatidagi Obirahmat g'orini o'rganish asosida va o'sha davrga oid barcha O'rta Osiyo, Yaqin Sharqdagi muste davri quollarini o'rganish asosida O'rta Osiyoda mustening lokal madaniyatlari bo'lganligini isbotlaydigan nazariyani berdi.

R.H.Sulaymonov arxeologiya tarixida birinchilardan bo'lib tosh quollarini ilmiy o'rganishni uslublarini rivojlantirib, uni o'rganishni matematik uslublarini qo'lladi va bu bilan ilmiy-uslubiy g'oyalari bilan arxeologiyani nazariy qismlarini ham rivojlantirish imkoniyati tug'ildi. Uning bu g'oyalari «Obirahmat g'ori va Obirahmat g'orini matematik-statistik o'rganish tajribasi» mavzuidagi nomzodlik dissertatsiyasi sifatida 1968-yilda yoqlandi va o'sha davrda jahon olimlari orasida yakdillik bilan maqullandi.

R.H.Sulaymonovning o'sha davrdagi qilgan yirik ishini SSSR Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti Leningrad bulkmining mudiri V.P.Boriskovskiyning quyidagi so'zlari diqqatga sazovordir; «butun jahon va

sovet fani paleolit davri qazishmalari va tosh qurollarini o'rganish uslublarini Frantsiyadan o'rganar edi. Ammo R.H.Sulaymonovning monografiyasi chop etilgandan keyin sovet fani frantsuzlarni o'n yilga orqada qoldirib ketdi» degan edi. Bu maqto'v so'zlari bo'rttirilgan emas, balki R.H.Sulaymonovga nisbatan aytilgan iliq samimiy so'zlar edi. Haqiqatdan ham R.H.Sulaymonov o'sha davr uchun mutlaqo yangi bo'lgan va ilmiy jamoatchilik tomonidan maqullangan tosh davri qurollari industriyasini matematik usullar bilan o'rganish usullarini ishlab chiqqan edi.

Samarqandda O'zbekiston Fanlar akademiyasining Arxeologiya instituti ochilgandan keyin R.H.Sulaymonovga yangi yo'nalish, qadimgi va antik davri arxeologiyasini rivojlantirib berish vazifasi yuklanadi. Natijada R.H.Sulaymonov Qashqadaryo va Buxoro vohalarida keng miqyosdagi arxeologik qazishmalarni o'rganishni boshlaydi. Uning ijodini asosiy va katta qismini Qarshi vohasidagi Erqo'rg'on yodgorligida olib borilgan arxeologik qazishma ishlari egallab, bu shaharning strukturasi, stratigrafik qatlamlari, moddiy madaniyati, o'sha davr aholisining hunarmandchiligi, dehqonchiligi, ilohiy tushunchalari bo'yicha yaqin 1500 betdan iborat dissertatsiya (350 bet asosiy dissertatsiya matni va qolgan qismi qo'shimcha sifatida berilgan). Dissertatsiya himoya qilingandan keyin uning to'liq matni «Fan» nashriyotida chop etildi.

R.H.Sulaymonov 1985-yilda Abu Rayxon Beruniy nomidagi Davlat mukofotining sovrindori, 2008-yilda O'zbekiston fan arbobi unvoniga sazovor bo'lgan. R.H.Sulaymonov hozirda Milliy Universitetning arxeologiya kafedrasida yoshlarga tariximizni qadimgi davrlarini chuqur o'rganishni sir-asrorlarini o'rgatmoqda va ularni milliy qadriyatlarimizga nisbatan hurmat va e'tiborli bo'lishga davat qilib kelmoqda.

Arxeolog-olim, professor Temur Shirinov.

Taniqli arxeolog, ilk metallar davri arxeologiyasi (mil avv III-I ming yilliklar) bo'yicha mutaxassis Temir Shirinov 10-mart 1950-yili Jizzax viloyati Forish tumani Qamish qishlog'ida tug'ilgan. Termiz Davlat universitetini tamomlagach O'zRFA Arxeologiya institutini bronza va ilk temir davri bo'limiga ishga kirgan (1972-1975). 1976-yili Leningraddagi Arxeologiya institutiga aspiranturaga kiradi va uni 1980-yili bronza ilk temir davri tosh qurollarini o'rganish mutaxassisligi bo'yicha

nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli tugatadi. 1986-yili shu asosda yirik monografiya e'lon etgan. 1979-1993-yili T.Shirinov Surxondaryo viloyatidagi arxeologik qazishmalarda faol ishtirok etib, Jarqo'ton, Bo'ston, Mo'lali, Kuchuktepa kabi arxeologik yodgorliklarda katta kashfiyotlarni amalga oshirdi. Xususan, 6-tepalikdan ibodatxona va «ark»dan «shohlar saroyi» ochildi hamda arxeologiya fanida katta yangilik sifatida qayd etildi. Olimning doktorlik ishida shaharsozlik madaniyati muammosi keng yoritib berildi. Muhimi shaharsozlik madaniyati va davlatchilik muammolarining eng qadimgi ildizlari, mohiyati chuqur tah'lil etib berildi. T.Shirinov ishlanmalarida «shahar-davlat» nazariyasi rivojlantirildi. «Voh'a davlatchiligi» muammosi Jarqo'ton yodgorligi misolida chuqur yoritib berildi. Qadimgi jamiyatning mafkurasi va diniy tasavvurlari haqida yangi malumotlar qo'lga kiritildi. Masalan, suv va olovning ilohiylashtirilishi, dafn marosimlaridagi yangi urflar yoki ajdodlar ruhiga sig'inish, bazi bir hayvonlarga sig'inish kabi holatlarni keltirib o'tish kerak.

1993-2004-yilari O'zRFA Arxeologiya instituti direktori vazifasida ishlar ekan, qadimshunoslik fani rivojiga salmoqli hissa qo'shdi. Rossiya, Frantsiya, Germaniya, Italiya, Polsha, Yaponiya kabi davlatlar bilan yirik xalqaro qo'shma ekspeditsiyalar tashkil etildi. T.Shirinov rahbarligida va ishtirokida yirik monografik kitoblar o'zbek, rus va ingliz tillarida nashrdan chiqdi: «Arxeologiya drevnego Samarkanda» (2007 g.), «Jemchujina Vostoka» (2007 g.), «Samarkand. 2750» (2007 g.) (prof. M.X.İsamiddinov bilan hammualliflikda). 2001-2010 yillarda T.Shirinov O'z RFA Samarkand bo'limi raisi, 2004-2011-yillari mamlakatimizdagi yirik oliy o'quv yurti -Samarqand Davlat uiversiteti rektori vazifasida ishladi. Bundan tashqari olim yosh kadrlarni tayyorlash borasida ham katta ishlarni amalga oshirmoqda. O'nga yaqin tadqiqotchi T.Shirinov rahbarligida nomzodlik dissertatsiyalarini muvafaqiyatli yoqlab mamlakatimizning turli ilmiy muassasalarida va oliy o'quv yurtlarida ish olib bormoqdalar. « O'zbekistonda ijtimoiy fanlar» «O'zbekiston tarixi-History of Uzbekistan», «Exo istorii», «Tafakkur», «San'at» kabi jurnallarning tah'ririyaat a'zosi.

Tarix fanini rivojlantirishdagi xizmatlari va faol jamaotchilik va ilmiy faoliyati uchun 2001-yili «Mehnat shuhrati», 2009-yili «O'zbekiston Respublikasi fan arbobi» unvoniga sazovor bo'ldi.

Arxeolog-olim Mirvohid Qosimov

Insoniyat tarixini eng qadimgi davrlari bo'yicha yirik mutaxassis, tarix fanlari doktori M.R.Qosimov 1926-yil 31-dekabrida Toshkent shahrida dehqon oilasida tug'ildi. Uning yoshligi urushning qiyin payitlariga to'g'ri kelganligi uchun yetti yillik maktabni tugallab, o'sha maktabning o'zida o'qituvchilik qilishdan boshlaydi. 1949-1954-yillarda O'rta Osiyo universitetining Sharq fakultetini tugallab Toshkent viloyatining O'rtasaroy rayonidagi maktabda o'qituvchilik qiladi. 1957-yildan boshlab esa uning arxeologik faoliyati boshlanadi. U o'zining ishini dastlab O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix va arxeologiya instituti tomonidan tashkil etilgan Yah'yo G'ulomov boshchiligidagi Mohandaryo ekspeditsiyasida laborantlikdan boshlaydi. Ya.G'ulomov M.Qosimovdagi arxeologiyaga bo'lgan qiziqishni sezgandan keyin uni SSSR Fanlar akademiyasi Arxeologiya institutining Leningrad bo'limiga o'qishga yuboradi. Bu institutda M.R.Qosimov o'z zamonasining yirik paleolitshunos olimlari A.P.Okladnikov, P.I.Boriskovskiy, N.N.Gurina, Z.A.Abramova, L.Ya.Krqjevskaya, A.N.Rogachev, V.M.Masson, S.A.Semenov va boshqalar bilan tanishdi va juda ko'p martalab bo'lgan ko'plab ilmiy muloqotlar yosh olimni kelgusidagi katta ishlarni bajarishiga imkon yaratdi. 1962-yilda u «O'rta Osiyoning chaqmoqtoshlarni shaxta usulida qazib olish va uni qayta ishlaydigan ustaxonalar» mavzuidagi nomzodlik dissertatsiyasini yoqlaydi va o'zbek arxeologlari ichida birinchi paleolitshunos bo'lib yetishadi. Aynan M.R.Qosimov birinchi marta o'rta va quyi paleolit davri toshni qazib olish va uni qayta ishlash bo'yicha olib borilayotgan izlanishlarni birinchilaridan bo'lib boshlab berdi.

O'rta Osiyodagi Tosh qazib olinadigan ustaxonalardan to'plangan materiallar M.R.Qosimovga tosh qazib olish industriyasini rivojlanish bosqichlarini aniqlash imkonini berdi.

1963-1987-yillarda faqatgina O'zbekiston xududidagina emas, balki butun O'rta Osiyo xududida yagona bo'lgan Ko'lbuloq yodgorligini qaziydi. Aynan shu yodgorlik juda ham ko'plab arxeologlarga maktab vazifasini o'tadi deb aytsak xato qilmagan bo'lamiz. M.R.Qosimov bu yodgorlikni o'rganish uchun faqat arxeologlarnigina emas, balki to'rtlamchi davr bo'yicha mutaxassislar-geologlar,

geomorfologlar, paleogeograflar, paleozoologlar, litologlar, palinologlar va paleomagnet hodisasi bo'yicha mutaxassislarni jalb etdi. Klbuloqda 20 yil davomida olib borilgan qazishmalar natijasida 600 kv. m maydon ochildi, yodgorlikni markaziy qismida er yuzasidan 19 m. chuqurlikka tushildi. Shu chuqurlikda 49 ta madaniy qatlam ajratildi, hamda ularning davri muste va yuqori paleolit davrigacha bo'lgan davrlarga xos ekanligi ma'lum bo'ldi. Bu qatlamlardan topilgan tosh qurollarini M.R.Qosimov chuqur analiz qilib, ularni quyi plestotsendan yuqori pleystotsen davrigacha bo'lgan geologik davrlarga xos ekanligini aniqladi.

M.R.Qosimov 1990-yilda himoya qilingan «O'rta Osiyo va janubiy Qozog'istonni paleolit davri muammolari» mavzuidagi doktorlik dissertatsiyasida O'rta Osiyo va Qozog'iston xududlari paleolit davri odamlari: Yevropaning muzliklarbwyi, O'rtaer dengizi, Yaqin-O'rtasharq va Sibir-mongol madaniyatlarining bir-birlari bilan to'qnash keladigan joyi ekanligini isbotlab berdi. Bu yodgorlikda to'plangan juda katta kolleksiyani tah'lil qilib o'sha davr odamlarining madaniyati, xo'jaligi, turmushi va ilk diniy tushunchalari to'g'risida kerakli xulosalarni chiqardi.

M.R.Qosimovning ilmiy faoliyati 6 ta monografiya, 100 ortiq ilmiy maqolalarda aks etgan. Uning ilmiy faoliyati endilikda kelgusi avlod, yoshlar uchun namuna bo'lib qoladi.

X u l o s a

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyin mamlakatimiz xalqlari tarixini, uning betakror madaniyatini o'rganishni o'ziga maqsad qilib oldi. Tariximizni chuqur o'rganishni Prezident Islom Karimov o'zlarining qator chiqishlarida doimo uqdirib keladi²¹.

Arxeologiya ham tarix fanining bir qismi bo'lib, bu ikki fan bir-biriga qarama-qarshi bo'lmasdan, balki o'zaro hamkorlikda ishlaydigan va bir-birini to'ldiradigan fandır. Shuning uchun tarix fanidan arxeologiyani, arxeologiya fanidan tarixni ajratib bo'lmaydi. Arxeologiya fani tarixni yozma manbalardan tashqari asosan moddiy madaniyat manbalariga qarab o'rganadi.

Arxeologiya fani O'rta Osiyoga bu xududni ruslar bosib olgandan keyingina kirib kelgan. Rossiya xududiga ham arxeologiya fani Yevropadan kelgan. O'rta Osiyo xududida ruslar kelgunga qadar mahalliy aholi tomonidan biron-bir yerda arxeologik izlanishlar olib borilganligi to'g'risida ma'lumot uchramaydi.

Ammo insoniyat yaratilibdi-ki, u o'zining qayerdan kelib chiqqanligi, kimlarni avlodi ekanligini bilishga bo'lgan intilish, qiziqish uni hech qachon tark etmagan. Shuning uchun eng qadimgi zamonlardan boshlab o'zlarini tarixlarini otabobolaridan qolgan hikoya, rivoyat, doston, yoki afsonalarga yo'girilib ketgan tarixni bir-birlariga aytishgan va avloddan-avlodga alohida doston sifatida berilgan. Xuddi shunday qadimgi xalqlardan qolgan tarixiy manbalardan hindlarning «Ramayana», Qadimgi Sharq xalqlaridan qolgan «Gilgamish va Enkidu», O'rta Osiyo xalqlarining «Alpomish», «Go'ro'g'li», «Manas» kabi asarlari xalqimizni o'zining o'tmishini xotirlab yaratgan asarlari qatoriga kiradi.

Yunonlarning buyuk tarixchisi Gerodot ham qadimgi tarixdan qolgan rivoyaglarga asoslanib turib bir qator fikrlarni aytgan. Lekin antik dunyoning buyuk tarixchi va faylasufi Lukretsiy Kar kabi o'z zamonasidan yaqin ikki ming yil ilgariroq insoniyat tarixini moddiy madaniyat yodgorliklariga qarab uchta katta davrga bo'lib, insoniyat tarixi tosh, mis va temir davrlariga bo'linishini ayta olgan olim bo'ladi.

Eng dastlabkn arxeologik qazishmalarni miloddan avvalgi VI asrda yashagan Vavilon podshosi Nabonid tomonidan amalga oshirilgan. Ammo uning maqsadi qadimgi tarixni o'rganish emas, balki qadimgi podsholiklardan qolgan saroy va

²¹ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent, O'zbekiston, 1998-yil.

ibodatxonalarining tarxi, ularning asosi (fundamenti) qanday yaratilganligini aniqlash va ayniqsa o'sha xalqlardan qolib ketgan tavsiyalarni topib olmoqchi edi.

«Arxeologiya» iborasi antik dunyoda miloddan ilgarigi V asrlardan boshlab uchray boshlaydi, ammo bu atama milodni birinchi asrlaridan boshlab «qadimiyat» atamasi bilan almashinadi. Buning sababi bu davrda ham antik dunyo olimlari Gretsiya va Rim davridan qolgan yozuvlarni o'qishga qiziqishgan va ayniqsa ulardan qolgan noyob osori-atiqalarni topib olishni maqsad qilib olishgan edi.

XV-XVI asrlardan boshlab Yevropada antik davr madaniyatiga, o'sha davr osori-atiqalariga bo'lgan qiziqish ortadi, natijada juda ko'p joylarda antik davr yodgorliklarini qazib u joylardan osori atiqalarni qazib olish boshlanadi. Ammo bu davrda antik davr madaniy qatlamlari ham qaysidir xalqning tarixi bilan bog'liq obida ekanligini tushunishmadi.

1711-yilda vulkan ostida qolib ketgan Gerkulanum shahri xarobalarida olib borilayotgan tuproq ishlari paytida qadimgi shaharning qatlamlariga oid haykal topib olinadi. Natijada aynan shu shahar xarobasi xududida tartibsiz ravishda qazishmalar boshlanadi. Bu qazishmalardan asosiy maqsad qimmatbaho haykallar, yoki boshqa buyumlar topib olib uni turli muzeylarga pullash edi. Ahvol shu darajaga borib etdiki, natijada 1753-yilda Gerkulanum va Pompey xududlarida ruxsatsiz qazishmalar o'tkazish taqiqlandi. Ammo nima bo'lganda ham aynan shu ikki katta shahar xarobalari tufayli arxeologik qazish usuli bilan tarixni o'rganish mumkin ekanligini tushunib etdilar.

Arxeologiyaning keyingi rivojlanishi bevosita Yevropadagi iqtisodiy rivojlanish bilan bog'liqdir. Temir yo'llarni, avtomobil yo'llarini qurilishi, Napoleonning Misrga yurishi arxeologiyani rivojlanishiga turtki berdi. Frantsuz olimi Fransua Shampolon (1790-1832) ning juda ko'p tillarni bilishi tufayli va Rozetta topilmasidagi uch tilda yozilgan yozuvlar tufayli Misr ierogliflarini 15 ta belgisini aniqlashga muvaffaq bo'ldilar. Shu 15 ta belgini aniqlash usuli keyingi qadimgi misr ierogliflarini tadqiq etish uchun katta baza bo'lib xizmat qildi. Aynan shu davrga kelib ibtidoiy arxeologiya ham paydo bo'ldi. XIX asrga kelib Yevropalik olimlarning Misrda, Falastinda, Messopotamiyada va Yevropaning ibtidoiy davr makonlarida olib borgan arxeologik qazishmalari tufayli to'liq arxeologik qazishmalar olib borish uslublari shakllanadi. Arxeologiya alohida fan

sifatida ajralib chiqadi.

Rossiya xududida arxeologiyani alohida fan bo'lib ajralib chiqqanligi to'g'risida biron-bir malumot yo'q. Shu narsa aniqki XII asrga oid Ipatevsk yilnomasida xabar berishicha ladoga ko'li bo'yida yashaydigan aholi jala quyib yoqqan yomg'irdan keyin juda ko'plab tanga va mo'nchoqlarni topib olganliklari to'g'risida xabar beriladi. Ularning tasavvurida bu «munchoq va tangalar osmondan yog'ilgan» emish. Bundan kelib chiqib shuni aytish kerakki, o'rta asrlarda ham Rossiyada arxeologiya to'g'risida umuman tasavvurlar bo'lmagan.

XVI-XVII asrlardan boshlab Yevropada muzeylar tashkil etila boshlandi. Bu muzeylarning aksariyat qismi ma'lum shaxslarning hayoti va ijodi, ularning kiyim-boshlarini saqlab ko'rsatishga mo'ljallangan edi. Rossiyada ham shunday muzeylar paydo bo'la boshladi.

Rossiyada arxeologik tasavvurlarni paydo bo'lishida Pyotr I ning 1718-yilda chiqargan buyrug'i alohida ahamiyatga egadir. Unda odamlarni qayerdan qanday topilma topsa, uni olib kelib davlatga topshirishi kerakligi, yana keyinroq chiqarilgan buyruqda esa, topilgan joyni holatini, sharoitini chizishni topshiradi.

Rossiyaning birinchi arxeolog-olimi Z.Ya.Xodakovskiy bo'lib, u birinchilardan bo'lib arxeologik yodgorlikdan real tarixiy jarayonni bilish mumkin ekanligini payqadi. 1811-yilda esa, Kul-Oba yodgorligini P.A.Dyubruks qazishga muvaffaq bo'ldi va o'z davri uchun juda katta muvaffaqiyatga erishdi. Rossiyaning yana ilk arxeologlaridan A.S.Uvarov va P.S.Savelevlar bo'lib, 1851-1854-yillarda Vladimir atroflaridagi mozor-qo'rg'onlardan 7000 tasini qazishadi, ammo hamma gap shunda-ki, shuncha qazilgan qo'rg'onlardan birontasi to'g'risida ma'lumot qolmagan. Bu narsa o'shancha tarixiy manba hisobot yozilmaganligi tufayli yo'q bo'lgan deganidir.

1864-yilda Moskva arxeologlar jamiyati tashkil etiladi. Bu tashkilotni tashkilotchilari A.S.Uvarov va I.E.Zabelin kabi arxeologlar jamiyatni sezdlarini chaqirib turishni tashkil etdi. Bu sezdlar qaysi shaharda tashkil etilsa, o'sha shaharda arxeologik qazishma ishlarini o'tkazish keng joriy etildi. Bu narsa o'sha xududni tarixini arxeologik usullar bilan o'rganishga katta yordam berdi. Bundan tashqari sezdlarda arxeologlar uchun dala tadqiqotlarini o'tkazish uchun uslubiy ko'rsatmalar tayyorlash kerakligiga alohida e'tibor berildi.

XIX asrning oxiri XX asr boshlarida yashab ijod qilgan yana bir yirik arxeolog V.A.Gorodtsov bo'lib, u juda ko'plab shogirdlarni arxeolog sifatida tarbiyaladi va eng muhimi «Arxeologik qazishmalar o'tkazish va topilgan materiallar ustida ishlash bo'yicha ko'rsatma» degan kitobni chop ettirdi. Eng muhimi V.A.Gorodtsov o'zining «ko'rsatma»larida har qanday yodgorlikni qatlamma-qatlam qazish kerakligini aytadi. Uning aynan shu ko'rsatmasi ahamiyati jihatidan juda qimmatli edi.

Bu davrlarda chet ellarda ham qazishma ishlari keng avj olgan bo'lib, ulardan eng mashhurlari G.Shliman Troya xarobalarida (Gissarlik) qazishma olib bordi va juda katta hajmda transheya solish usuli bilan qazilganligi uchun yodgorlikka juda katta ziyon etkazilgan. Bu xatolarni tushungan nemis olimi V.Dyorpfeld arxeologiya fanida birinchilardan bo'lib ilmiy asosga asoslangan uslubiy ko'rsatmalar berishga muvaffaq bo'ldi. V.Dyorpfeld qazishmada asosiy e'tiborni qazishmani to'liq rekonstruksiyasini tiklashga harakat qildi. V.Dyorpfeldning eng buyuk ixtirosi bu qurilish gorizontlari bo'yicha qazishmalarni olib borish kerakligini tushunganligi bo'ldi.

B.V.Farmakovskiy (1870-1928) Olviya qazishmalarini diqqat bilan kuzatar ekan, birinchi marta har qaysi qatlamga alohida e'tibor berish kerakligini, ayniqsa mozor-qo'rg'onlarni qazish davomida avval ustki qismidagi tuproq uyumini to'liq ochib, keyin pastki qatlamlarni qazish kerakligini aytdi.

Arxeologiyani alohida fan bo'lib taraqqiy etishida ibtidoiy davr tarixi va uni arxeologiyasini shakllanishi jarayoni ham alohida o'rin tutadi. Bunda Yevropalik olimlarni, ayniqsa Frantsiyalik arxeologlarni o'rni kattadir. Frantsiyaning ibtidoiy davr arxeologlari tufayli hozirda ham ko'plab ibtidoiy davr tarixini davrlashtirish masalalari, ularni nomlari, qazish usullari ko'proq frantsuz atamalari bilan ishlatiladi.

O'zbekistonda arxeologiyani shakllanishida mahalliy aholi ichidan chiqqan havaskor arxeolog va o'lkashunoslarni o'rni katta. Ayniqsa mahalliy ilmiy odamlar ichida turk va fors tillarini yaxshi biladigan, arab alifbosida yozilgan qo'lyozmalarni o'qiy oladigan odamlarni Rossiyalik sharqshunoslar bilan tanishishi juda ham katta ijobiy natijasini berdi. Ular birinchidan qadimgi tariximiz bo'yicha juda ko'plab materiallar to'plagan bo'lsalar, ikkinchidan shu mahalliy aholi orasidan chiqqan yoshlarni arxeologik qazishmalar olib borib tarixni o'rganish mumkinligini

tushuntirishdi.

Bunday havaskor o'lkashunoslar ichida Akram Polvon Asqarov, Mirza Abdulla Buxoriy, Abu Said Maxsum, Turdi Mirg'iyosovlarni aytib o'tish mumkin.

O'rta Osiyoga eng dastlabki arxeologik qazishmalar yordamida tarixni o'rganish mumkin ekanligini kiritganlar Rossiyalik sharqshunoslar bo'ladi. Bular Sankt Peterburglik - N.I.Veselovskiy, V.V.Bartold, A.Yu.Yakubovskiy, A.M.Belenitskiy kabi olimlarning o'rni kattadir.

O'zbekistonda milliy arxeologiya maktabini shakllanishida mahalliy aholi orasidan chiqqan Yah'yo G'ulomovich Gulomovning xizmatlari juda kattadir. Yah'yo G'ulomovich G'ulomovning haqiqiy olim bo'lib yetishishida uning juda ham ko'plab yirik rus olimlarining maruzalarini tinglashi, ular bilan bevosita muloqotda bo'lishi, Xorazm, Surxondaryo, Zarafshon va Farg'onadagi arxeologik obidalaridagi qazishmalarda qatnashishi uni yirik olim bo'lib yetishishida katta ro'l o'ynadi. Ayniqsa V.L.Vyatkin, A.Yu.Yakubovskiy, S.P.Tolstov, M.E.Masson, A.I.Terenojkin, A.I.Bernshtam, S.P.Okladnikov, Gerasimov kabi arxeologiya fanining darg'alari bilan bo'lgan muloqotlari katta ro'l o'ynadi.

Ya.G'.G'ulomovning qilgan katta ishlaridan biri bu o'zbek milliy arxeolog kadrlarni tayyorlash uchun juda katta harakat qildi. Buning uchun ko'plab arxeologiya faniga qiziqqan yoshlarni o'sha davrning yirik arxeologiya markazlari Moskva va Leningraddagi ilmiy tekshirish institutlaridagi arxeolog-olimlarda malakasini oshirish uchun stajer-tadqiqotchi qilib yuborildi, dissertatsiyalarni himoya qilish uchun esa, aspirantura va doktoranturaga yuborishga muvaffaq bo'ldi. Juda ko'plab tarixchi va arxeologlarga, ayniqsa qadimgi va yaqin o'tmishdagi irrigatsiya tarixi bo'yicha mavzularda, domlaning o'zi juda ko'plab tarix fanlari nomzodi va tarix fanlari doktori ilmiy darajali yoshlarni chiqardi.

Natijada juda qisqa muddatda arxeologiya fanining juda tor ywnalishlari - tosh davri, bronza davri, qadimgi va antik davri bo'yicha mutaxassislar, o'rta asrlar bo'yicha mutaxassislar etishib chiqdi. Bu mutaxassislar yana O'rta Osiyoning ma'lum xududlari bo'yicha ham ixtisoslashishdi va hozirgi kunda ham mehnat qilmoqdalar.

Arxeologiya faniga ko'maklashuvchi yana bir qator mutaxassislar - ximik tamirlovchilar, metall, shisha va sopol buyumlarini ximik xususiyatlarini

aniqlovchilar, antropolog, numizmat kabi arxeologiyaning noyob sohalarini chuqur biladigan olimlar tayyorlandi.

Yah'yo G'ulomovning sa'y-harakatlari bilan o'tgan asrning 50-70 yillarida O'zbekiston xududidagi arxeologik yodgorliklarda mustaqil ravishda arxeologik qazishmalar olib boradigan arxeolog kadrlar bilan to'liq taminlandilar. Bunday muvaffaqiyatning natijasi juda tez bilindi. Aynan o'tgan asrning 70 yillarining oxirlaridan butun respublikamizning hamma viloyatlarini qamrab olgan yirik ekspeditsiyalar tashkil etildi. Bu ekspeditsiyalarning ilmiy yutuqlari va natijalari ilmiy to'plamlarda, mualliflarning monografiyalarida nashr etildi. Juda ko'plab butun dunyoga ko'z-ko'z qilsa arziydigan topilmalar va ilmiy kashfiyotlar qilindi.

Mustaqillik yillarida arxeologiya fani yana ham katta muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritdi. Ilgari sobiq ittifoq doirasida o'zining yogiga o'zi qovurilib yurgan O'zbekiston arxeologiyasi endilikda jahonga yuz tutdi. Mustaqillikkacha bo'lgan davrda O'zbekistonlik arxeologlar chet ellarga deyarli chiqarilmas edi. Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyin jahonning eng ilg'or-Frantsiya, Germaniya, Italiya, Shveysariya, Amerika, Yaponiya va Xitoy kabi mamlakatlaridagi nufuzli ilmiy tashkilotlar bilan aloqalar o'rnatildi. Hozirda O'zbekistonlik arxeologlar respublikamizning deyarli barcha viloyatlarini qamrab olgan xalqaro ekspeditsiyalar tuzib, birgalikda arxeologik obidalarda qazishmalar o'tkazmoqdalar.

Chet ellik olimlar bilan birgalikda mamlakatimiz xududidagi bir qator viloyatlarda qazishmalar o'tkazdilar. Jahonning rivojlangan mamlakatlari bilan birgalikdagi ekspeditsiyalarimiz mamlakatimizning arxeologiya bo'yicha chiqqan eng ilg'or qazish uslublari, foto, kino, raqamli fotoapparatlardan foydalanish, kosmik suratlardan arxeologik obidalarni yer yuzidan ko'rib bo'lmaydigan tomonlarini kuzatish kabi so'zsiz g'arbning eng ilg'or uslublari va texnologiyalari bilan tanishdilar.

Shunday qilib, O'zbekiston xududida arxeologiyani paydo bo'la boshlaganiga endigina 150 yil bo'lgan bo'lsa ham arxeologiya fani tashkil topdi, rivojlandi va jahonning eng taraqqiy yetgan mamlakatlarning fani darajasiga chiqdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov Í.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent, O'zbekiston, 1998-yil.
2. Karimov Í.A. Jayxun sohilidagi abadiy shahar // Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. Asarlar, 10-tom. Toshkent, O'zbekiston, 2002.
3. O'z.R.FA Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish twg'risidagi Vazirlar Mah'kamasining qarori, Xalq swzi. 1998, 29 iyul
4. Askarov A.A. Uspexi arxeologov Uzbekistana v izuchenii kamennogo veka ÍMKU-11, Íz-vo «Fan», -T.: 1974.
5. Avdusin D.A. Poleyaya arxeologiya SSSR. M.: 1980.
6. Bartold V.V. Otchet o komandirovke v Turkestan // ZVORAO. T.XV, S.-Pb., 1904.
7. Bartold V.V. Sochineniya. T. 1. Moskva, 1963.
8. Bartold V.V. Ístoriya izucheniya Vostoka v Evrope i v Rossii. SPb., 1911.

9. Veselovskiy N.I. İstoriya İmperatorskogo arxeologicheskogo obshestva za pervoe pyatidesyatiletie ego suvdestvovaniya, 1846-1817
10. Dikshit S.K. Vvedenie v arxeologiyu. M.: 1960.
96 gg. SPb., 1900.
11. Lunin B.V. O numizmatischeckoy kolleksii uzbekskogo sobiratelya drevnostey Akrama Askarova (po arxivnim dannim) // İMKU. Vıp. 5. Tashkent, Fan, 1964.
12. Lunin B.V. Samarkandskiy lyubitel drevnostey i kalligraf Abu Said Maxzum // İMKU. Vıp. 7. Tashkent, Fan, 1966.
13. Lunin B. Svet iz proshlogo // Zvezda Vostoka. 1990, №6, s.125-126.
14. Muminov İ.M. İz istorii razvitiya obshestvenno-filosofskoy misli v Uzbekistane kontsa XIX - nachala XX vv. Tashkent, Gosizdat, 1957.
15. Muh'ammadjonov A. Arxeologiya // O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. Toshkent, O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. 2000.
16. Sadikova N. Muzeynoe delo v Uzbekistane. Tashkent, Fan, 1975.
17. Trudi ot dela istorii kulturi i iskusstva Vostoka. Moskva, 1940.
18. Turkestanskiye vedomosti. 1912, № 46.
19. Shirinov T.Sh. O'zbekistonda arxeologiya fanini rivojlantirish kontseptsiyasi // WMMT. 32-son. Toshkent, Fan, 2001.
20. Shirinov T.Sh., Pardaev M.X, Mirzaah'medov J.K., Akademik Ya.G'.G'ulomovning hayot yo'li va ilmiy merosi. // WMMT. 29-son. Samarqand, Sug'diyona, 1998.
21. Shishkin V.A. Observatoriya Ulugbeka i eyo issledovanie // Trudi İnstituta istorii i arxeologii AN UzSSR. T. 5. Tashkent, 1953
22. Dikshit S.K. Vvedenie v arxeologiyu. M.: 1960.
23. Kabirov J., Sagdullaev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. -T.: 1990.
24. Shirinov T.Sh., Berdimuradov A., Pardaev M.H. Mustaqillik yillarida arxeologiya fanini taraqqiyoti. İMKU -37, Samarqand.: 2010.
25. Masson M.E. Kratkiy ocherk istorii izucheniya Sredney Azii v arxeologicheskoy otnoshenii. Ch. I, Trudi SAGU, n.s.t. LXXXI, istorich. nauk, kn. 12, -T.: 1956.
26. Shishkin V.A. K istorii arxeologicheskogo izucheniya Samarkanda i ego okrestnostey. Afrasiab. Vıp. I. -T.: «Fan», 1969, s.5.

27. Yakubovskiy A. Yu. Iz istorii arxeologicheskogo izucheniya Samarkanda, TOVE, II, 1940, str. 285-336.